

O‘ZBEKISTONDA — OLIY TA‘LIM —

ilmiy, o‘quv–uslubiy, tahliliy jurnal



1 2026 yil

ISSN 2181–3051

www.edujournal.uz

 [edujournal.uz](https://www.facebook.com/edujournal.uz)

 [edujournal.uz](https://www.instagram.com/edujournal.uz)

 [edujournal_uz](https://www.telegram.com/edujournal_uz)

 [edujournaluz](https://www.youtube.com/edujournaluz)



Raqobat yo'q joyda hech qachon o'sish bo'lmaydi.
Raqobatbardoshlik uchun esa kuchli intizom va
ijodkorlik talab qilinadi.

Batafsil 38–betda o'qing →

O'ZBEKISTONDA — OLIY TA'LIM —

Ilmiy, o'quv-uslubiy, tahliliy jurnal

Jurnal O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalariga tarqatiladi.

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligidan **1495**-raqamli guvohnoma bilan


29.12.2021 sanasida ro'yxatdan o'tkazilgan.

“O'zbekistonda oliy ta'lim” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi № **327/6**-sonli qarori bilan **iqtisodiyot, yuridik, filologiya, pedagogika** va **siyosiy fanlar**, Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 25-dekabrdagi 365-son qarori bilan texnika fanlari bo'yicha **falsafa doktori (PhD)** va **fan doktori (DSc)** ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

 Manzil:
Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 2/1-uy

 E-mail:
press@devedu.uz

 Vebsayt:
www.edujournal.uz

 Telefon:
+998 (71) 207-03-43 (125)

O'zbekistonda oliy ta'lim

Ilmiy, o'quv-uslubiy, tahliliy jurnal

Tahrir hay'ati raisi

Qo'ng'irotdoy Sharipov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Bosh muharrir:

Abduvali Xoliqov

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi direktori

Ijodiy muharrir:

Sadoqat Maxsumova

Tahrir haya'ti a'zolari:

Oqil Salimov

Shavkat Ayupov

Uktam Salomov

Sardor Radjabov

Sadritdin Turobjonov

Inomjon Majidov

Qalandar Abdurahmonov

Shuhrat Sirojiddinov

Qobil Ro'ziyev (Angliya)

Anush Ayrapetova (Rossiya)

Rustam O'rinboyev (Shvetsiya)

Mustafa Karatash (Turkiya)

Ismoil Saifnazarov

Halim Saidov

Nozima Muratova

Muzaffar Esanov

To'ychi Ahmedov

Vazira Abdujanova

Jaxongir Usmanov

Gulnoza Najmiddinova

Dizayner:

Sherzod Sabirov

MUNDARIJA:

MILLIY TAJRIBA



**LABORATORIYADAN
BOZORGA:
ILM-FAN IQTISODIY
DRAYVERGA
AYLANADIMI?**

 **Alisher
USMONQULOV** **4
17**

TAHRIRIYAT MINBARI



**DIPLOMDAN —
KOMPETENSIYAGA:
ZAMONAVIY
UNIVERSITET
TRANSFORMATSIYASI**

 **Abduvali
XOLIQOV** **18
23**

OLIY TA'LIM ISTIQBOLLARI



**OLIY TA'LIMDA
RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA
VA SUN'IY INTELLEKT**

 **Alisher
ABDULLAYEV** **24
31**

KUN MAVZUSI




**YANGI
MARKAZIY
OSIYO
FENOMENI**

 **Ismoil
SAIFNAZAROV** **32
37**

XORIJDA OLIY TA'LIM



**ILM-FAN —
DAVLAT
TARAQQIYOTINING
YAGONA
YO'LI**

 **Hakimjon
SAIDOV** **38
43**

TADQIQOT



**OLIY TA'LIM
SIFATI TAHLILI**

 **To'ychi
AHMEDOV** **44
50**

 **Botir
QOSIMOV** **44
50**

TADQIQOT




**QONUNIY KUCHGA
KIRMAGAN SUD HUJJATLARI
USTIDAN APPELLYATSIYA
TARTIBIDA SHIKOYAT
QILISHNING PROTSESSUAL-
HUQUQIY AOSLARI**


 **Shodiyor
SHAYZAKOV**

**51
57**

OLIV TA'LIM ISTIQBOLLARI




**ILMIY
TADQIQOT
UNIVERSITETI
KONSEPSIYASI**

 **Ikrom
RIXSIBOYEV**

**58
71**

FIKR



**UNIVERSITET -
BILIM ISHLAB
CHIQRADIGAN
MARKAZ**

 **Alfira
MAKHMUTOVA**

**72
77**

TADQIQOT



**“REGISTRATOR OFISI”
HOLATINI O'RGANISH
NATIJALARI**

 **Begali
XOLMIROV**

**78
84**

OLIV TA'LIM ISTIQBOLLARI



**KINO TA'LIMIDA
PEDAGOGIK
INNOVATSIYALAR**

 **Aziza
KURBANOVA**

**85
92**

YOSHLAR MINBARI



**SUN'IY INTELLEKT
TALABALAR UCHUN
DO'ST
YOKI
DUSHMAN?!**

**E'zozabonu
ABDUMUTALIYEVA**

**Mashhura
NURULLOYEVA**

**93
96**

LABORATORIYADAN BOZORGA: ILM-FAN IQTISODIY DRAYVERGA AYLANADIMI?



**Alisher
USMONQULOV**

Jizzax politehnika instituti rektori,
texnika fanlari doktori, professor



Oliy ta'lim tashkilotlari bugun, shunchaki, diplom beradigan maskan emas, balki jamiyatni rivojlantirish barobarida iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuchga aylanishi kerak. Jizzax viloyati yirik sanoat markaziga aylanib borayotgan bir paytda, mahalliy olimlarning izlanish va tadqiqotlari, pirovardida ixtirolari laboratoriyada qolib ketmasdan, amaliyotda korxonalariga foyda keltirishi zarur. Xo'sh, hududdagi oliy ta'lim tashkilotlari bu vazifani nechog'lik uddalamoqda? Ular sanoatning yechimini kutayotgan masalalaridan xabardormi? Izlanishu tadqiqotlar amalda biron qiymatga egami? Shu va shu kabi savollarga javob olish maqsadida Jizzax politexnika instituti rektori, tarix fanlari doktori, professor Alisher Usmonqulov bilan suhbatlashdik.

Institut rektori bilan ilm-fanni tijoratlashtirishdagi real holat haqida ochiq muloqot qildik. Suhbat davomida nafaqat erishilgan yutuqlar, balki yo'l qo'yilgan xatolardan chiqarilgan muhim xulosalar bilan ham tanishasiz.

— Bugun oliy ta'lim muassasasi nafaqat bilim berish maskani, balki iqtisodiy drayverga ham aylanishi kerak. Jizzax politexnika institutida ilmiy ishlanmalarni «laboratoriyadan bozorga» olib chiqishning qanday yaxlit tizimi (ekotizimi) yaratilgan?

— Jizzax politexnika instituti uchun asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri — ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish va ularni iqtisodiy qiymatga aylantirishdan iborat. Shu maqsadda institutda “laboratoriyadan bozorgacha” bo'lgan to'liq innovatsion ekotizim bosqichma-bosqich shakllantirilgan.

Avvalo, bu tizim ilmiy g'oyani shakllantirishdan boshlanadi. Institutda yosh olimlar, doktorantlar va talabalar ishtirokida startap g'oyalar generatsiyasi doimiy ravishda tashkil etiladi. Keyingi bosqichda ushbu g'oyalar ilmiy laboratoriyalarda prototip darajasiga olib chiqiladi. Xususan, muqobil energiya, transport, qurilish materiallari va raqamli texnologiyalar bo'yicha zamonaviy laboratoriyalar faol ishlayapti.

Institutda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarini xukumat va davlat darajasida yuksak baholanib, davlat rahbari tomonidan alohida rag'batlantirildi. Misol uchun, 2023-yil 10-fevralda Jizzax viloyatiga tashriflari doirasida institutda olib borilayotgan ishlar bilan tanishib, kremniy asosidagi quyosh panellarini ishlab chiqarish loyihasini moliyalashtirish vazifasi berildi. Natijada, zamonaviy uskunalar olib kelinib, institut huzurida “Muqobil energiyalarni tadqiq etish ilmiy-amaliy markazi” tashkil etildi. Bu markaz nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki aniq innovatsion mahsulotlar yaratish va ularni tijoratlashtirish uchun platforma vazifasini bajarmoqda. Markazda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar bevosita sanoat korxonalarining ehtiyojlari bilan integratsiya qilingan. Masalan, qayta tiklanuvchan energiya manbalariga ega korxonalar yuklamasini optimallashtirish, elektr tarmoqlarida quvvat isrofini kamaytirish, taqsimlangan generatsiyani samarali integratsiya qilish kabi mavzular ishlab chiqarish bilan uzviy bog'langan holda tadqiq qilinmoqda. Shu bilan birga, magistrlik dissertatsiyalari ham amaliy yo'naltirilgan bo'lib, energiya samaradorligini oshirish, energiya auditi va quyosh panellarini joriy etish orqali korxonalar xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan. Eng muhimi, ushbu ilmiy ishlanmalar natijasida aniq innovatsion mahsulotlar yaratilmoqda. Jumladan, “Issiqxonalar uchun quyosh panellari” hamda binolarni bir vaqtning o'zida isitish va elektr bilan ta'minlaydigan gibrid qurilma ishlab chiqilib, hozirda intellektual mulk sifatida ro'yxatdan o'tkazilmoqda. Xalqaro hamkorlik ham mazkur ekotizimning muhim qismi hisoblanadi. Xususan, ERASMUS+ dasturi doirasida amalga oshirilayotgan “O'zbekistonda quyosh energiyasi bo'yicha bakalavrlar uchun maqsadli ta'lim dasturini

ishlab chiqish” (DEBSEUz) loyihasi institutning ilmiy va ta’lim salohiyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu loyihada Politecnico di Torino, University of Évora va Technical University of Madrid kabi yetakchi Yevropa universitetlari ishtirok etmoqda.

Qisqacha aytganda, institutda “g’oya – laboratoriya – prototip – sinov – ishlab chiqarish – bozor” zanjiri to’liq shakllantirilgan bo’lib, ayniqsa muqobil energiya yo’nalishidagi loyihalar bu tizimning amaliy natija berayotganini yaqqol ko’rsatmoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasasining haqiqiy iqtisodiy drayverga aylanayotganining amaliy isbotidir.



— *Jizzax viloyati yirik industrial markazga aylanib bormoqda (masalan, avtomobilsozlik, qurilish materiallari). Institut ilmiy izlanishlari hududdagi korxonalarning real texnologik muammolarini yechishga qay darajada yo’naltirilgan va bu borada «buyurtma asosidagi tadqiqotlar» amaliyoti qanday yo’lga qo’yilgan?*

— Institutimiz o’z ilmiy faoliyatini to’liq ravishda Jizzax viloyatining sanoat ehtiyojlari bilan uyg’unlashtirgan. Jizzax viloyatining yirik industrial markazga aylanib borayotgani, ayniqsa avtomobilsozlik va qurilish materiallari, energetika va yengil sanoat sohalaridagi keskin o’sish institut oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo’ymoqda. Shu sababli, 2026-yil holatiga ko’ra institut “amaliy fan” modeliga to’liq o’tgan, ya’ni ilmiy tadqiqotlar bevosita ishlab chiqarish muammolarini hal qilishga qaratilgan.

Bu jarayon, avvalo, yirik sanoat korxonalari bilan chambarchas integratsiya orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, BYD Uzbekistan Factory va ADM Jizzakh kabi korxonalar bilan hamkorlikda transport muhandisligi, elektromobillar va ularning butlovchi qismlarini mahalliyashtirish bo’yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu tadqiqotlar elektromobillarni mahalliy iqlim va yo’l sharoitlariga moslashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va mahsulot tannarxini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda profosser-o’qituvchilarimiz zavod muhandislari bilan Markaziy Osiyo iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda gibrid elektr transport vositalari uchun energiya oqimini dinamik boshqarish tizimini yaratish

hamda elektromobillarning Blade batareyalarini qayta ishlash va ulardan quyosh batareyalarida foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib bormoqda. Bundan tashqari, qurilish materiallari sohasida yangi mahsulotlarni taklif qilish maqsadida institut professori tomonidan vermekulit asosida olovga bardoshli yangi qurilish materiallarini olish texnologiyasi yaratildi.

E‘tiborlisi, magistrant va doktorantlar bu jarayonlarga to‘liq jalb qilingan. Ularning dissertatsiya ishlari ham aynan korxonalarining mavjud muammolarini hal etishga qaratilgan va ular amalda joriy etiladi.

Shu bilan birga, institutda “korxonalar–oliygoh–ilmiy tashkilot” klaster tizimi tashkil etish orqali “buyurtma asosidagi tadqiqotlar” amaliyoti yangi bosqichga olib chiqildi. Bu tizimda korxonalarining aniq texnologik muammolari — masalan, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, resurs tejamlorligi yoki sifatni oshirish — to‘g‘ridan-to‘g‘ri ilmiy loyiha sifatida qabul qilinib, yechim ishlab chiqiladi.

Qisqacha aytganda, institutda “buyurtma – tadqiqot – joriy etish – iqtisodiy samara” zanjiri to‘liq ishlayapti. Ilmiy izlanishlar endi nazariy emas, balki erkin iqtisodiy zonalar va sanoat klasterlarining aniq “texnologik buyurtmalari” asosida shakllantirilmoqda. Bu esa institut hudud sanoatining intellektual va texnologik tayanchiga aylanyotganidan dalolat beradi.



— *Ishlanmani bozorga chiqarishda patent va mualliflik huquqi eng muhim bosqich hisoblanadi. Olimlarning ixtirolarini huquqiy himoya qilish va keyinchalik ularni sotish (litsenziya shartnomalari) borasida OTMda qanday mexanizmlar ishlayapti?*

— Ilmiy ishlanmalarni huquqiy himoya qilish va ularni tijoratlashtirish “laboratoriyadan bozorgacha” zanjirining ajralmas qismi sifatida tizimli yo‘lga qo‘yilgan.

Avvalo, institutda intellektual mulk bilan ishlash bo‘yicha maxsus tuzilma — tijoratlashtirish bo‘limi faoliyat yuritadi. Ushbu bo‘lim olimlarga ixtirolarni rasmiylashtirish, patent olish va mualliflik huquqini himoya qilish

jarayonlarida to'liq huquqiy va metodik ko'mak beradi. Ilmiy ishlanma yaratilganidan so'ng, uning patentga layoqatligi (ya'ni yangilik, sanoatda qo'llanish imkoniyati va ixtirochilik darajasi) ekspertiza qilinadi va intellektual mulk agentligi orqali rasmiy ro'yxatdan o'tkaziladi. Xususan, o'tgan yilning o'zida institut professor-o'qituvchilari tomonidan 13 ta ixtiroga patent, 138 ta EHM dasturlariga mualliflik guvohnomolari olindi.

Ikkinchi muhim bosqich — intellektual mulkni tijoratlashtirish. Bunda “patent olish — bu faqat boshlanish” tamoyili asosida ishlaydi. Ya'ni, har bir patentlangan ishlanma bo'yicha alohida biznes-model ishlab chiqiladi: u to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarishga joriy etiladimi yoki litsenziya orqali korxonalariga beriladimi — oydinlik kiritiladi.

Shu maqsadda, institutda litsenziya shartnomalarini tuzish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Ilmiy ishlanmalarga qiziqish bildirgan korxonalar bilan muzokaralar olib borilib, texnologiyadan foydalanish huquqi ma'lum shartlar asosida beriladi. Bu esa olimlar uchun qo'shimcha daromad manbai yaratadi, institut uchun esa barqaror moliyaviy tushumlarni ta'minlaydi. Misol uchun, institut “YuTUG MAYDONI” fermer xo'jaligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi “Seleksiya yutuqlari to'g'risida”gi Qonunning 39-moddasi, O'zbekiston Respublikasi “Urug'chilik to'g'risida”gi Qonunning 25-moddasiga binoan Adliya vazirligida № IAP 7917-sonli “Paxta xomashyosi uchun separator” ixtiro patentidan foydalanish uchun №29-sonli Litsenziya shartnomasini tuzdi. Litsenziya shartnomasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida “Paxta xomashyosi uchun separator” pnevmotransport uskunasini takomillashtirish hamda atmosferaga chiqib ketayotgan tolali chiqindilarni ushlab qolib, undan samarali foydalanish va sertifikatlash, realizatsiya qilish, sotish hamda keyinchalik qayta ishlanadigan mahsulotni ko'paytirish amaldagi standart va me'yoriy hujjatlar asosida olib borish huquqi berilgan.

Ayni paytda muqobil energiya sohasida yaratilgan, jumladan issiqxonalar uchun quyosh panellari va gibrid energetik qurilmalar bo'yicha hujjatlar intellektual mulk sifatida ro'yxatdan o'tkazilmoqda. Keyinchalik ularni sanoat korxonalariga litsenziya asosida joriy etish rejalashtirilgan.

Institutda shakllantirilgan “ixtiro – patent – litsenziya – daromad” zanjiri olimlarning g'oyalarini huquqiy himoya qilish bilan birga, ularni real iqtisodiy qiymatga aylantirishga xizmat qilmoqda.



— *Talabalar va yosh olimlarning innovatsion g'oyalarini qo'llab-quvvatlash uchun institut qoshida texnopark yoki inkubatsiya markazlarining roli qanday? Ilk prototiplarni yaratish uchun mablag' va investitsiyalarni jalb qilishning qaysi manbalaridan samarali foydalanilmoqda?*

— Institutda Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida so'nggi 3 yilda umumiy qiymati 1,830 mlrd. so'mlik 2 ta davlat granti amalga oshirilgan va jami 1,629 mlrd. so'm pul mablag'i tushum qilingan. 2024-yil bo'yicha umumiy qiymati 439 mln. so'mlik 1 ta davlat granti bajarilgan bo'lsa, 2025-yilda umumiy qiymati 1,083 mlrd. so'mlik 2 ta davlat granti amalga oshirilmoqda. Institut o'tgan yilda umumiy qiymati 107,0 mln. so'mlik 2 ta akademik harakatchanlik dasturida ham g'olib, deb topildi.

Hozirda institut tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida jami 2 ta ilmiy loyiha bajarilmoqda, bular “Vermikulit asosida issiqlikka chidamli va olovga bardosh qurilish plitalarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish” hamda “Ferula tadshikorum Pimenov turining urug'laridan ekilgan ko'chatzorlardan Jizzax viloyatining lalmikor maydonlariga plantatsiyalar tashkil qilish” amaliy loyihalaridir.

Akademik harakatchanlik dasturi doirasida esa “Atrof-muhitni asrash maqsadida havoni paxta changlari va tolali chiqindilardan tozalash qurilmasini yaratish” va “Sifatli tola olish maqsadida paxtani mayda iflosliklardan tozalash mashinasining konstruksiyasini takomillashtirish” amalga oshirilmoqda.



— Olimni ham tadqiqotchi, ham tadbirkor bo'lishga undash qiyin vazifa. Institutda ilmiy ishlanmasini tijoratlashtirgan professor-o'qituvchilar uchun qanday moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi mavjud?

— Zamonaviy olim faqat tadqiqotchi emas, balki innovatsiyani bozorga olib chiqadigan tashabbuskor ham bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, institutda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirgan professor-o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha kompleks tizim joriy etilgan. Avvalo, moddiy rag'batlantirish masalasiga to'xtalsak. Institutda litsenziya shartnomalari yoki xo'jalik shartnomalari orqali daromad keltirgan ilmiy ishlanmalar mualliflariga tushumning muayyan qismi bevosita taqsimlab beriladi. Ya'ni, "ixtiro – patent – joriy etish – daromad" zanjirida olimning shaxsiy manfaati aniq ta'minlanadi. Bu esa ularni faqat tadqiqot olib borish emas, balki amaliy natijaga ishlashga undaydi. Shu bilan birga, xalqaro ilmiy texnik bazalarida yuqori kvartilga ega jurnallarda maqolalari chiqqan, patent olgan, startap tashkil etgan yoki sanoatga joriy etilgan ishlanma mualliflariga bir martalik pul mukofotlari, ustamalar ajratiladi. Shuningdek, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etgan olimlar institut miqyosida va respublika darajasida e'tirof etiladi — natijalari turli tanlovlar, mukofotlar va ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ib qilinadi. Bu esa ularning nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Yana bir muhim yo'nalish — ish sharoitlarini yaxshilash. Tijoratlashtirish bilan shug'ullanayotgan olimlarga laboratoriya bazasidan keng foydalanish, sanoat korxonalarini bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash va xalqaro loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlari yaratiladi.

Qolaversa, davlat darajasida ham bu jarayon qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, Vazirlar Maxkamasining "Ilm-fan va ta'lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo'shimcha haq to'lash tartibi to'g'risida" 1030 karoriga asosan 60 gacha ustama olishlari belgilangan. Bir so'z bilan aytganda, institutda olim uchun aniq "manfaat zanjiri" yaratilgan: ilmiy g'oya → amaliy ishlanma → tijoratlashtirish → shaxsiy daromad va kasbiy o'sish. Bu esa olimlarni tadqiqotchi bo'lish bilan birga tadbirkor sifatida ham shakllantirishga xizmat qilmoqda.





— *Tajribangizdan kelib chiqib aytingchi, ilmiy ishlanmani bozorga chiqarish yoʻlida eng katta toʻsiq nimada: mablagʻ yetishmasligimi, kadrlar malakasimi yoki ishlab chiqarish korxonalarining yangilikka tayyor emasligi? Siz bu toʻsiqlarni qanday yengib oʻtmoqdasiz?*

— Tajribamizdan kelib chiqib aytadigan boʻlsam, OTM uchun ilmiy ishlanmani bozorga chiqarishdagi eng katta toʻsiq — bu birgina omil emas, balki kompleks omillar mavjud. Bular: moliyalashtirish cheklanganligi, professor-oʻqituvchilarning tijoratlashtirish boʻyicha tajribasi yetarli emasligi va ayrim korxonalarining yangi texnologiyalarni joriy etishga ehtiyotkor munosabati.

Birinchi omil — moliya. Ilmiy gʻoyani prototipgacha olib kelish mumkin, lekin uni sanoat miqyosida joriy etish uchun katta investitsiya talab qilinadi. Bu muammoni hal qilish uchun biz davlat grantlari, xalqaro dasturlar va sanoat bilan xoʻjalik shartnomalari orqali diversifikatsiya qilingan moliyalashtirish tizimini yoʻlga qoʻydik. Ayniqsa, sanoat korxonalarini loyihaning dastlabki bosqichidanoq jalb qilish orqali “buyurtmachinvestor” modelini shakllantiryapmiz.

Ikkinchi omil — kadrlar. Anʼanaviy olim koʻproq nazariy tadqiqotga yoʻnalgan boʻladi, bozor mexanizmi, biznes-rejalashtirish, marketing kabi koʻnikmalar esa yetarli emas. Shu sababli, institutda muhandislik maktabi, startup inkubatsiya dasturlari va sanoat bilan dual taʼlim orqali “yangi formatdagi muhandis-olim”ni tayyorlashga eʼtibor qaratyapmiz. Masalan, BYD Uzbekistan Factory bilan hamkorlikda muxandislik maktabi talabalar va yosh olimlar real ishlab chiqarish muhitida ishlash orqali amaliyotda oʻrganmoqda.

Uchinchi omil — korxonalarining tayyorligi. Ayrim hollarda ishlab chiqaruvchilar yangi texnologiyaga oʻtishda risklardan qoʻrqadi yoki mavjud tizimni oʻzgartirishni istamaydi. Bu yerda biz ishonchni oshirish strategiyasini qoʻllayapmiz: avval kichik pilot loyihalarni joriy qilamiz, iqtisodiy samarasini aniq raqamlar bilan koʻrsatamiz, keyin esa kengaytirishga oʻtamiz.

Shuningdek, davlat siyosati ham bu toʻsiqlarni bartaraf etishga yordam bermoqda. Ilmiy ishlanmalarni joriy etish samaradorligi endi asosiy KPI koʻrsatkichlaridan biriga aylandi, bu esa barcha tomonlarni — institut, olim va korxonani — natijaga ishlashga undaydi.

Biz muammolarni alohida-alohida emas, balki tizimli ravishda hal qilyapmiz: moliya — diversifikatsiya orqali, kadrlar — dual taʼlim va startup madaniyati orqali, korxonalar bilan hamkorlik — ishonch va aniq iqtisodiy samara orqali. Shu yoʻl bilan ilmiy ishlanmalarni bozorga chiqarish jarayonini bosqichma-bosqich tezlashtiryapmiz.

— *Texnologiyalar transferi bo'yicha xorijiy oliygohlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganmi? Chet el tajribasidan aynan qaysi jihatlari milliy tajribada qo'llanilmoqda?*

— Juda muhim savol, chunki texnolo-giyalar transferida xalqaro tajriba hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi kunda institutda texnologiyalar transferi bo'yicha xalqaro hamkorlik tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan va u alohida loyihalar emas, balki strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda. Xususan, institutimiz 2008-yildan beri Yevropaning Tempus va ERASMUS+ dasturi doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar orqali Yevropa universitetlari bilan yaqin hamkorlik o'rnatgan. Jumladan, Politecnico di Torino, University of Évora, University of Castello Branco, University of Klagenfurt va Technical University of Madrid kabi yetakchi oliygohlar bilan hamkorlikda nafaqat ta'lim dasturlari, balki ilmiy natijalarni tijoratlashtirish bo'yicha ham tajriba almashilyapti. Chet el tajribasidan, eng avvalo, "Technology Transfer Office (TTO)" modeli joriy etilmoqda. Ya'ni, universitet ichida ilmiy ishlanmalarni patentlash, litsenziyalash va investorlarga taqdim etish bilan shug'ullanadigan professional tuzilma faoliyati kuchaytirilmoqda. Bu bizga ilmiy natijalarni tizimli ravishda bozorga olib chiqish imkonini bermoqda.

Ikkinchi yo'nalish — dual ta'lim va sanoat integratsiyasi. Xorijiy universitetlarda talabalar o'qish jarayonidayoq ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Bu tajriba asosida institutda ham korxonalar bilan hamkorlikda amaliy ta'lim kuchaytirildi. Uchinchi muhim jihat — laboratoriya va tadqiqot infratuzilmasini standartlashtirish. Xalqaro loyihalar orqali zamonaviy uskunalar olib kelinib, ilmiy tadqiqotlarning sifati va ularning sanoat talablariga mosligi ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, professor-o'qituvchilarning xorijiy universitetlarda malaka oshirishi ham katta ahamiyatga ega. Ular nafaqat ilmiy bilim, balki innovatsiyani



boshqarish, startaplarni rivojlantirish va investorlar bilan ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni ham o'zlashtirib qaytishmoqda.

Yana bir narsani qo'shimcha qilishim lozim, institut bu yildan Yevropa standartlariga javob beradigan universitet transformatsiyasini boshlaydi. Bunda strategik hamkor sifatida Vengriyaning Obuda universiteti ishtirok etadi. Shu bilan birga, Jizzax viloyatida tashkil etilgan Jizzakh Inno Science Parkni hamkorlikda boshqarish orqali mahalliy korxonalarining muammolarini yechishda Yevropa texnologiyalari jalb qilish tizimi ham joriy etiladi. Institutning asosiy maqsadi Universitet 4.0 modeliga o'tish.

Umuman olganda, xorij tajribasidan milliy amaliyotda qo'llanayotgan asosiy jihatlar — universitetlarda innovatsion infratuzilmani shakllantirish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, sanoat bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish va talabalarni startap faoliyatiga keng jalb etishdan iborat.

— Har qanday yutuqqa yo'qotishlardan chiqarilgan xulosalar asosida erishiladi. Shu ma'noda ilmiy ishlanmalarni bozorga chiqarishda institut qanday kamchiliklarga yo'l qo'ygan va ularni qanday hal etgan? Chiqarilgan xulosalar bilan ham o'rtoqlashsangiz.

— Albatta, bu savol institutning ilmiy-amaliy faoliyatidagi samaradorlik va o'sish jarayonini ko'rsatadi. Jizzax politexnika instituti bu yo'nalishda qator kamchiliklarga duch keldi va ularni quyidagicha hal qildi: olib borilgan ilmiy tadqiqotlar real bozor ehtiyojiga bog'lanmagan. Ko'p hollarda ishlanmalar bozor talabini o'rganmasdan yaratilgan. Natijada mahsulot ilmiy jihatdan mukammal, ammo amalda xaridor topmagan. Ilmiy yangilikning o'zi yetarli emas — u bozor muammosini hal qilishi shart. Yana bir kamchilik tijoratlashtirish tajribasining yetishmasligi: olimlar tadbirkorlik va biznes rejalashtirish ko'nikmalariga ega emas edi. Hamda ilmiy g'oyadan tayyor mahsulotgacha bo'lgan zanjir to'liq shakllantirilmagan.

Jizzax politexnika instituti ilmiy ishlanmalarni bozorga chiqarish jarayonidagi kamchiliklarini aniqladi va ularni amaliy integratsiya, huquqiy himoya, moliyaviy resurs va yosh olimlarning tijoratchilik ko'nikmalari orqali hal qildi. Bu tajriba institutning kelgusidagi loyihalarini samarali va tizimli amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

— Jizzax politexnika instituti olimlari tomonidan yaratilib, bugungi kunda real iqtisodiyot tarmoqlarida muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan loyiha (ishlanma) haqida ma'lumot bersangiz. Ushbu g'oya qanday tug'ildi, ishlab chiqaruvchi bilan til topishish qancha vaqt oldi. Eng muhimi - bu loyiha institutga hamda ishlab chiqaruvchiga qanday iqtisodiy samara keltirdi?

— Bugungi kundagi eng ko'zga tashlanadigan va iqtisodiy samara keltirgan loyiha — bu "Issiqxonalar uchun quyosh panellari va gibrid energiya tizimi" loyihasi. Loyiha instituta olimlari va talabalari tomonidan muqobil energiyalarni tadqiq etish ilmiy-amaliy markazida ishlab chiqildi. G'oya asosan qishloq xo'jaligi korxonalarining elektr energiyasi va isitish manbalariga bo'lgan yuqori xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan edi. Shu orqali issiqxonalarda quyosh energiyasi va elektr tarmog'i integratsiyasini samarali yo'lga qo'yish maqsad qilindi. Dastlab, ushbu qurilma institutda tayyorlandi va fermerlar bilan kichik pilot loyihalar o'tkazildi. Til topishish va hamkorlik shartlarini muvofiqlashtirish taxminan 2–3 oy vaqt oldi. Bu davrda prototiplar sinovdan o'tkazildi, energiya samaradorligi va texnik ishonchlilik baholandi, litsenziya va

hamkorlik shartnomalari tuzildi. Soʻng, ilmiy ishlanma patentlandi, litsenziya shartnomalari orqali toʻgʻridan-toʻgʻri daromad keltirdi va xalqaro grantlar asosida laboratoriya infratuzilmasi yanada rivojlantirildi. Ishlab chiqaruvchi va fermerlar uchun energiya xarajatlari 30–35%ga qisqardi, issiqxonalar uchun elektr va isitish manbalari integratsiyasi bilan mahsuldorlik oshdi, yangi texnologiyalar samarali ishlab chiqarish jarayonini taʼminladi.



— Yaqin 5 yil ichida Jizzax politexnika instituti oʻz ilmiy ishlanmalari orqali byudjetdan tashqari mablagʻ topish hajmini necha foizga oshirishni rejalashtirgan va bu boʻyicha asosiy «yoʻl xaritasi» nimalardan iborat?

— Jizzax politexnika instituti 2026–2030-yillarga moʻljallangan rivojlanish rejasi doirasida oʻz ilmiy ishlanmalari orqali byudjetdan tashqari mablagʻ topish hajmini hozirgi darajadan taxminan 3–4 barobar oshirishni rejalashtirgan. Bu koʻrsatkich institutning ilmiy ishlanmalarni bozorga joriy etish darajasi va sanoat hamkorliklari orqali amalga oshiriladi.

Asosiy «yoʻl xaritasi» quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy-amaliy markazlar va R&D-markazlari – maxsus laboratoriya va markazlar orqali innovatsion ishlanmalarni prototipdan tijoratgacha olib chiqish.
2. Buyurtma asosidagi tadqiqotlar – sanoat korxonalari va davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda texnologik muammolarni hal qilish, ularning talablari asosida ilmiy loyihalarni shakllantirish.
3. Innovatsion ekotizim va startaplar – institut qoshidagi texnopark va inkubatsiya markazlari, «spin-off» kompaniyalar orqali ilmiy ishlanmalarni bozorga chiqarish.


4. Xalqaro hamkorlik va transfer modeli – ERASMUS+, Yevropa universitetlari tajribasidan olingan Technology Transfer Office va startap madaniyatini joriy etish.

5. Kadrlar va talabalarni jalb qilish – dual ta'lim va sanoat integratsiyasi orqali yosh olimlar va talabalarni ilmiy-texnik loyihalarda faol ishtirok etishga ko'maklashish.

6. Litsenziya va patentdan daromad olish – ilmiy ishlanmalarni patentlash, litsenziya shartnomalari orqali to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy foydaga aylantirish.

7. Kichik pilot loyihalar va demonstratsiya modellari – innovatsiyani kichik hajmda sanoatda sinovdan o'tkazib, korxonalarning ishonchini qozonish.

Ushbu yo'l xaritasi asosida, institutning byudjetdan tashqari mablag'lari har yili yuqori samaradorlik bilan o'sishi va ilmiy ishlanmalarni bozorga integratsiya qilish jarayoni tizimli va samarali amalga oshiriladi.



— Ko'p hollarda olimlarimiz yaxshi mahsulot yaratadi, lekin uni sotishni bilishmaydi. O'z g'oyasini biznesga aylantirmoqchi bo'lgan yosh tadqiqotchilarga tijorat muvaffaqiyatiga erishish uchun qaysi 3 ta asosiy ko'nikmani egallashni tavsiya qilgan bo'lardingiz?

— Bu savol juda muhim, chunki ilmiy g'oyani amalda tijoratlashtirish uchun nazariy bilimdan tashqari amaliy ko'nikmalar talab etiladi. Men yosh tadqiqotchilarga tavsiya bergan 3 ta asosiy ko'nikma quyidagilar:

Birinchidan, har bir tadqiqotchi bozorni tahlil qilish va raqobatni tushunishi kerak. G'oyaning faqat yaxshi texnik yechim ekani yetarli emas. Yosh tadqiqotchi bozorni tahlil qilishni, potensial mijozlar va

raqobatchilarni aniqlashni bilishi lozim. Bu ularga o'z mahsulotini qanday pozitsiyalash, narxini belgilash va qaysi segmentga yo'naltirishni tushunish imkonini beradi.

Ikkinchidan, moliyaviy rejalashtirish va loyiha boshqaruvi bo'yicha bilimga ega bo'lishlari talab qilinadi. Ishlab chiqarish, prototiplar va marketingga ketadigan xarajatlarni to'g'ri baholash muhim. Yosh tadqiqotchi loyihaning xarajat va daromadini hisoblay olishi, investitsiya talablarini aniqlay olishi va resurslarni samarali taqsimlashni bilishi kerak. Bu, shuningdek, investorlar bilan ishlashda ishonchlilik beradi.

Uchinchidan, kommunikatsiya va savdo ko'nikmalari (marketing va prezentatsiya) ham muhim jihatlardan hisoblanadi. G'oyani bozorga olib chiqishda uni to'g'ri taqdim etish, investorlar, ishlab chiqaruvchilar va mijozlar bilan samarali muloqot qilish kerak. Yosh olim mahsulotni tushunarli va qiziqarli qilib taqdim etishni, hujjat va litsenziyalar asosida huquqiy jihatlarni himoya qilishni ham bilishi lozim.

Bularni bir formulada ifodalasak: bozor tushunchasi + moliyaviy va loyiha boshqaruvi + kommunikatsiya va savdo ko'nikmalari — tijorat muvaffaqiyati uchun eng asosiy 3 ko'nikmadir.

— Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni endigina yo'lga qo'yayotgan boshqa OTT ishni nimadan boshlashi kerak?

— Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishni endigina yo'lga qo'yayotgan boshqa Oliy ta'lim tashkilotlari quyidagilarga e'tibor qaratishi zarur.

Birinchidan strategiya va ustuvor yo'nalishlarni belgilash. Avvalo, OTTning ilmiy salohiyatini tahlil qiling: Qaysi sohalarida kuchli maktab bor? Qaysi ishlanmalar bozorga yaqin? Qaysi loyihalar hoziroq tijoratlashishi mumkin? Tijoratlashtirish alohida hujjat sifatida rivojlanish strategiyasiga kiritilishi kerak.

Ikkinchidan texnologiyalar transferi infratuzilmasini yaratish. Quyidagilarni tashkil qilish zarur: Texnologiyalar transferi ofisi (TTO), Intellektual mulk (IP) bo'yicha mutaxassis, Shartnoma va litsenziyalash bo'yicha huquqshunos, Startaplarni qo'llab-quvvatlash markazi.

Uchinchidan intellektual mulk siyosati ishlab chiqish. Quyidagilar aniq belgilanishi kerak: Patent kim nomiga rasmiylashtiriladi? Daromad qanday taqsimlanadi? Mualliflar ulushi qancha? Universitet ulushi qancha? Aniq va adolatli qoidalar olimlarni rag'batlantiradi.

To'rtinchidan bozor tahlilini o'rganishni boshlash. Ilmiy yangilikning o'zi yetarli emas — bozor talabini o'rganish kerak: Mijoz kim? Muammo nimada? Raqobatchilar kim? Tayyor mahsulotgacha qancha sarmoya kerak? "Laboratoriyadan bozorga" fikrlash madaniyatini shakllantirish muhim.

Beshinchidan ilmiy xodimlarni o'qitish. Biznes-model tuzishni bilmaydi, Investor bilan gaplashishni bilmaydi, Startup tashkil qilish tajribasiga ega emas. Shuning uchun: treninglar, mentorlik dasturlari, startup akseleratorlari yo'lga qo'yilishi kerak.

Oltinchidan industriya bilan hamkorlikni boshlash. Ishni katta investordan emas, mahalliy biznesdan boshlash mumkin: Sanoat korxonalarini, Klasterlar, Texnologik parklar, Venchur fondlar.


Yettinchidan moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirish. Boshlang'ich bosqichda: grantlar, davlat dasturlari, innovatsion jamg'armalar, Universitet ichki fondi keyinchalik: Venchur sarmoya, korporativ investitsiya, Spin-off kompaniyalar.



Sadoqat MAXSUMOVA

suhbatlashdi

DIPLOMDAN — KOMPETENSIYAGA: ZAMONAVIY UNIVERSITET TRANSFORMATSIYASI



**Abduvali
XOLIQOV**

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi direktori, kimyo fanlari doktori, professor

Dunyo iqtisodiyoti jadal o'zgarayotgan bir paytda oliy ta'lim tizimi ham tub islohotlar bo'sag'asida turibdi. Bugun oliygohlar faqat "tayyor bilim" berish bilan cheklanib qolmay, ishlab chiqarish va fan integratsiyasini ta'minlovchi drayverga aylanmoqda.

Endilikda "zamonaviy oliygoh" deganda nafaqat yuqori texnologiyalar, balki raqobatbardosh kadrlar tayyorlaydigan yangicha boshqaruv modeli va innovatsion muhit tushunilmoqda. Biroq biz ushbu model talablariga qanchalik tayyormiz? Milliy ta'lim tizimida inson kapitali qanday shakllanmoqda?

Mazkur muhim masala yuzasidan Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi direktori, professor Abduvali Xoliqov bilan suhbatlashdik.

— *“Zamonaviy universitet” deganda ko‘pchiligimiz yangi bino va unda yaratilgan sharoitlarni tushunamiz. Ammo dunyo tajribasida oliygoh — bu eng, avvalo, intellektual mahsulot yaratadigan tashkilot. Sizningcha, oliy ta‘lim tashkilotlari “diplom beruvchi fabrika”dan “bilim yaratuvchi markaz”ga aylanishi uchun tizimda nima o‘zgarishi kerak?*

— Zamonaviy oliygoh deganda, avvalo jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarga tez va samarali moslasha oladigan, ta‘lim, fan va innovatsiyani o‘zaro chambarchas bog‘lab rivojlantiradigan yaxlit va ochiq tizimni tushunaman. Bunday oliygoh faoliyati faqat an‘anaviy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki ilmiy tadqiqotlar orqali yangi bilimlar yaratish, ularni ishlab chiqarish va ijtimoiy amaliyotga joriy etishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, AQShning Massachutes texnologiyalar instituti yoki Stanford universitetlari kabi yetakchi oliygohlar ta‘lim, ilmiy tadqiqot va startap ekotizimini uyg‘unlashtirish orqali innovatsion iqtisodiyot rivojiga katta hissa qo‘shib kelmoqda.

Zamonaviy oliygohning muhim jihati shundaki, u inson kapitalini rivojlantirishni strategik ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ya‘ni ta‘lim jarayonida talabalarning faqat kasbiy bilimlari emas, balki tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, innovatsion yondashuv va jamoada ishlash kabi universal kompetensiyalari shakllantiriladi. Bu borada Oksford va Singapur milliy universitetlari tajribasi diqqatga sazovor bo‘lib, ularda ta‘lim jarayoni tadqiqotga asoslangan yondashuv va talabani mustaqil faolligini rag‘batlantirish orqali tashkil etilgan. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta‘minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, zamonaviy oliygoh ochiq va dinamik institut sifatida xalqaro ta‘lim makoni bilan integratsiyalashgan bo‘lishi lozim. Ilmiy va akademik mobillik, qo‘shma ta‘lim dasturlari, xalqaro tadqiqot loyihalari orqali u global bilimlar almashinuvida faol ishtirok etadi. Jumladan, Buyuk Britaniyaning Kembrij yoki Germaniyaning Myunxen texnika universitetlari kabi oliygohlar xalqaro hamkorlik va innovatsion tadqiqotlar orqali global ta‘lim makonida yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, zamonaviy oliygoh — bu ta‘lim berish, ilmiy izlanish va innovatsiyani uyg‘unlashtirgan, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi strategik markazdir.

— *An‘anaviy ta‘limda talaba — “iste‘molchi”. Yangi modelda esa u “tadqiqotchi”. Bizdagi mavjud akademik muhit talabaga xato qilish va izlanish huquqini qay darajada bermoqda? Masalan, Oksforddagi “tutorial” tizimini bizning ta‘lim tizimiga moslashtirishning imkoni bormi yoki bu faqat elitar ta‘lim uchunmi?*

— Albatta, zamonaviy oliygoh an‘anaviy universitet modelidan mazmunan va vazifalar ko‘lami jihatidan tubdan farq qiladi. Agar an‘anaviy oliygozlarda ta‘lim jarayoni asosan tayyor bilimlarni talabalarga yetkazishga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy oliygozda talabani faol subyekt sifatida shakllantirish ustuvor maqsad hisoblanadi. Bu yerda talaba faqat bilim qabul qiluvchi emas, balki bilimni yaratuvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qo‘llovchi ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, Stanford universitetida ta‘lim jarayoni startap ekotizimi bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, talabalar o‘z g‘oyalarini amaliy loyihalarga aylantirish

imkoniga ega. Shuningdek, Massachutes texnologiyalar institutida “amaliyot orqali o‘rganish” (learning by doing) tamoyili asosida talabalar ilmiy laboratoriyalar va innovatsion markazlarda faol ishtirok etadi.

Zamonaviy oliygohda ta‘lim mazmuni kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida shakllantiriladi. Ya‘ni o‘quv dasturlari talabalarda kasbiy bilimlar bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal etish, mustaqil qaror qabul qilish, kommunikatsiya va jamoada ishlash kabi universal ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Bu borada Oksford universitetidagi “individuallashtirilgan interaktiv o‘qitish usuli” (tutorial) misol bo‘la oladi — unda talabalar kichik guruhlarda mustaqil tahlil va munozara orqali bilim oladi. Shuningdek, Finlyandiyaning Xelsinki universitetida ta‘lim jarayoni fenomeniga asoslangan yondashuv orqali tashkil etilib, fanlararo bilimlarni shakllantirishga katta e‘tibor qaratiladi. Bu esa bitiruvchilarning o‘zgaruvchan mehnat bozori sharoitida moslashuvchan va raqobatbardosh bo‘lishini ta‘minlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy oliygoh ochiq va dinamik ta‘lim muhiti sifatida doimiy ravishda yangilanib boradi. U innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etadi, ta‘lim jarayonini ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘laydi hamda jamiyat ehtiyojlariga tezkor javob qaytarish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Masalan, Myunxen texnika universitetida sanoat bilan integratsiyalashgan tadqiqot markazlari orqali talabalar real ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etadi. Singapur milliy universiteti esa raqamli ta‘lim muhiti va global hamkorlik dasturlari orqali zamonaviy ta‘lim modelini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Demak, zamonaviy oliygoh — bilim, innovatsiya va taraqqiyotni uyg‘unlashtirgan strategik ta‘lim makonidir.

— Ular ichidan eng muhim 3 ta jihatni ajratish kerak bo‘lsa, qaysilarini keltirgan bo‘lardingiz: raqamli infratuzilma, ilmiy salohiyat yoki mehnat bozori bilan integratsiyani?

— Zamonaviy oliygohni tavsiflab beruvchi asosiy xususiyatlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bir nechta strategik yo‘nalishlarni qamrab oladi. Avvalo, raqamli transformatsiya masalasiga to‘xtalib o‘tish lozim. Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta‘lim jarayoniga chuqur joriy etish ta‘lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Elektron ta‘lim platformalari, masofaviy va gibrid o‘qitish shakllari, raqamli baholash tizimlari ta‘limni yanada ochiq, shaffof va moslashuvchan qiladi. Masalan, Arizona davlat universiteti raqamli ta‘limni keng joriy etgan universitetlardan biri bo‘lib, onlayn ta‘lim platformalari orqali yuz minglab talabalarni qamrab olmoqda. Shuningdek, Buyuk Britaniyadagi masofaviy ta‘limga ixtisoslashgan Ochiq universitet (Open University) masofaviy ta‘lim tizimi orqali ta‘limga keng imkoniyat yaratish bo‘yicha ilg‘or modelni namoyon etmoqda.

Ikkinchidan, zamonaviy oliygohda ilmiy-tadqiqot faoliyati ta‘lim jarayonidan ajralgan holda emas, balki u bilan uzviy bog‘liq tarzda tashkil etiladi. Talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb etish, ta‘lim jarayonida tadqiqotga asoslangan yondashuvni qo‘llash orqali ularda tahliliy fikrlash va innovatsion qobiliyatlar shakllantiriladi. Bu borada Massachutes texnologiyalar instituti talabalari ilk bosqichdanoq ilmiy laboratoriyalarda tadqiqot ishlariga jalb etiladi, Kembrij univesiteti esa ilmiy maktablari va tadqiqot markazlari orqali ta‘lim va fan integratsiyasini muvaffaqiyatli ta‘minlab kelmoqda. Bu esa oliygohning ilmiy salohiyatini oshirish bilan birga, ta‘lim mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Uchinchi muhim xususiyat — mehnat bozori bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yishdir. Zamonaviy

oliygoh ta'lim dasturlarini ish beruvchilar ishtirokida shakllantiradi, amaliyotga yo'naltirilgan o'quv modellarini joriy etadi va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini real iqtisodiy ehtiyojlarga moslashtiradi. Masalan, Myunxen texnika universiteti sanoat korxonalarini bilan hamkorlikda dual ta'lim elementlarini joriy etgan bo'lib, talabalarni o'qish davridayoq ishlab chiqarish jarayoniga jalb qiladi. Kanadaning Vaterlu universitetida esa ishlab o'qish dasturi orqali talabalar ta'lim va ish tajribasini bir vaqtning o'zida olish imkoniga ega.

To'rtinchidan, zamonaviy oliygoh faoliyatida xalqarolashuv jarayonlari alohida o'rin tutadi. Akademik mobillik, qo'shma ta'lim dasturlari, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish orqali oliygoh global ta'lim makoniga integratsiyalashadi. Bu borada Singapur milliy universiteti va Avstraliyaning Melburn universitet kabi oliygohlar ko'plab xalqaro hamkorlik dasturlari va qo'shma ta'lim loyihalari orqali yuqori natijalarga erishmoqda. Bu nafaqat ta'lim va fan sifati oshishiga, balki milliy oliy ta'lim tizimining xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur xususiyatlar zamonaviy oliygohni jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan, ta'lim instituti sifatida shakllantiradi.

— Bugun elektron ta'lim platformalari haqida ko'p gapiryapmiz. Biroq texnologiya — bu shunchaki vosita. Savol tug'iladi: raqamli transformatsiya ta'lim sifatini chindan ham oshiryaptimi yoki biz shunchaki “qog'ozbozlik byurokratiyasi”ni “raqamli byurokratiya”ga almashtirib qo'ymayapmizmi?

— Raqamli texnologiyalar bugun oliy ta'lim tashkiloti faoliyatining ajralmas va asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Ular ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholash tizimlarini tubdan yangilash imkonini bermoqda. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy va gibrid o'qitish shakllari orqali ta'lim olish imkoniyatlari kengayib, talabalar uchun vaqt va makon cheklovlari sezilarli darajada qisqarmoqda. Masalan, Garvard universiteti va Massachutes texnologiyalar instituti tomonidan tashkil etilgan “edX” platformasi orqali millionlab talabalar onlayn kurslarda tahsil olmoqda. Shuningdek, Arizona davlat universiteti raqamli ta'limni keng joriy etgan holda dunyodagi eng yirik onlayn ta'lim modellaridan birini shakllantirgan.

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining shaffofligi va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Avtomatlashtirilgan baholash tizimlari, o'quv natijalarini monitoring qilish vositalari hamda raqamli tahlil mexanizmlari ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Bu borada London universiteti masofaviy ta'lim va raqamli baholash tizimlari orqali global talabalar auditoriyasi bilan samarali ishlash tajribasiga ega. Singapur milliy universiteti esa sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili asosida talabalarning o'quv natijalarini monitoring qilish tizimlarini joriy etgan.

Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar o'z-o'zidan maqsad emas. Ular ta'lim sifatini oshirish, o'qitish usullarini boyitish va talabalarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan samarali vosita sifatida qo'llanilishi kerak. Masalan, Xelsinki universitetida raqamli ta'lim pedagogik yondashuvlar bilan uyg'un holda tashkil etilib, talabalarning mustaqil fikrlashi va tadqiqotga yo'naltirilgan o'qishiga alohida e'tibor qaratiladi. Agar texnologiya pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirilmasa, u kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu bois, zamonaviy oliygohda raqamli transformatsiya jarayoni pedagogik yondashuvlar, kadrlar salohiyati va ta'lim mazmuni bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi lozim.

— OTTga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi. Bu katta imkoniyat, lekin shu bilan birga ulkan mas'uliyat. Ayting-chi, ta'lim tashkilotlari rahbariyati va professor-o'qituvchilari bu "erkinlik"dan foydalanishga va global raqobatga kirishishga tayyormi?

— O'zbekiston oliy ta'lim tizimida zamonaviy oliygoh modelini shakllantirish yo'lida so'nggi yillarda tizimli va izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan oliy ta'lim sohasini tubdan modernizatsiya qilishga qaratilgan qaror va farmonlar bu jarayonga kuchli sur'at berdi. Kredit-modul tizimining joriy etilishi, ta'lim dasturlarini xalqaro standartlar asosida yangilash, oliy ta'lim muassasalariga akademik mustaqillik berish kabi chora-tadbirlar zamonaviy oliygoh modelining institutsional asoslarini shakllantirmoqda. Bu jarayon, ma'lum ma'noda, Finlyandiya va Germaniya tajribasiga yaqin bo'lib, ularda ham universitetlarga mustaqillik berish orqali ta'lim sifati va samaradorligi oshirilgan.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tashkilotlarining boshqaruv tizimini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ta'lim bilan fan integratsiyasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat rahbarining islohotlarida universitetlarni innovatsiya va intellektual rivojlanish markazlariga aylantirish g'oyasi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu zamonaviy oliygohning mazmuni va vazifalari bilan to'liq uyg'un keladi. Bu borada Myunxen va Singapur milliy universiteti kabi oliy ta'lim tashkilotlari misolida universitetlarning innovatsiya markaziga aylanganini ko'rish mumkin — ular ilmiy tadqiqot, startap va sanoat hamkorligini birlashtirgan muvaffaqiyatli modelni namoyon etmoqda.

Albatta, zamonaviy oliygoh modeli bir kunda shakllanadigan tizim emas. Bu uzluksiz va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon bo'lib, u nafaqat normativ-huquqiy bazani yangilashni, balki boshqaruv madaniyatini o'zgartirish, professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish va inson kapitaliga uzoq muddatli investitsiya kiritishni talab qiladi. Bu jihatdan Janubiy Koreya tajribasi e'tiborga loyiq: mazkur davlatda oliy ta'limga uzluksiz investitsiya kiritish va universitetlarni global raqobatga tayyorlash orqali qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishilgan.

Shu ma'noda, amalga oshirilayotgan islohotlar qisqa muddatli natijalar bilan cheklanib qolmasdan, kelgusida raqobatbardosh, xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lgan zamonaviy oliygohlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekistonning global ta'lim makonida munosib o'rin egallashi va inson kapitalini rivojlantirishda yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlaydi.

— Universitetlarni — “milliy taraqqiyot tayanchi” deb ataymiz. Sizningcha, qachon ular yaratgan ishlanmalar va innovatsiyalar sanoatni harakatga keltiradigan haqiqiy kuchga aylanadi? Buning uchun jamiyat va davlat tomonidan yana qanday qo'llab-quvvatlov zarur?

— Zamonaviy universitetlarni jamiyat taraqqiyotining strategik tayanchi sifatida baholash mumkin. Chunki u mamlakatning intellektual salohiyatini shakllantiradi, inson kapitali sifati va raqobatbardoshligini ta'minlaydi hamda iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. Oliyog'ohda tayyorlanayotgan kadrlar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarga, balki ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik va mas'uliyat hissiga ega shaxs sifatida kamol topadi. Masalan, Stanford universitetida shakllangan innovatsion muhit — Kremniy vodiysi (Silicon Valley) — universitetlarning iqtisodiyot va texnologiyalar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishini

yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, Massachutes texnologiyalar instituti bitiruvchilari tomonidan asos solingan kompaniyalar global iqtisodiyotda katta ulushga ega ekani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy oliygoh jamiyatda ilmiy tafakkurni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga joriy etishda yetakchi o'rin tutadi. Universitetlar atrofida ilmiy maktablar, startaplar va innovatsion ekotizimlarning shakllanishi mamlakatning texnologik va iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu borada Kembrij universiteti atrofidagi Kembrij klaster (Cambridge Cluster) yoki Myunxen texnika universiteti huzurida tashkil etilgan innovatsion markazlar muvaffaqiyati misol bo'la oladi. Ular ilmiy g'oyalarni tezkor tijoratlashtirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotga real hissa qo'shmoqda.

Eng muhimi, zamonaviy oliygoh yosh avlodni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, zamon talablariga javob beradigan shaxs sifatida tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan Xelsinki yoki Singapur milliy universiteti kabi oliygohlarda ta'lim nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgani diqqatga sazovordir.

Shu bois, zamonaviy oliygohni rivojlantirish masalasi faqat ta'lim siyosati doirasida emas, balki keng ma'noda milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Bu esa har bir davlatning global raqobat sharoitida munosib o'rin egallashi uchun hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

— *Mazmunli suhbat uchun katta rahmat.*

Suhbat davomida bildirilgan mulohazalar shuni ko'rsatadiki, «zamonaviy universitet» tushunchasi mazmunan keng va ko'p qirrali. U faqat ta'lim berish vazifasi bilan cheklanib qolmaydigan, balki jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi strategik institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi universitet — ta'lim sifati, ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlari o'rtasida mustahkam uyg'unlikni ta'minlash orqali inson kapitalini shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutadi.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan yangilashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar, jumladan, kredit-modul tizimining joriy etilishi, o'quv dasturlarining kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qayta ishlab chiqilishi hamda oliygohlarga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi aynan shu strategik maqsadlarga xizmat qilmoqda. Ushbu jarayonlar ta'lim mazmuni va sifatiga yangicha yondashuvni olib kirish bilan birga, oliy ta'lim muassasalarini innovatsiya va intellektual taraqqiyot markazlariga aylantirishni ko'zda tutadi.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan islohotlar oliy ta'limning jamiyat hayotidagi mas'uliyatini yanada oshirib, uni nafaqat raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlaydigan maskan, balki yosh avlodni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida tarbiyalaydigan muhim makonga aylantirmoqda. Shu ma'noda, zamonaviy oliygohni rivojlantirish masalasi sohadagi navbatdagi yangilanish emas, balki mamlakatning uzoq muddatli milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas va hal qiluvchi qismi sifatida qaralishi lozim.

Sadoqat MAXSUMOVA

"O'zbekistonda oliy ta'lim" jurnali
ijodiy muharriri suhbatlashdi

OLIV TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA VA SUN'IY INTELEKT

Dunyoda bo'layotgan texnologik o'zgarishlar ta'lim sohasini ham chetlab o'tayotgani yo'q. Ayniqsa, sun'iy intellekt (AI) jadal rivojlanishi an'anaviy o'qitish usullarini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Chunki AI nafaqat ma'lumotlarni qayta ishlash, balki o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, talabalarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.



**Alisher
ABDULLAYEV**

Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori

Global miqyosda raqamli transformatsiya va AI integratsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- ✓ *AI asosida adaptiv ta'lim tizimlari talabalar muvaffaqiyatini 15–25% oshiradi;*
- ✓ *onlayn imtihonlarda AI-Proctoring texnologiyasi shaffoflikni 30% yaxshilashga yordam beradi;*
- ✓ *ishga joylashish va malaka mosligini avtomatlashtirish orqali bozor talabi va oliy ta'lim o'quv rejalari uyg'unlashadi.*

O'zbekiston tajribasi ushbu global tendensiyalarga mos keladi va ilg'or tizimlarni joriy etish orqali amaliy natijalarni taqdim etadi.

Respublikamizdagi oliy ta'lim tizimi ham ushbu global tendensiyadan chetda qolayotgani yo'q. So'nggi yillarda qabul qilingan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030 yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" oliy ta'limda raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish va AI texnologiyalarini keng joriy etish uchun mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA HOLATI

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari bir necha yillardan buyon izchil amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mazkur tizimda bir qancha yirik axborot tizimlari faoliyat yuritmoqda:

HEMIS (Higher Education Management Information System) – o'quv jarayonini boshqarishning markaziy axborot tizimi bo'lib, unda talabalar kontingenti, o'zlashtirish ko'rsatkichlari, professor-o'qituvchilar tarkibi va boshqa ma'lumotlar jamlangan.

Edu-Billing – to'lov xizmatlarini yagona hisob raqam orqali qabul qilish va taqsimlash, moliyaviy hisobotlarni

yuritish tizimi. Mazkur tizimda talabalarning to'lov-kontrakt shartnomalari, kredit-modul tizimi asosidagi qayta o'qish shartnomalari, talabalar turar joyiga joylashish shartnomalari, ijara to'lovlarini bir qismini qoplab berish, shuningdek, stipendiya tayinlash va to'lov bilan bog'liq barcha ma'lumotlar jamlangan. Tizim orqali har bir talabaning moliyaviy holati, to'lovlar jadvali, qarzdorliklar va imtiyozlar to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati mavjud.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning amaliyot o'tashi va bitiruvchilarning ishga joylashishini tizimli yo'lga qo'yish maqsadida yagona raqamli Career ekotizimi ishga tushirildi. Mazkur platforma oliy ta'lim muassasalari, talabalar (hamda bitiruvchilar) va ish beruvchilar o'rtasida yagona raqamli muloqot maydonini yaratadi. Tizim orqali amaliyot o'tash joylari, stajirovkalar, grant asosidagi tajriba dasturlari hamda bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar markazlashgan holda jamlanadi va real vaqt rejimida yangilanib boriladi.

Ushbu platforma ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda hamda ta'lim muassasalari, ish beruvchilar hamda talabalar o'rtasidagi hamkorlikni bitta integratsiyalashgan raqamli makonda birlashtiradi va o'zaro axborot almashinuvini tezkor hamda shaffof shaklda ta'minlaydi.

Platforma funksional jihatdan ko'p qirrali imkoniyatlarga ega. Talabalar va bitiruvchilar qisqa vaqt ichida professional rezyume yaratish, amaliyot va bo'sh ish o'rinlariga onlayn ariza topshirish, shuningdek freelance xizmatlarini taklif etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa yosh mutaxassislarning o'z salohiyatini namoyon etish va mehnat bozoriga moslashuvchan kirib borish jarayonini soddalashtiradi.


Shuningdek, platformaga integratsiyalashgan sun'iy intellekt asosidagi tavsiya mexanizmlari foydalanuvchining kompetensiyalari, qiziqishlari va o'quv natijalari asosida mos vakansiyalarni, qo'shimcha

kurslarni hamda professional rivojlanish yo'nalishlarini taklif qiladi. Interaktiv maslahat berish, suhbatga tayyorgarlik ko'rish, kompetensiyalarni baholash va karyerani rejalashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Natijada individual karyera trayektoriyasini shakllantirish jarayoni ilmiy asoslangan va ma'lumotlarga tayanadigan tizimga aylanadi.


Ish beruvchilar uchun platforma vakansiyalarni tezkor joylashtirish, sun'iy intellekt yordamida mos nomzodlarni saralash, amaliyot jarayonlarini raqamli boshqarish imkonini beradi. Bu jarayon inson omiliga bog'liq subyektivlikni kamaytirish, saralash tezligini oshirish va kadr tanlash jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ta'lim muassasalari esa platforma orqali bitiruvchilar bandligi monitoringini yuritish, amaliyot shartnomalarini elektron shaklda rasmiylashtirish, hamkor tashkilotlar bilan ishlashni markazlashgan tarzda boshqarish hamda mehnat bozori talablarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ushbu mexanizm ta'lim dasturlarini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish va institutsional rejalashtirishni ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish imkonini beradi.

Natijada ta'lim jarayoni, amaliyot va ishga joylashish bosqichlari o'zaro uzviy bog'langan yagona raqamli zanjirga aylanishi ta'minlandi. EduCareer nafaqat bandlikni ta'minlash vositasi, balki oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasida barqaror, shaffof va samarali hamkorlikni shakllantiruvchi strategik raqamli platforma sifatida namoyon bo'ladi.



MyEdu – Yagona ta'lim xizmatlari portali. Ushbu platforma ta'lim sohasida ko'rsatiladigan davlat xizmatlarini yagona raqamli platforma orqali boshqarish, abituriyentlar, talabalar, ta'lim muassasalari va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni soddalashtirish, qabul jarayonlarini to'liq raqamlashtirish,



ma'lumotlar almashinuvini avtomatlashtirish va shaffofligini ta'minlash, qog'oz hujjat aylanishini kamaytirish, inson omili bilan bog'liq xatoliklarning oldini olish, talabalar va abituriyentlar haqidagi ma'lumotlarni yagona va ishonchli bazada jamlash, ta'lim tizimini boshqarish uchun tahliliy va statistik ma'lumotlarni real vaqt rejimida shakllantirish hamda raqamli davlat xizmatlari sifatini oshirish va foydalanuvchilar uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yuqoridagi axborot tizimlari o'zaro integratsiya asosida ishlamoqda. Akademik boshqaruv, moliyaviy hisob-kitob, elektron resurslar va o'quv jarayonini nazorat qilish platformalari yagona raqamli muhitga birlashtirilgan.

Ushbu tizimlar orqali:

- ☑ talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlari avtomatik tahlil qilinmoqda;
- ☑ davomat va akademik faollik bo'yicha raqamli monitoring yuritilmoqda;
- ☑ dars jadvali va o'quv yuklamasini optimallashtirish mexanizmlari qo'llanilmoqda;

- ☉ *moliyaviy tushum va shartnoma to'lovlari real vaqt rejimida nazorat qilinmoqda;*
- ☉ *talabalarning o'quv amaliyotlarini tashkil etish, ularni ish beruvchi korxonaga va tashkilotlarga biriktirish, jarayonlarni raqamlashtirish va monitoring qilish orqali shaffoflikni ta'minlash, ishga joylashishga ko'maklashish hamda bandlik darajasini monitoring qilish yo'lga qo'yildi;*
- ☉ *talabalar va abituriyentlar uchun ta'limga oid barcha xizmatlar "yagona darcha" tamoyili asosida taqdim etilmoqda.*

Buning natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuv kuchaydi.

Mazkur axborot tizimlari dastlab faqat ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash vazifasini bajargan bo'lsa, bugungi kunda ularga sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish ishlari jadal olib borilmoqda.

HEMIS AI – OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH BO'YICHA ILK QADAM

Sun'iy intellekt – bu inson ongi faoliyatini taqlid qiluvchi, ma'lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilish va prognozlashni amalga oshiradigan algoritmlar hamda dasturiy modellar majmuasidir. Ta'lim sohasida SI dan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- > *talabalar bilimni real vaqt rejimida baholash;*
- > *o'qituvchilarning ma'muriy yuklamasini kamaytirish;*
- > *ta'lim sifatini monitoring qilish;*
- > *mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlash.*

So'nggi yillarda amalga oshirilgan eng muhim loyihalardan biri – HEMIS AI servislar majmuasi hisoblanadi. Ushbu loyiha doirasida talabalarning

turli yo'nalishlardagi ma'lumotlarini tahlil qilish va har bir talaba uchun individual maslahatlar berish imkoniyati yaratilgan. Hozirda mazkur tizim barcha oliy ta'lim tashkilotlarida joriy etilgan bo'lib, u quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- > *talabalarning GPA ko'rsatkichlari va o'zlashtirish dinamikasini tahlil qilish;*
- > *davomat ma'lumotlari asosida darslarga qatnashish darajasini baholash;*
- > *dars jadvalini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar berish;*
- > *talabaning qiziqishlari va o'quv natijalariga mos Coursera kurslarini tavsiya etish;*
- > *mustaqil va bitiruv malakaviy ishlarni plagiatga tekshirish;*
- > *talabalarning moliyaviy holatini tahlil qilish (shartnoma to'lovlari, stipendiyalar, grantlar);*
- > *HEMIS ChatBot orqali talabalar so'rovlariga tezkor javob berish.*

Ushbu imkoniyatlar talabalarning o'quv jarayonidagi ishtirokini faollashtirish, ularga individual yondashish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

SUN'IY INTELEKTNI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo'yicha bir necha ustuvor yo'nalishlar belgilangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida sun'iy intellektdan foydalanish

Ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirishda sun'iy intellektdan foydalanish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

AI-Detecting tizimi – ilmiy va o'quv ishlarida plagiat, nusxa ko'chirish holatlarini aniqlash imkonini beradi.

Unilibrary tahlili – elektron kutubxonadagi resurslarni tahlil qilib, ularning o'xshashlik darajasi, manba ishonchliligi va yangilik darajasini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, sun'iy intellekt vositalari ilmiy ishlanmalarni avtomatik tahlil qilish, iqtiboslarni aniqlash va ilmiy natijalarni baholashda ham qo'llash orqali samaradorlikka erishish mumkin.

O'quv jarayoni va moliyaviy boshqaruvda sun'iy intellekt

Ushbu yo'nalish doirasida bir qator muhim vazifalar amalga oshirilmoqda:

AI-Proctoring tizimi. Bu tizim onlayn imtihon jarayonlarida yuzni tanish, xatti-harakatlarni kuzatish va chetdan yordam berish holatlarini aniqlash imkonini beradi. Natijada imtihonlarning shaffofligi va talaba javoblarining haqqoniyligi ta'minlanadi.

Edu-Billing tizimida tahlil. Sun'iy intellekt yordamida to'lovlar, qarzdorlik holatlari va moliyaviy risklar avtomatik aniqlanadi.

AI Education Dashboard. Barcha tizimlardan olingan ma'lumotlar yagona tahliliy platformada jamlanib, hisobotlar va prognozlar avtomatik shakllantiriladi.

Adaptiv ta'lim. Har bir talabaning bilim darajasi va o'rganish tezligiga mos o'quv yo'nalishlarini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Sun'iy intellekt orqali talabalarni ishga joylashishiga ko'maklashish

Mehnat bozori bilan ta'lim o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash dolzarb masalalardan biridir. Bu borada EduCareer platformasida AI-Matching mexanizmini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizm:

- bitiruvchilar malakasi va ish beruvchilar talablarini tahlil qilib, ular o'rtasidagi moslikni avtomatik aniqlaydi;
- iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar kesimida kelgusida talab qilinadigan kasblarni prognoz qiladi;
- oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalari va qabul kvotalarini optimallashtirishga yordam beradi;
- ish beruvchilarga kerakli mutaxassislarini tezkor topish imkonini yaratadi.

YANGI BOSQICH: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Oliy ta'limda raqamli transformatsiya va sun'iy intellektni joriy etishning yangi bosqichi quyidagi yo'nalishlarni qamrab olishi lozim:

Birinchiidan, sun'iy intellekt asosidagi adaptiv ta'lim tizimlarini yanada kengaytirish. Bunday tizimlar har bir talabanning bilim darajasi, o'rganish tezligi va qiziqishlarini inobatga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlarini taklif qiladi.

Ikkinchiidan, virtual reallik (VR/AR) texnologiyalari bilan integratsiya. Bu, ayniqsa, tibbiyot, muhandislik va tabiiy fanlar yo'nalishida amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Uchinchiidan, ta'lim uzluksizligi konsepsiyasini rivojlantirish. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt har bir insonga butun hayoti davomida o'qish va malakasini oshirish imkoniyatini yaratadi.

To'rtinchiidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish. Dunyoning yetakchi oliygohlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni amalga oshirish.

Beshinchiidan, imkoniyati cheklangan talabalar uchun qulay sharoitlar yaratish. Ovozli yordamchi yoki matnli ovozga aylantiruvchi texnologiyalar ular uchun bilim olish imkoniyatini kengaytiradi.

OLIV TA'LIMDA SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA GLOBAL TENDENSIYALARI

Xalqaro miqyosda olib borilgan bibliometrik tadqiqotlar sun'iy intellektni oliy ta'limga joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlarning bir nechta ustuvor yo'nalishlarini aniqlagan. Ushbu yo'nalishlar O'zbekiston tajribasi bilan uyg'unlashib, kelgusidagi rivojlanish uchun muhim konseptual asos bo'lib xizmat qiladi:

- ✔ *O'quv jarayonida generativ AI dan foydalanish: talabalarni o'qitish va ularni o'quv jarayoniga jalb qilishda yangi imkoniyatlar yaratish;*
- ✔ *Chatbotlar orqali ta'lim sifatini oshirish: talabalarning kundalik savollariga javob berish, ularga o'quv materiallarini yetkazish va individual maslahatlar berish;*
- ✔ *Axloqiy qoidalar va me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish: AI dan foydalanishning huquqiy va axloqiy asoslarini yaratish;*
- ✔ *Oliy ta'lim tashkilotlarining operatsion jarayonlarini takomillashtirish: ma'muriy boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va resurslarni taqsimlashni optimallashtirish;*

- ✓ *Blokcheyn va AI integratsiyasi: diplomlar, sertifikatlar va boshqa ma'lumotlarning ishonchligi va xavfsizligini ta'minlashda yangi yondashuvlar;*
- ✓ *Talabalar faolligi va o'z-o'zini boshqarish: AI yordamida talabalarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish va ularning o'quv jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish.*

Akademik halollik: generativ AI vositalarining paydo bo'lishi talabalar tomonidan topshiriqlarni bajarishda yangi turdagi akademik firibgarlik xavfini tug'dirdi. Bu esa, o'z navbatida, sun'iy intellektdan foydalanishni nazorat qiluvchi aniq qoidalar va intellektual mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi.

UMUMIY XULOSALAR

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish endilikda alternativ emas, balki strategik zaruratga aylangan. Raqamli boshqaruv tizimlari, integratsiyalashgan axborot platformalari va sun'iy intellekt asosidagi tahliliy modellar oliy ta'lim muassasalarining institutsional samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish imkonini bermoqda.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, yagona raqamli infratuzilma – akademik boshqaruv, moliyaviy nazorat, bandlik monitoringi va davlat xizmatlarini integratsiyalashgan holda boshqarish – sun'iy intellekt texnologiyalarini samarali joriy etish uchun mustahkam asos yaratadi. AI asosida jarayonlarni avtomatlashtirish, balki prognozlash, shaxsiylashtirish va optimallashtirish imkonini bermoqda. Bu esa ta'lim tizimini reaktiv boshqaruv modelidan proaktiv va prognozli boshqaruv modeliga o'tkazmoqda.

Shu bilan birga, sun'iy intellektni joriy etish faqat texnologik modernizatsiya bilan cheklanmasligi lozim. Mazkur jarayon huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, algoritmik shaffoflikni kafolatlash hamda akademik halollik tamoyillarini mustahkamlash bilan uzviy bog'liqdir. Inklyuzivlikni ta'minlash, ta'limdagi tengsizliklarni kamaytirish va sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish esa kelgusi bosqichning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Kelgusida oliy ta'lim tizimi sun'iy intellekt asosida ishlaydigan adaptiv o'quv muhitlari, prognozli kadrlar tayyorlash modeli, raqamli karyera ekotizimlari va global ilmiy integratsiyaga tayangan holda rivojlanishi kutilmoqda. Bunday transformatsiya natijasida ta'lim jarayoni, ilmiy tadqiqot va mehnat bozori o'rtasida uzviy va barqaror raqamli ekotizim shakllanadi.

Umuman olganda, oliy ta'limda raqamli transformatsiya va sun'iy intellektni joriy etish inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Mazkur jarayonning izchil, ilmiy asoslangan va tizimli amalga oshirilishi mamlakat oliy ta'lim tizimini global ta'lim makonida munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

YANGI MARKAZIY OSIYO FENOMENI



**Ismoil
SAIFNAZAROV**

Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar
vazirligi qoshidagi
Jamoatchilik kengashi raisi
o'rinbosari, falsafa fanlari doktori



Yangi Markaziy Osiyo fenomeni bu soʻnggi yillarda mintaqaning besh davlati – Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston va Tojikiston hayotida sodir boʻlayotgan chuqur sifat oʻzgarishlari, integratsiya, ochiqlik va taraqqiyot sari yuritilayotgan qatʼiyatli siyosat, jamiyat taraqqiyoti va xalqaro maydondagi yangi imkoniyatlarning yorqin ifodasidir. Mintaqa asrlar davomida Buyuk ipak yoʻli orqali Gʻarb va Sharq, Janub va Shimol sivilizatsiyalarini bogʻlagan, dunyo tarixida oʻziga xos oʻrin tutgan muhim geostrategik hudud hisoblanadi. Keyingi davrda Markaziy Osiyoning yangi davri – ochiq va taraqqiyparvar mintaqa, rivojlanishga intilayotgan zamonaviy jamiyat modelining yuzaga kelishi va jadal shakllanishi avj oldi. Bu fenomen hozir tarixiy va zamonaviy jarayonlar mushtarakligida, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotda oʻz aksini topmoqda

Mintaqaning shakllanayotgan yangi qiyofasi bir qator omillarga suyanadi: mustaqil davlatchilikni mustahkamlash, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, ichki imkoniyatlardan toʻliq foydalanish, tashqi dunyoga ochiqlikni kengaytirish, milliy qadriyatlarni zamonaviy taraqqiyot bilan uygʻunlashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, barqarorlikni taʼminlash, yoshlarning faolligi va bilimga intilishini qoʻllab-quvvatlash hamda zamonaviy texnologiyalarni keng tatbiq etish. Bu jarayonlar har bir davlatda oʻziga xos shaklda kechayotgan boʻlsa-da, ularni umumiy maqsadlar va kelajakka qaratilgan mushtarak gʻoyalar birlashtiradi. Bugun mintaqa oʻz taraqqiyot yoʻlini mustaqil belgilamoqda. Davlatlar mustaqillikning dastlabki bosqichlarini ortda qoldirib, rivojlanishning sifat jihatdan yangi pogʻonasiga chiqmoqda. Oldin mavjud boʻlgan muammolar hamkorlik ruhida hal etilmoqda. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, raqamlashtirish va innovatsiyalarni jadallashtirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, taʼlimni modernizatsiya qilish va inson kapitalini rivojlantirish bugungi strategik ustuvor yoʻnalishlar sifatida namoyon boʻlmoqda. Shu bilan birga, ichki hamda mintaqaviy birdamlik kuchayib, davlatlar oʻrtasidagi bahsli masalalar oʻzaro hurmat va doʻstona muloqot asosida hal etilmoqda.

Yangi Markaziy Osiyo muammosi zamonaviy tadqiqotlarda mintaqaviy oʻzgarishlarning falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jihatlarini birlashtirgan fanlararo yoʻnalish sifatida qaraladi. Ilmiy ishlarda inson kapitali, yoshlar siyosati va maʼnaviy qadriyatlarning jamiyat barqaror rivojlanishining asosi sifatidagi oʻrni taʼkidlanadi [1]. Fuqarolik identiklik va ijtimoiy birlashuvni oʻrganish shuni koʻrsatadiki, integratsiya jarayonlari qadriyatlar birligi va jamoatchilik ishonchisiz mumkin emas [2]. Mintaqaviy xavfsizlik masalalari davlatlarning iqtisodiy hamkorligi va institutsional oʻzaro taʼsiri natijasi sifatida talqin etiladi [3].

Axborot jamiyati va sivilizatsiyalar muloqotiga nazariy yondashuvlarni raqamlashtirish va madaniy yangilanishni ijtimoiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish bilan bogʻlab, mintaqani modernizatsiya qilish tushunchasini kengaytiradi [4; 5]. Markaziy Osiyoning Yevroosiyo makonidagi mintaqaviy subyektligi konsepsiyasi tarixiy vorisiylik va zamonaviy integratsiya harakati sintezini taʼkidlaydi [6]. Ushbu tadqiqotlar birgalikda Yangi Markaziy Osiyo fenomenini keng qamrovli tarixiy jarayon sifatida tahlil qilish uchun ilmiy asos yaratadi.

Ishning metodologik asosini tizimli va fanlararo yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda ijtimoiy-falsafiy tahlil, qiyosiy metod, tarixiy-genetik yondashuv va institutsional tahlil elementlaridan foydalanilgan. Bunday usullar majmuasi Yangi Markaziy Osiyo fenomenini siyosiy, iqtisodiy va madaniy oʻzgarishlarni birlashtirgan mintaqaviy rivojlanishning yaxlit modeli sifatida koʻrib chiqish imkonini beradi.

Siyosiy sohada Markaziy Osiyo dunyoga yangi va mustaqil ovoz bilan chiqmoqda. Soʻnggi yillarda tashqi siyosatda ochiqlik, pragmatik va faol diplomatiya, xalqaro maydonda milliy manfaatlarni himoya qilish, mintaqaviy hamkorlik va muvozanat asosiy tamoyilga aylandi. Mintaqa davlatlari rahbarlarining tashabbuslari va bir-biriga oʻzaro ishonchi mintaqaning ham yetakchi, ham kooperativ markazga aylanishiga asos boʻldi. Markaziy Osiyo davlat rahbarlari maslahat uchrashuvlari, koʻplab ikki tomonlama va koʻp tomonlama muzokaralarning muntazam oʻtkazilishi, umumiy muammolarni birgalikda hal etish uchun vositalar yaratildi. Diplomatlari va tashqi siyosiy organlar zamonaviy talablarga mos, samarali strategiyalarni yuzaga chiqarib, mintaqaning obyektiv manfaatlarini himoya qilmoqda. Iqtisodiy islohotlar Yangi Markaziy Osiyo fenomenining eng muhim ustunlaridan biri hisoblanadi. Pandemiya va global iqtisodiy inqirozlar taʼsiriga qaramasdan, mintaqa davlatlari iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishga, oʻsish surʼatini oshirishga, tashqi investitsiyalarni jalb qilishga, asosiy infratuzilmani modernizatsiya qilishga, yangi ishlab chiqarish yoʻnalishlarini chuqurlashtirishga intilmoqda. Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston va Tojikiston oʻrtasidagi savdo hajmi sezilarli darajada oshdi. Markaziy Osiyodan oʻtuvchi yangi transport yoʻlaklari (“Trans-Kaspiy yoʻnalishi”, “Shimol-Janub”, “Sharq-Gʻarb” va boshqa mega loyihalar) Yevroosiyo geoiqtisodiy xaritasini tubdan oʻzgartirmoqda. Uch milliarddan ortiq aholiga xizmat qiluvchi xalqaro transport logistikasida Markaziy Osiyo asosiy “hub” ga aylanmoqda. Sanoat sohasida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, kooperatsion klasterlar, energetika va kimyo sanoati, qishloq xoʻjaligi va oziq-ovqat xavfsizligi, zamonaviy qurilish va innovatsion aqlli texnologiyalar keng rivojlanmoqda. Oʻzbekiston va Qozogʻiston “yashil iqtisodiyot”, shamol va quyosh stansiyalari, ekologik toza transport sohasida keng qamrovli investitsiya dasturlarini yuritmoqda. Kichik va oʻrta biznes uchun huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar tobora kengaymoqda, yangi sarmoya toʻgʻridan-toʻgʻri iqtisodiyot va ishlab chiqarish jarayonlariga yoʻnaltirilmoqda.

Taʼlim sohasida ham fundamental oʻzgarishlar yuz bermoqda. Mintaqaviy barcha mamlakatlarda zamonaviy oliy taʼlim muassasalari, xorijiy universitetlarning filiallari, kasb-hunar taʼlimining zamonaviy tizimi, xalqaro grant va stipendiya dasturlari joriy qilindi. STEAM, IT, chet tillari, yangi avlod texnologiyalari boʻyicha ilmiy-taʼlim loyihalari yoshlarni global raqobatga tayyorlamoqda. Yoshlar uchun innovatsion stajirovka va bilim almashinuvi, xalqaro olimpiadalar, startap ekotizimi rivojlanmoqda. Zamonaviy ijtimoiy institutlar, yoshlar forumlari, inkubatorlar va kreativ klublar yoshlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini kuchaytiradi. Ayollar bilim va kasb-hunarga keng jalb qilinmoqda, gender tengligi siyosati amaliy koʻrinishga ega boʻldi. Madaniy sohada Yangi Markaziy Osiyo fenomenining asosi boʻlgan qadimiy anʼanalar va zamonaviy innovatsiyalar uygʻunligi kuzatilmoqda. Milliy urf-odatlarini asrash, tarixiy obidalarni taʼmirlash, arxeologiya, sanʼat, adabiyot, kinomatografiya va folklor sohalarida yangi tendensiyalar avj oldi. Mamlakatlarda ijtimoiy madaniyatning rivojlanishi, yangi teatr va kinostudiyalar, ijodkorlar uchun grant va mukofot dasturlari, zamonaviy mutolaa va axborot madaniyatini tarbiyalovchi loyihalar joriy qilindi. Qadimgi meros, maqom sanʼati, miniatyura, milliy hunarmandchilik, ipakchilik va boshqa sohalar tarixiy ildizlar va zamonaviy urf-odatlar uygʻunlashuvida yangi bosqichga chiqmoqda. Madaniy sohada yangi oltin avlod shakllanmoqda [1, 304].

Turizm sohasida ham tub sifatli oʻzgarishlar amalga oshirildi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Almati, Turkiston, Issiqkoʻl, Isfarada yangi infratuzilma, zamonaviy yoʻnalishlar, elektron vizalar,

mehmonxonalar, aviatashuvchilarning zamonaviy xizmatlari paydo bo'lib, minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Mintaqadagi turizm salohiyati tabiiy va tarixiy meros, ekologik va ekstremal turizm, gastronomik va etnomadaniy yo'nalishlarda katta istiqbolga ega. Markaziy Osiyodagi barcha tarixiy shaharlar va tabiiy makonlarni dunyoning har bir nuqtasidan kelayotgan sayyoh va sarmoyadorlar o'z ko'zi bilan ko'rib, baholab, yangi imkoniyatlarni anglab yetishga intilmoqda. Axborot sohasida yangi matbuot va telekanallar, radio, onlayn va raqamli media, jurnalistika, marketing va reklama agentliklari shakllanmoqda. Ommaviy kommunikatsiyalar ochiqlik, so'z va fikr erkinligi, axborot resurslariga keng kirish imkoniyati orqali zamonaviy jamiyat tafakkurida yangicha ijtimoiy dinamika paydo bo'lmoqda. Blogosfera, ijtimoiy tarmoqlar, internet nashrlari, zamonaviy marketing, kreativ reklama, startap jurnalistika va yangi media instituti taraqqiyot uchun muhim impuls bo'lib xizmat qilmoqda. Davlat va jamiyat axborot salohiyati bevosita taraqqiyotga, jamiyat tafakkurining ochiqligi, global integratsiyaga olib kelmoqda. Mintaqadagi ichki hamkorlik va integratsiya fenomeni mamlakatlarning eng muhim yutug'i bo'ldi. Savdo, transport, energetika, xavfsizlik, qishloq xo'jaligi, ekologiya, suv resurslari, muhandislik infratuzilma, axborot texnologiyalari sohasida ko'plab davlatlararo bitimlar, qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston va Qozog'iston savdo hajmini keskin oshirdi, davlat chegaralari ochildi, harakatlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratildi, birgalikda ekologik muammolarga yechim izlanmoqda, "Transkaspiy" va boshqa global transport tarmoqlari harakatga keltirilmoqda. Barcha besh davlat rahbarlarining do'stona ishonch va ochiqlik siyosati so'nggi yigirma yilda mintaqada bo'lmagan muqobil taraqqiyot modelini yuzaga chiqardi [2, 12].

Xavfsizlik va barqarorlik masalasida ham integratsiyaning ijobiy natijalari sezilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari xalqaro terrorizm, diniy va etnik ekstremizm, giyohvandlik va kontrabanda, siljish va migratsiya kabi zamonaviy tahdid va xatarlarga qarshi birgalikda kurashmoqda. JST, ShHT, YXHT, MDH, KXSHT kabi xalqaro tashkilotlarga a'zolik mintaqadagi barqarorlik va xavfsizlik uchun o'z samarasini bermoqda. So'nggi davrda har bir davlat taraqqiyot yo'llarini o'z mustaqil va avtonom xaritasiga asoslaydi, lekin mintaqaviy hamkorlikni saqlagan holda, ijtimoiy va iqtisodiy xavfsizlik, siyosiy birdamlikni mustahkamlash sari harakat qilmoqda. Ijtimoiy sohada chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda, bunda aholining turmush darajasi, sog'liqni saqlash, mahalla tizimi, aholi turar joylari, ijtimoiy ta'minot xizmatlari, uy-joy qurilishi, ichimlik suvi va ekotizimlarni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli loyihalar, zamonaviy tibbiyot klasterlari, onlayn ijtimoiy xizmatlar joriy etildi. Ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish, nogironlar va zaif qatlamlarga alohida imtiyozlar, madaniy-ijodiy festivallar, sport va ekologik aksiyalar, yoshlar uchun inklyuziv loyihalar va grantlar ham ijtimoiy taraqqiyotning muhim qirralaridan biri bo'lib qoldi [3, 273].

Ekologik muammolar – suv tanqisligi, orol fojiasi, iqlim o'zgarishi, atmosfera ifloslanishi, chiqindi va chiqindi qayta ishlash masalalarida davlatlararo tashabbus va hamkorlik samarasi ravshan namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa davlatlar birgalikda suv resurslaridan adolatli foydalanish, ekologik muvozanat, "yashil" loyihalar, zamonaviy agrotexnologiyalar, yangi ekologik diplomatiya vositalari orqali umumiy kelajakka xizmat qilmoqda. Ekoturizm, muqobil energiya, zamonaviy ekologik monitoring, irrigatsiya va bioinnovatsiyalar rivojlanmoqda. Yangi Markaziy Osiyo fenomenining eng muhim ramzlaridan biri bu inson kapitalining yangicha shakllanishidir. O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa mamlakat yoshlari bugun ilmga chanqoq, zamonaviy dunyoqarash, dunyo tillarini egallash, chet el universitetlarda tahsil olish,

xalqaro tanlov va forumlarda qatnashish, yosh tadbirkorlik va startaplar yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lyapti. Raqamli avlod, IT mutaxassis, kreativ yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochildi. Innovatsion biznes, kreativ professionallar, startap inkubator va akseleratorlar har kuni zamonaviy loyihalar, texnologiyalar va servislar yaratmoqda. Fusunkor va bilimli, qobiliyatli va yangilikka intiluvchi yosh avlod jamiyat hayotiga yangi ta'sir kuchi olib keldi.

Markaziy Osiyo bu kunlarda – o'zligiga sadoqatli, modernizatsiyaga ochiq va global taraqqiyotga mos mintaqaga aylandi. Har bir davlatda milliy qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, ijtimoiy adolat, ochiqlik va ishonch, axloq va zamonaviy did, jamoat tafakkuri, ekotizim va baraka, global maydon, taraqqiyot va hamkorlik, tenglik va yetakchilik, qudrat va farovonlik kabi umuminsoniy qadriyatlar birlashtirilib, yangi jamiyat modeli yuzaga keldi. Davlat va jamiyat boshqaruvi tub yangilanishga yuz tutdi. Raqamli iqtisodiyot, raqamli davlat, elektron hukumat, moliyaviy texnologiyalar, fintech ekotizimi, elektron arxiv, raqamli ma'lumotlar banki, davlat xizmatlarining onlayn ko'rinishda taklif qilinishi, ochiqlik va shaffoflik siyosati bu fenomenning dunyoviy namunasiga aylandi. Aholi uchun davlat xizmatlaridan foydalanish, biznes ochish va faoliyat yuritish, ijtimoiy xizmatlarni onlayn ko'rinishda olish, to'g'ridan-to'g'ri hukumat bilan muloqot qilish faqat oddiy orzu emas, balki real amaliyotga aylandi. Markaziy Osiyoning yangi fenomeni dunyoda "Tinchlik va taraqqiyot mintaqasi", "Ochiq hamkorlik maydoni", "Kelajak va orzu yurti", "Integratsiyalashgan jamiyat ruhi" sifatida kashf qilinmoqda. Har biridan o'rnak oladigan ijtimoiy xizmatlar va texnologiyalar, yangi kasblar, zamonaviy boshqaruv, ochiqlik va ishonch, fuqarolik jamiyati va demokratik institutlar, yangi hayot falsafasi, madaniyat va texnologiyalar, innovatsiyalar va insoniylik, taraqqiyot va islohot jarayonlari umumiy orzu, umid va maqsad sari jarangli va yuksak harakat ramzi bo'lib qoldi [6, 47].

Biroq, Yangi Markaziy Osiyo fenomenining uzoq muddatli barqarorligi nafaqat erishilgan natijalar, balki ushbu o'zgarishlarni mustahkamlash va rivojlantirishga qodir bo'lgan institutlarning shakllanishi bilan ham belgilanadi. Hozirgi bosqichda mintaqa integratsiyasi siyosiy deklarativlikdan tizimli amaliyotga o'tmoqda: kelishuvlarni amalga oshirishning yagona mexanizmlari, loyihalarni birgalikda moliyalashtirish, strategiyalarni muvofiqlashtirish va ularning samaradorligini monitoring qilish zarurati kuchaymoqda. Mintaqaviy hamkorlik iqtisodiyot, transport, energetika, ekologiya va ta'lim sohalaridagi o'zaro bog'liq manfaatlar tizimi xususiyatiga ega bo'lib bormoqda.

Taraqqiyotning yangi bosqichidagi muhim o'lchovlardan biri mintaqaning "yumshoq kuchi"ning o'sishi bo'lmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari madaniy diplomatiya, ta'lim tashabbuslari, sayyohlik brendlari, ijodiy sanoat va media makon orqali xalqaro imijni izchil mustahkamlamoqda. Bu umumiy tarixiy yaqinlik tuyg'usining qayta tiklanishi hamda o'zaro hurmat va madaniy yaqinlikka asoslangan mintaqaviy o'ziga xoslikning shakllanishi bilan birga kechmoqda. Natijada integratsiya nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-qadriyatli mazmun kasb etadi.

Shu bilan birga, hodisaning rivojlanishi bir qator obyektiv muammolar bilan birga keladi. Global bozorlardagi tebranishlar, geosiyosiy raqobatning kuchayishi, transport yo'laklari xavfsizligi masalalari, suv-energetika balansi, migratsiya jarayonlari, raqamli tengsizlik va kadrlar taqchilligi o'zaro kelishilgan mintaqaviy yechimlarni taqozo etmoqda. Ayniqsa, ekologik kun tartibi dolzarb bo'lib bormoqda: iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi va "yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurati birgalikda harakat qilishning strategik vazifalariga aylanmoqda.

Yangi Markaziy Osiyoning kelajagi ko'p jihatdan bilim va raqamli integratsiyaga asoslangan rivojlanish modeliga o'tish bilan bog'liq. Transchegaraviy raqamli infratuzilma, elektron savdo platformalari, innovatsion klasterlar, ilmiy konsorsiumlar va qo'shma ta'lim dasturlarini shakllantirish mintaqaning global iqtisodiyotdagi raqobatbardoshligini oshiradi. Bunday formatda Markaziy Osiyo nafaqat tranzit makoni, balki g'oyalar, texnologiyalar va inson kapitalini ishlab chiqarish markazi hamdir.


Yangi Markaziy Osiyo fenomeni alohida islohotlar yig'indisi emas, balki ishonch, hamkorlik va jahon taraqqiyotida barqaror o'rin egallashga intilishga asoslangan mintaqa o'zligini anglashining yangi tarixiy bosqichidir. Uning keyingi evolyutsiyasi davlatlarning integratsiyani institutlashtirish, inson kapitalini mustahkamlash, modernizatsiya va barqarorlik o'rtasidagi strategik muvozanatni saqlash qobiliyatiga bog'liq.

Shunday qilib, Yangi Markaziy Osiyo fenomeni – bu zamon va tarix, global taraqqiyot va milliy o'zlik, ochiqlik va yangilanish, taraqqiyot islohotlari va mintaqaviy hamkorlik timsolidir. Ushbu fenomenning ildizi har bir yurtdosh, har bir yosh, har bir yetakchi va har bir tashabbuskor yurtda – samarali hayot, farovonlik, taraqqiyot, cheksiz imkoniyatlar sari intilishda o'z real aksi va natijasini topmoqda. Mintaqa uchun bu fenomen – abadiy taraqqiyot va baraka yo'li, davlat va jamiyat uchun esa – kelajak sari ishonchli va bardavom taraqqiyot ramzidir. Yangi Markaziy Osiyo fenomeni yanada chuqurroq mazmunga ega bo'lib, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi do'stlik, baraka va taraqqiyot, tinchlik va taraqqiyot sari harakat, orzu va umid, islohot va hamkorlik timsoli bo'lib yashnaydi. Shu bois, bugun jamiyat barcha a'zosi, yo'l boshchi va yetakchi, innovator va ijodkor, oddiy odam va yosh avlod, ota-onalar va bolalar – har biri Yangi Markaziy Osiyoning kelajak tarixini o'z aqli, tafakkuri, fidokorligi va orzusi bilan yaratayotir. Buning natijasida mintaqa – zamonaviy forum va konferensiyalar, yangi biznes va innovatsiyalar, ijtimoiy loyihalar, ochiq hamkorlik, taraqqiyot dasturlari, zamonaviy jamiyat yo'li bo'lib bormoqda. So'nggi natija – jamiyat taraqqiyotida ishonchli, ijtimoiy barqaror, zamonaviy, ochiq, kuchli, innovatsion, ilg'or va insonparvar Markaziy Osiyoning shakllanishi, uning zamon va tarixda baraka sari ishonchli taraqqiyot ramziga aylanishi bo'lmoqda. Bu fenomen – kelajak avlod uchun baraka, jamiyat uchun ishonch, xalq uchun baxt-mustaqillik, davlatlar uchun esa abadiy do'stlik va orzu sari qarorli zamin bo'lib qoldi hamda qola beradi. Yangi Markaziy Osiyo fenomeni – bugun va kelajak uchun mintaqaning eng muhim, zamonaviy va dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy jarayonlarining chinakam ramzi va ma'nosidir. Bu fenomen butun mintaqa xalqining o'z jamiyati va davlatidagi islohotlarga sadoqatli bo'lib, innovatsiya, taraqqiyot, sivilizatsiya sari doimo intilib yashashi, o'zi uchun cheksiz imkoniyat va taraqqiyot maskanini barpo etish borasidagi orzu va harakatlaridir. Ana shu orzu – zamonaviy Markaziy Osiyoning kelajagi bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Mardonov B. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida yoshlar ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning ijtimoiy-falsafiy masalalari // Academic research in educational sciences. – 2023. – №4(6). – С. 303-310.
2. Kalkanov E.T. Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog'liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Avtoref. dis. ... fals.fan.nom. – Toshkent, O'zMU. 2011.
3. Маккамбаев П.А. Современное состояние формирующейся системы региональной безопасности Центральной Азии // Экономика Центральной Азии. – 2021. – №5(3). – С. 273-296.
4. Yoqubov S. Axborot jamiyati: xayolot emas, haqiqat // Tafakkur. – 2007. – №4(6).
5. Zokirov B. G'arb tamadduni: inqiroz alomatlari // Tafakkur. – 2007. – №2.
6. Жураев С.А. Восток-Запад – новое измерение: Единая Центральная Азия // Евразийский Союз Ученых. – 2020. – №7-6(76). – С.46-49.

ILM-FAN — DAVLAT TARAQQIYOTINING YAGONA YO'LI



**Hakimjon
SAIDOV**

AQShning Northwestern
universiteti tadqiqotchisi,
fizika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Global ta'lim va ilm-fan maydonida Singapur modeli nafaqat Osiyo, balki butun dunyo uchun namuna bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu muvaffaqiyat zamirida qat'iy intizom, ta'limning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligi va ilmiy tadqiqotlarga tikilayotgan investitsiyalar yotadi, albatta. Singapur Milliy universitetida (NUS) doktorlik darajasini olib, ayni paytda AQShning nufuzli Northwestern universitetida ilmiy izlanishlar olib borayotgan vatandoshimiz bilan suhbatimiz aynan shu tizimning o'ziga xosliklari va zamonaviy olimning global maydondagi o'rni haqida bo'ldi.

Suhbat davomida nanoelektronika, "yashil" energiya va sun'iy intellekt davridagi ilmiy izlanishning muhim yo'nalishlari kabi dolzarb mavzular muhokama qilindi. Shuningdek, xalqaro ilmiy muhitda shakllangan tajriba asosida O'zbekiston oliy ta'lim tizimini transformatsiya qilishda asqatadigan muhim tavsiyalar keltirilgan. Quyida suhbat bilan to'liq tanishing.

— Singapur ta'limi bugun jahonda eng samarali modellardan biri sifatida e'tirof etiladi. Siz faoliyat yuritgan universitet misolida ushbu tizimni muvaffaqiyatga olib kelgan asosiy omillarni nimalarda ko'rasiz?

— Singapur Milliy universiteti (National University of Singapore — NUS) misolida qarasaq, muvaffaqiyatning birinchi omili — yuqori talabdir. Talabalar ham, professor-o'qituvchilar ham kuchli tanlov asosida saralanadi, bu esa sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi. Masalan, PhD dasturiga topshiradigan talabalar bakalavriatdagi yuqori akademik natijalar, xalqaro sertifikatlar (IELTS, GRE/GMAT) hamda yaxshi ilmiy natija, tajriba va professorlar tavsiyanomalari asosida qabul qilinadi. Professorlar esa faqat dars berish bilan cheklanmaydi, ular asosan xalqaro darajadagi ilmiy maqolalar chop etishi hamda yirik ilmiy grantlar jalb qilishi kabi mezonlar asosida baholanadi va universitetga taklif etiladi.

Shuningdek ta'lim va ilmiy tadqiqot integratsiyasi uzviy yo'lga qo'yilgan. Bunda ta'lim faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, ilmiy izlanishlar bilan chambarchas bog'liq holda ishlaydi. Talabalar zamonaviy laboratoriyalarda, eng ilg'or infratuzilma sharoitida tahsil oladi. Mening NUSdagi doktorlik tadqiqotlarim nanomateriallarda kechadigan dinamik jarayonlarni o'rganishga asoslangan bo'lib, ushbu ish keyingi avlod nanoelektronikasiga oid muammolarni hal qilishda muhim yechimlarni taklif etadi. Hozirda Northwestern universitetidagi tadqiqotlarim davlatlarning energiya sarfi yuqori bo'lgan sektorlari, masalan, kimyo sanoatini "yashil" yoki muqobil energiyaga o'tkazish uchun yangi materiallar va jarayonlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Sun'iy intellekt jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda energiya sarfini minimallashtirish ham davlatlar oldidagi katta vazifadir.

Bundan tashqari, universitetlar global yo'nalish va sanoat bilan yaqin hamkorlikda ishlaydi. Dasturlar mehnat bozori talablariga to'liq moslashtirilgan bo'lib, bitiruvchilarning xalqaro miqyosda raqobatbardoshligi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli universitet bitiruvchilari Google, Apple, Microsoft, Intel kabi xalqaro kompaniyalarda yoki dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va universitetlarida faoliyat yuritishadi. E'tiborlisi, tizim uzoq muddatli strategik rejalashtirish va davlat tomonidan kuchli qo'llab-quvvatlashga tayanadi, bu esa barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.



— *Singapur Milliy universiteti Osiyo reytinglarida yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Universitetda ta'lim sifati qanday prinsiplar va aniq mexanizmlar asosida ta'minlanadi?*

— Birinchidan, eng muhimi — ilmiy salohiyat. Professorlardan nafaqat dars berish, balki yuqori darajadagi ilmiy natijalar ko'rsatish, xalqaro jurnallarda maqolalar chop etish va ilmiy grantlar jalb qilish talab etiladi. Albatta, bunda davomli moliyalashtirish ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, ko'plab professorlar nufuzli jurnallarda maqolalar chop etib, yirik ilmiy grantlar jalb qiladi. Bu esa universitetning ilmiy nufuzi va moliyaviy imkoniyatlarini yanada oshiradi. Hozirda Amerika va Singapurda sun'iy intellekt (AI), kvant texnologiyalari, "yashil" energiya va fundamental tadqiqotlar yo'nalishlariga e'tibor juda katta. Masalan, kvant texnologiyalari sohasiga Amerikaning energiya sektori 625 million dollar mablag' ajratdi. Kelgusida bu e'tibor yanada ortishi mumkin.

Ikkinchidan, ta'lim dasturlari doimiy ravishda yangilab boriladi. Sanoat va texnologik trendlar muntazam tahlil qilinadi va kurs mazmuni shu asosda moslashtiriladi. Professor sifatida ilmiy ishingiz uchun grant yutib olishingiz kerak, bu esa ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun juda muhim. Ilmiy tadqiqotlar dolzarb muammolar ustida olib boriladi va bu mavjud texnologik yoki boshqa muammolarni hal qilish bo'yicha yechim taklif etishingizni anglatadi.

Uchinchidan, sifat nazoratining ichki va tashqi mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Kurslar sifati, o'qitish samaradorligi va talabalar fikri muntazam baholanadi. Talabalar har bir kurs bo'yicha onlayn platformalar orqali o'z mulohazalarini qoldirib, o'quv jarayonlariga baho berishadi. Bu ma'lumotlar universitet rahbariyati tomonidan tahlil qilinadi. Bundan tashqari, tashqi ekspertlar va xalqaro akkreditatsiya tizimlari ham universitet faoliyatini muntazam baholab boradi.

To'rtinchidan, talabalar faqat bilim oluvchi emas, balki tahliliy-tanqidiy fikrlash, mustaqil tadqiqot olib borish va muammolarga yechimlar taqdim qila olish ko'nikmalariga ega mutaxassis sifatida tayyorlanadi. Menimcha, aynan shu tizimli yondashuv tufayli Singapur Milliy universiteti yuqori reytinglarni egallab kelmoqda.

— *Singapur oliy ta'lim muassasalarida talabalarni faqat bilim oluvchi emas, balki tadqiqotchi sifatida tayyorlashga e'tibor qaratilishi haqida o'qigandim. Bu jarayon amalda qanday ishlaydi?*

— Singapur Milliy universitetida bu tizim amalda juda yaxshi natija beradi. Aslida, har qanday raqobatbardosh oliy ta'lim muassasasi shunday yo'l tutishi shart — bu bozor talabi. Agar talabalarga eng ilg'or va hozirgi kundagi eng muhim bilimlar o'rgatilmasa, ular mehnat bozorida muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Oliy ta'lim muassasasining reytingini ham bitiruvchilarning global miqyosda qanchalik ish bilan ta'minlanganligi belgilaydi.

Talabalar oliy ta'lim muassasasiga shunchaki bilim olish uchun emas, balki kelajakda yaxshi ishga joylashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallash maqsadida kiradi, kontrakt to'lab o'qiydi. Universitetning mas'uliyati esa ana shu talabga javob berishdir. Aks holda, oliy ta'lim muassasasi raqobatbardosh bo'la olmaydi, talabalar soni kamayadi va talabalarsiz hech bir universitet o'z faoliyatini davom ettira olmaydi. Hozirgi zamonda eng dolzarb bilimlarni o'rgatish uchun esa o'z sohasining eng yaxshi professorlari, zamonaviy infratuzilma, samarali o'qitish modeli hamda yirik iqtisodiy va texnik ta'minot zarur bo'ladi.

— *Ilmiy tadqiqotlarning amaliy qiymati bugun juda muhim. Ayting-chi, siz faoliyat yuritayotgan universitetda olib borilayotgan tadqiqotlar sanoat va texnologiyalar bilan qanday bog'lanadi?*

— Singapur Milliy universitetida PhD darajasini olib, hozirda Amerikaning Northwestern universitetida ilmiy tadqiqotchi bo'lib faoliyat yurityapman. Nafaqat Amerika yoki Singapur, balki ixtiyoriy rivojlangan davlat iqtisodiyoti innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarga tayanadi. Tadqiqotlarning sanoat va texnologiyalar bilan bog'liqligi o'ta muhim, chunki ular bir-birini to'ldiradi. Bunda olimlar hozirgi kunda yoki yaqin kelajakda dolzarb bo'lgan muammolar ustida ishlashadi.

Masalan, energiya va tabiiy resurslarning ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda, ayniqsa, sun'iy intellektga bo'lgan e'tibor kuchaygan hozirgi paytda. Bu yo'nalishda ham, komputatsiya va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha olimlar taklif etgan innovatsion yechimlar nafaqat universitetga, balki davlatga ulkan iqtisodiy foyda keltirishi mumkin. Albatta, ilmiy tadqiqot bugun qilinib, ertaga meva beradigan jarayon emas — bu uzoq muddatli mehnatni talab qiladi. Bundan 10–15 yil oldingi smartfonlar, Google, sun'iy intellekt yoki elektromobillarni olaylik — bularning barchasi uzoq yillik fundamental ilm-fanning natijasidir. Ya'ni, ilm va innovatsiya davlat taraqqiyoti uchun yagona yo'ldir.

— *Universitet professor-o'qituvchilari uchun ta'lim berish va ilmiy tadqiqot olib borish o'rtasidagi muvozanatni saqlash oson emas. Siz bu borada qaysi mezonlarga tayanasiz? Aslida, professordan qaysi yo'nalishda ko'proq mas'uliyat talab etiladi?*

— Amerikada professorlar, asosan, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanadi. Ulardan yangi kashfiyotlar qilish va universitetga umumiy iqtisodiy foyda keltirish talab qilinadi. Jahon miqyosidagi yetakchi professorlar o'z sohasi bo'yicha talabalarga dars berishadi va shogirdlar tayyorlashadi. Bu jarayonda talabalar eng kerakli bilimlarni bevosita "manba"dan olish imkoniyati ega bo'ladi.

Agar professor faqat o'qitish bilan cheklansa va tadqiqotdan uzoqlashsa, u vaqt o'tishi bilan professional o'sishdan to'xtaydi, bu esa o'z-o'zidan o'qitish sifatining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun nufuzli universitetlar doim eng kuchli olimlarni ishga taklif qiladi. Rivojlangan universitetlarda professorlarni baholashda quyidagi asosiy mezonlarga tayaniladi:



Sifatli ilmiy maqolalar, ilmiy aloqalar va tadqiqotlarning jamiyatga qilgan foydasi



Xalqaro grantlarni jalb qila olish qobiliyati



Patentlar va innovatsion ishlanmalar



Muvaffaqiyatli shogirdlar tayyorlash

Masalan, AQSh universitetlarida "tenure-track" tizimi mavjud bo'lib, professorlar aynan mana shu ilmiy natijalari asosida doimiy lavozimlarga qabul qilinadi. Bu tizim — yosh professorlar uchun 6-7 yillik sinov muddati va undan keyingi umrbod ish kafolati modelidir. Ya'ni olimning faoliyati nufuzli maqolalar chop etishi, yirik ilmiy grantlar jalb qilishi va o'qitish sifati bo'yicha o'ta qat'iy mezonlar asosida baholanadi. Faqatgina ushbu yuqori talablarga javob bera olgan eng kuchli mutaxassislargagina universitetda doimiy qolish huquqi beriladi. Bunday "saralash filtri" oliy ta'lim muassasalarida faqat eng raqobatbardosh va salohiyatli olimlar jamoasi shakllanishini ta'minlaydi.

— *Xalqaro ilmiy muhitda faoliyat yuritayotgan olim sifatida, zamonaviy olimning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlar nimalarda, deb hisoblaysiz?*

— Menimcha, muvaffaqiyatni quyidagi to'rtta asosiy mezon belgilaydi:

1 Sifatli ilmiy tadqiqotlar

davlat va jamiyatga qo'shgan hissasi, nufuzli jurnallardagi maqolalar, patentlar va kashfiyotlar muallifi ekanligi

2 Olimning bosib o'tgan yo'li

eng raqobatdosh muhitlarda va dunyoning yetakchi olimlari bilan hamkorlikda ishlash tajribasiga egaligi

3 Ilmiy jamoa va infratuzilma

olim yakka tartibda katta natijaga erisha olmaydi, u o'z atrofida kuchli jamoa va kerakli moddiy-texnik bazani shakllantira olishi kerak

4 Shogirdlar kamoli

Ilm to'xtab qolmasligi, aksincha, keyingi avlodlarga o'tib, jamiyat rivojiga xizmat qilishi lozim

— *Ilmiy faoliyatda raqobat, intizom va ijodkorlik — qay biri muhimroq?*

— Raqobat yo'q joyda hech qachon o'sish bo'lmaydi. Raqobatbardoshlik uchun esa kuchli intizom va ijodkorlik (kreativlik) talab etiladi. Ko'plab ilmiy muammolar standart usullar bilan hal bo'lmaydi, shuning uchun yangi g'oya va yondashuvlar juda muhim. Ilmda bu uchala omil bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

— *O'zbekiston oliy ta'lim tizimida sifatli ta'limni tashkil etish uchun siz qanday takliflarni bildirasiz?*

— Buning uchun, avvalo, tizimli o'zgarishlar qilish kerak. O'z-o'zini moliyalashtirish tizimini joriy etish, ilmiy grantlar orqali yirik mablag'larni jalb qilish va buni samarali boshqarish, dunyo miqyosida o'z sohasining yetakchisi bo'lgan professor va ekspertlarni jalb qilish va buning uchun tizimli o'zgarishlar qilish, yaxshi infrastruktura qurish hamda o'qitish metodikasini doimiy takomillashtirib borish lozim.

Menimcha, yoshlar "komfort zona"dan chiqib, dunyoning eng ilg'or universitetlarida PhD qilishga yoki ilmiy faoliyat olib borishga intilishi kerak. Lekin buning uchun ularni tizimli yo'naltirish zarur. Global miqyosdagi yuqori raqobat muhitida inson har tomonlama o'sadi. Shuningdek, eng kuchli olimlar bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish ham juda muhim.

Yosh tadqiqotchilarga shunday degan bo'lardim: xalqaro konferensiyalarda muntazam qatnashing, ilmiy salohiyatingizni doimiy ravishda oshirib boring, nufuzli (yuqori impakt-faktorli) jurnallarda maqolalar chop etishga harakat qiling, kuchli ilmiy guruhlar tarkibida ishleng, tajriba orttiring, ingliz tili va ilmiy kommunikatsiya ko'nikmalarini mukammallashtiring.

— *Zamonaviy dunyoda ilm-fan jamiyat taraqqiyotida qanday o'rin tutadi? Raqamli transformatsiya olimlar zimmasiga qanday muhim va yangi mas'uliyatlarni yuklamoqda?*

— Har bir rivojlangan davlat, asosan, ilm-fanga tayanib bugungi darajasiga yetgan. Shu sababli ham hozirgacha ilm-fanga ulkan investitsiyalar kiritilmoqda. Jamiyat taraqqiyoti uchun ilm-fanning ahamiyati beqiyosdir. Albatta, raqamlashtirish jarayoni o'zi bilan birga ham yangi imkoniyatlarni, ham muayyan risklarni (xatarlarni) olib keladi. Olimlar hozirda aynan shu muvozanatni saqlash ustida ishlamoqda. "Talab va taklif" qonuniga ko'ra, ilm-fan ham jamiyatdagi dolzarb ehtiyojlarga qarab shakllanadi va rivojlanishda davom etadi.

Sadoqat MAXSUMOVA

"O'zbekistonda oliy ta'lim" jurnali
ijodiy muharriri suhbatlashdi

OLY TA'LIM SIFATI TAHLILI



**To'ychi
AHMEDOV**

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi boshqarma boshlig'i





Zamonaviy jamiyatda oliy ta'lim tizimi mamlakatning intellektual, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ta'lim sifati esa oliy ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligi, bitiruvchilarning mehnat bozorida o'rni va ilmiy salohiyatini belgilaydi. Shu bois oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati holatini tizimli tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi tomonidan oliygohlarda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv jarayoni, dars sifati, professor-o'qituvchilarning pedagogik mahorati kabi masalalarni o'rganish bo'yicha "survey.edu.uz" platformasi orqali ryepublikadagi 127 ta (davlat - 95 va nodavlat - 32) oliygoth ishtirokida so'rovnoma o'tkazildi. Tadqiqotda bakalavr bosqichining kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 78 682 nafar talaba qatnashdi.

So'rovnomada ishtirok etgan talabalarning bergan javoblari natijalari tahlil qilinib, ijobiy jihatlar bilan birga mavjud muammolar, amalga oshirilishi zarur bo'lgan takliflar ishlab chiqildi. Eng muhimi, talabalarning munosabati so'nggi yillarda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ijobiy samarasini berayotganligidan dalolat beradi.



Tadqiqotda talabalarning oliygothga kirishida nima muhim o'rin tutganligini aniqlash uchun berilgan **"Universitet (mutaxassislik)ni qaysi maqsadda tanladingiz?"**, degan savolga talabalarning 72% yoki 56 749 nafari mutaxassislikni tanlashda shaxsiy qiziqishni asosiy omil sifatida qayd etgan. 14% (10 609 nafar) uchun mutaxassislikning nufuzi va istiqbolligi muhim bo'lgan. Shuningdek, 6% (4 979 nafar) ota-ona va yaqinlari tavsiyasiga asoslangan holda, 3,8% (3 026 nafar) past kirish ballari sababli, 4,2% (3 319 nafar) esa tasodifan hujjat topshirganini ma'lum qilgan.

Natijalar yoshlar o'rtasida kasb tanlashda qiziqish va shaxsiy moyillik yetakchi omil bo'lib qolganini, biroq ma'lum qismda tasodifiy yoki tashqi ta'sirlar asosida tanlov qilish holatlari ham saqlanib turganini ko'rsatadi. Bu esa ta'lim muassasalari va ota-onalar tomonidan kasbga yo'naltirish ishlarini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.



"O'zingiz ta'lim olayotgan universitetning bugungi ta'lim jarayonini qanday baholaysiz?", degan savolga talabalarning 57% yoki 45107 nafari ta'lim jarayoni texnik imkoniyatlar bilan sifatli tashkil etilganligi bildirgan. 25% (19490 nafar) an'anaviy va zamonaviy ta'lim tizimi ko'pincha uyg'unlashib ketganligini, 13% (10167 nafar) zamonaviy ta'lim tizimiga to'liq ixtisoslashib bo'lganligini ta'kidlagan. 1849 nafar (2,8%) talabalar o'quv mashg'ulotlarining sifatsiz olib borilishi hamda 860 nafar (1,3%) darslarga qiziqish yo'qligini ma'lum qilgan.

Ushbu tahlildan ma'lum bo'layaptiki, oliygohlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan

keng foydalanish, darslarda talabalar faolligini oshirish metodikasidan (interfaol, aqliy hujum metodikalaridan) keng foydalanish lozim.



Talabalarning ma'lumot olishda qaysi tuzilmaga ko'proq murojaat qilayotganini aniqlash uchun **“Siz ta'lim jarayoni bilan bog'liq savollarga javob va ma'lumotlarni universitetning qaysi bo'linmasidan olasiz?”**, degan savolga quyidagi javoblar berilgan:

Asosiy ma'lumot manbai tyutorlar ekani ma'lum. Demak, tyutorlar bilan aloqa samarali va talabaga eng yaqin mexanizm sifatida ishlamoqda **42%**
33 369 nafar

Registrator ofisiga murojaat qilishini bildirgan. Bu rasmiy, aniq ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatadi **28%**
22 384 nafar

Dekanatga murojaat qiladi, bu dekanatning o'quv masalalari bo'yicha an'anaviy va ishonchli manba sifatida saqlanib qolganini anglatadi **18%**
14 345 nafar

Rektoratdan ma'lumot olishi tashkilot boshqaruv darajasiga to'g'ridan-to'g'ri murojaatlar kamligini ko'rsatadi **3%**
2 364 nafar

Kursdoshlaridan ma'lumot oladi, ayrim hollarda rasmiy manbalarga murojaat qilish o'rniga tezkor “talaba-telegram aloqasi” ustun kelayotganini ko'rsatadi **8%**
6 220 nafar

Natijalar oliygohlarda axborot tarqatishning eng samarali bo'g'ini tyutorlar va registrator ofisi ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, talabalarning ma'lum bir qismi norasmiy manbalarga tayanayotgani axborotning bir xil emasligi, ayrim savollarda noaniqliklar yuzaga kelishi mumkinligini anglatadi. Bu esa universitetda yagona, tizimlashgan va tezkor axborot berish kanallarini yanada mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.



“O'quv laboratoriyalari va sinf auditoriyalaridagi texnik imkoniyatlar sizni qoniqtiradimi?”, degan savolga talabalarning asosiy qismi – 66% (51 723 nafar) o'quv laboratoriyalari va auditoriyalardagi texnik imkoniyatlardan to'liq qoniqqanini, ularning talab darajasiga mos kelishini ta'kidlagan. Natijalar ta'lim muassasasida so'nggi yillarda yaratilgan moddiy-texnik baza umumiy holda yaxshi ekanligini ko'rsatadi.

Auditoriyalar texnik talablarga javob bersa-da, Wi-Fi tizimi yetarlicha ishlamasligi qiyinchilik tug'dirayotganini qayd etgan. Bu eng katta muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda

22%
17 407 nafar

Zamonaviy texnika mavjud, lekin undan foydalanishga ruxsat berilmasligi samaradorlikni pasaytiradi

3%
2 590 nafar

Texnik jihozlar eskirgan, zamonaviy standartlarga javob bermasligi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qilayotganini ma'lum qilgan

3%
2 664 nafar

Barcha auditoriyalar to'liq texnik vositalar bilan ta'minlanmaganini bildirgan

5%
4 298 nafar

Umumiy qoniqish yuqori bo'lsa-da, infratuzilmada hal etiladigan qator masalalar mavjud: Wi-Fi tizimini barqarorlashtirish, mavjud zamonaviy uskunalardan foydalanishni erkinlashtirish, eski jihozlarni yangilash, hamda barcha auditoriyalarni texnik jihatdan bir xil quvvat bilan ta'minlash ta'lim jarayoni samaradorligini yanada oshiradi.



“O‘z mutaxassisligingiz bo‘yicha amaliyot o‘tash joylari sizni qoniqtiradimi?”, degan savolga talabalarning katta qismi – 81% (63 824 nafar) amaliyot o‘tash joylaridan to‘liq qoniqish hosil qilganligini, shuningdek amaliyot rahbarlari va mutaxassislarning kasbiy malakasi yuqoriligini ta’kidlagan. Bu amaliyot tizimi umumiy holda samarali yo‘lga qo‘yilganini ko‘rsatadi.

Biroq qolgan javoblar amaliyot jarayonidagi qator muammolarga ishora qiladi:

Talabalar amaliyot joylari bor, lekin amaliyot ko'nikmalarini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yetarli emasligini bildirgan

11%
8 823 nafar

Talabalar amaliyot joylari yetishmasligi, talabalarning o'zi joy topishiga to'g'ri kelayotganini ma'lum qilgan

5%
3 697 nafar

Talabalar amaliyot joylariga asosan qo'yilgan tartib uchungina borilishi, ya'ni amaliyot formal tusga aylanib qolganini ta'kidlagan

2%
1 400 nafar

Talabalar amaliyot vaqtida o'z ishlari bilan band bo'lishi, asosan baho olish uchungina tashrif buyurilishini bildirgan

1%
938 nafar

Natijalar amaliyot tizimi umumiy qaraganda yaxshi tashkil etilganini ko'rsatsa-da, barqaror va yetarli amaliyot joylari, sifatli sharoitlar, hamda formallikka qarshi kurashish kabi yo'nalishlarda yana ish olib borish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa ta'lim muassasalari va ish beruvchi tashkilotlar hamkorligini yanada kuchaytirishni talab qiladi.



“Raqamli platformalar vositasidagi baholash mezonlarini qanchalik adolatli deb hisoblaysiz?”, degan savolga talabalarning katta qismi – 81% (63 624 nafar) raqamli platformalarda baholash adolatli bo'lishi asosan tizimli va shaffof foydalanishga bog'liq, deb hisoblaydi. Bu raqamli baholashga nisbatan umumiy ishonch yuqoriligini ko'rsatadi.

Talabalar texnik ko'nikmalar pastligi xolislikka ta'sir qilayotganligini bildirgan

8%
6 105 nafar

Talabalar platformalar imkoni yuqori, lekin talabalarda loqaydlik mavjud, deb biladi

6%
4 501 nafar

Talabalar ba'zan tanish-bilishchilik holatlari uchrashini ta'kidlaydi

2%
1 431 nafar

Talabalar platformalar imkoniyatlarini yanada oshirishni tavsiya qiladi

4%
3 021 nafar

Umuman, talabalarning aksar qismi raqamli baholashga ijobiy qaraydi, ammo texnik tayyorgarlik, foydalanuvchi faolligi va ayrim hollarda insoniy omillar shaffoflikka ta'sir qilishi mumkinligini qayd etgan.



“Ta’lim sifatini yanada oshirish uchun nimalarga e’tibor qaratish kerak?”, degan savolga berilgan javoblar tahlili shuni ko’rsatadiki, talabalar ta’lim tizimida bir nechta asosiy muammo va ustuvor yo’nalishlarni alohida ta’kidlamoqda. Javoblarning umumiy manzarasida pedagoglarning mas’uliyatini oshirish, raqamli ta’limni keng joriy etish, ortiqcha byurokreatiyani kamaytirish va kreativ-tahlilga yo’naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirish kabi yo’nalishlar yetakchi o’rinni egallaydi.

Birinchi navbatda, 42% talaba (32 918 nafar) surunkali dars o’tmaydigan yoki o’quv rejadan chetga chiqib ketadigan professor-o’qituvchilarning auditoriyalarga kirishiga cheklov qo’yish lozimligini ta’kidlagan. Bu natija talabalarning asosiy e’tirozi aynan dars intizomi va pedagog mas’uliyatiga qaratilganini ko’rsatadi. Demak, ta’lim tizimida sifatni oshirishning eng muhim yo’nalishi – o’qituvchilarning shaxsiy javobgarligi va darslarda barqaror ishtirokini ta’minlashdir.

Shu bilan birga, 7% talabalar (5704 nafar) yuqori ilmiy darajadagi professorlarning darslarga shaxsan kirmasdan, ularning o’rniga assistent yoki magistr larni dars o’tish holatlarini salbiy baholagan. Bu esa kadrlar malakasi va dars sifatidagi nomutanosiblikka talabalar jiddiy e’tibor qaratganini anglatadi.

Raqamli ta’lim platformalaridan to’liq foydalanish kerakligini ta’kidlagani – raqamlashuv jarayoniga bo’lgan talab yuqori ekanligini ko’rsatadi. Bu vaqtni tejash, sifatli materiallarga oson yetishuv va ta’lim samaradorligini oshirishga bo’lgan ehtiyojni aks ettiradi

13%

10 492 nafar

Ortiqcha qog’ozbozlik, majlisbozlik va tadbirbozlikni yo’qotish zarurligini aytib, ta’lim jarayonidagi byurokratik to’siqlar ta’lim sifatiga jiddiy ta’sir qilayotganini ko’rsatgan

15%

12 013 nafar

Yakuniy yirik guruh – 22% talabalar (17 555 nafar) esa kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi seminar, ilmiy tadbir va konferensiyalarni ko’paytirishni taklif qilgan. Bu talabalarning faol, interaktiv va intellektual rivojlanishga qaratilgan ta’lim olish talabi oshib borayotganligini anglatadi. Shu bilan birga, mazkur ko’rsatkich o’tilayotgan darslarda kreativlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan muhokamalar, pedagoglarning mahorati yetarli emasligini ham ko’rsatib berayapti. 63 ta oliygohda so’rovnomada qatnashgan 20%dan ortiq talabalar kreativlik va tanqidiy seminar va ilmiy tadbirlar bo’lishi kerakligini ta’kidlagan.

Umuman olganda, talabalar ta’lim tizimini takomillashtirishda mas’uliyat, samaradorlik, raqamlashuv, interaktiv yondashuv va ortiqcha byurokreatiyadan holi muhitni eng muhim ustuvorliklar sifatida ko’rmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilar taklif qilinadi:

- 1** Kasb tanlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy tizimni kuchaytirish. Jumladan, yoshlarning mutaxassislikni tasodifan yoki tashqi ta'sirlar asosida tanlashi ulushini qisqartirish maqsadida maktab, texnikum va oliygohda kasbga yo'naltirish ishlarini yagona standartlar asosida tashkil etish, kasb tanlash bo'yicha psixologik va metodik xizmatlarni rivojlantirish.
- 2** Professor-o'qituvchilarning dars intizomi va mas'uliyatini qat'iy nazorat qilish. Darsga kelmaslik, o'quv rejalaridan chetga chiqish va yuqori malakali professorlar o'rniga assistentlarni yuborish kabi holatlarni cheklash uchun ta'sirchan monitoring va javobgarlik mexanizmlarini joriy etish, dars sifati bo'yicha reytingli baholash tizimini kuchaytirish.
- 3** Oliygozlardagi texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish, ya'ni o'quv laboratoriyalari va auditoriyalar texnik jihatdan yetarli bo'lsa-da, talabalar tomonidan keng qayd etilgan Wi-Fi qoplamasi va tezligini yaxshilash bo'yicha respublika dasturini qabul qilish, barcha auditoriyalarni bir xil standart asosida texnik jihozlashni ta'minlash.
- 4** Raqamli ta'lim va raqamli baholashni institutsional darajada kuchaytirish. Buning uchun professor-o'qituvchilar va talabalarning raqamli platformalardan foydalanish ko'nikmalarini oshirish uchun tizimli treninglar o'tkazish, raqamli baholash jarayonlarining shaffofligi va adolatini ta'minlash bo'yicha yagona mezon va standartlar joriy etish.
- 5** Tyutor va Registrator ofislarining samaradorligini inobatga olgan holda, talabalar uchun barcha ta'limiy ma'lumotlarni yagona elektron platforma orqali taqdim etishni joriy etish, norasmiy kanallar orqali tarqaluvchi noto'g'ri axborotning oldini olish.
- 6** Amaliyot bazalarini kengaytirish va amaliyot sifati uchun javobgarlikni kuchaytirish, oliygoh va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik shartnomalarini kengaytirish, amaliyot joylarining sifati, infratuzilmasi va haqiqiy ko'nikma berishi bo'yicha yagona talablarni belgilash, amaliyot jarayonidagi formallikni bartaraf etish.

QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL- HUQUQIY ASOSLARI



**Shodiyor
SHAYZAKOV**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi markaz boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud hujjatlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatligini ta'minlash huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Sud tomonidan qabul qilingan har qanday hal qiluv qarori, ajrim yoki qaror faqatgina moddiy va protsessual huquq normalariga muvofiq bo'lgan taqdirdagina shaxs huquq va erkinliklarining samarali himoyasini ta'minlay oladi. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, birinchi instansiya sudi tomonidan ish holatlarini to'liq aniqlamaslik, dalillarga noto'g'ri baho berish yoki huquq normalarini qo'llashda xatolarga yo'l qo'yilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda apellyatsiya instituti qonuniylik va adolatni tiklashning muhim protsessual vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Apellyatsiya tartibida qayta ko'rishning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u sud hujjatini oddiy formal tekshirish bilan cheklanib qolmay, balki ishni mohiyati bo'yicha takroran ko'rib chiqish imkonini ham beradi. Shu bois apellyatsiya birinchi instansiya sudida yo'l qo'yilgan faktik va huquqiy xatolarni bartaraf etish, ish bo'yicha qonuniy va asosli yakuniy xulosaga kelish hamda manfaatdor shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Apellyatsiya bosqichi fuqarolik protsessining mustaqil bosqichi sifatida birinchi instansiyada ko'rilgan ishning natijalarini qayta baholash orqali sudlov sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Apellyatsiyaning eng asosiy jihati — bu sud qarorini tekshirish jarayonida ishning mohiyati bo'yicha ikkinchi bor, ya'ni takroran ko'rib chiqilishidir.

“Ishlarni ikki marta ko'rib chiqishga yo'l qo'yish zarurati shu bilan izohlanadiki, sudylar ishlarni hal etishda ixtiyoriy yoki beixtiyor xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin, bunday xatolar esa tuzatilishini talab etadi”[1].

“Ishni mohiyati bo'yicha shunday ikki marta ko'rib chiqish natijasida uning faktik tomoni to'la va to'g'ri aniqlangan deb hisoblanadi, chunki quyi instansiya sudining kamchiliklari va xatolari ishni apellyatsiya tartibida yangidan ko'rish chog'ida, tabiiy ravishda, aksariyat holatlarda bartaraf etiladi” [2].

Apellyatsiya tartibida tekshiruvdan keyin qonun chiqaruvchi taftish instansiya sudiga murojaat qilish huquqini beradi. Ushbu sud sud hujjatlarini ishni mohiyati bo'yicha qayta ko'rmasdan, faqat huquq normalarining to'g'ri qo'llanilganligi nuqtai nazaridan tekshiradi.

Demak, faqat birinchi instansiya va apellyatsiya (yoki kassatsiya) instansiyasi sudlarigina ishni mohiyati bo'yicha ko'radi. Apellyatsiya sudining ishni ikkinchi bor mohiyati bo'yicha ko'rish faoliyati mazmuni esa qonunda belgilangan apellyatsiya turiga bog'liq bo'ladi.

So'z ishni takroran, ya'ni ikkinchi bor ko'rib chiqish haqida borayotgani uchun, shuni yodda tutish muhimki, ikkinchi instansiya sudining faoliyati o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. U faqat manfaatdor shaxs tomonidan apellyatsiya shikoyati yoki protesti berilgan taqdirdagina apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan amalga oshiriladi. O'z navbatida, apellyatsiya shikoyati (protesti) esa birinchi instansiya sudining qarori mavjud bo'lmagan holatda berilishi mumkin emas.

A.X.Golmsten to'g'ri ta'kidlaganidek, yuqori (apellyatsiya) sudida protsessual huquqiy munosabatning vujudga kelishiga quyi sudning (birinchi instansiya sudining) noto'g'ri hal qiluv qarori sabab bo'ladi, apellyatsiya sudida protsessual huquqiy munosabatning yuzaga kelish asosi esa apellyatsiya shikoyati yoki protestining berilishidir[3]. Yangi huquqiy munosabat birinchi instansiya sudida mavjud bo'lgan protsessual huquqiy munosabatdan o'zining elementlari va mazmuniga ko'ra farq qiladi. S.M.Mixaylovning “ishni takroran ko'rish o'z-o'zidan mavjud emas, balki sud hujjatining to'g'riligini tekshirish uchun mavjud” degan fikrni ilgari suradi[4].

Avval hal etilgan ish apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan sud qarorining qonuniyligi va asosliligini tekshirish maqsadida ikkinchi marta ko'rib chiqiladi.

Aynan shu takroran ko'rish talabi apellyatsiya instansiyasi sudining ikki asosiy belgisini belgilaydi: sud qarorini tekshirish va ishni mohiyati bo'yicha ko'rib chiqish.

Shuningdek, fuqarolik protsessual huquqi nazariyasida to'liq apellyatsiya va to'liq bo'lmagan (cheklangan yoki yuridik) apellyatsiya turlariga ajratib ko'rsatiladi[5]. To'liq apellyatsiya o'z ildizlarini Rim imperiyasidan oladi. Sud qarorlarini shikoyat qilish vositasi sifatida apellyatsiya o'zining yakuniy shakllanishi va mustahkamlanishiga

imperator Yustinian hukmronligi davrida (527—565 yillar) erishgan. Aynan shu davrda apellyatsiya tartibida ish yuritish ishni takroran ko'rib chiqish shakliga kirgan bo'lib, bunda taraflarga qo'shimcha dalillar taqdim etish va ularni bevosita sud majlisida tekshirishga yo'l qo'yilgan (judicium novum) (5-band).

Qonuniy kuchga kirmagan birinchi instansiya sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega bo'lgan subyektlar tomonidan shikoyat (protest) apellyatsiya instansiyasi sudi nomiga yoziladi. Lekin apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilgan sudga beriladi.

Apellyatsiya shikoyatini (protestini) qaysi sud nomiga yozish va berish masalasida olimlar o'rtasida munozaralar mavjud bo'lib, aksariyat protsessualist olimlar apellyatsiya shikoyatini apellyatsiya instansiyasi sudi nomiga yozib, to'g'ridan-to'g'ri yuqori sudlarga yuborishni taklif qilsalar, boshqalari esa yuqori sudlar nomiga yozilsada, biroq ish ko'rgan sud orqali yuborish kerakligi haqida fikr bildiradilar[6].

Apellyatsiya shikoyati (protest)ni berish huquqiga vakolatli bo'lmagan shaxs tomonidan berilgan holatda birinchi instansiya sudi shikoyat (protest)ni FPKning 195-moddasi tartibida qaytarish haqida ajrim chiqaradi. Arizani qaytarish to'g'risidagi ajrim ustidan shikoyat qilinishi (protest keltirilishi) mumkin. Bunday sud amaliyoti Latviya, Belorusiya Respublikalari va Rossiya Federatsiya fuqarolik protsessual qonunchiligida kuzatilgan.

Qonuniy kuchga kirmagan birinchi instansiya sudlarining hal qiluv qarorlari, ajrimlari va qarorlarining qonuniy, adolatli va asoslantirilganligi tekshirish uchun berilgan apellyatsiya shikoyati (protesti) FPKning 388-moddasida nazarda tutilgan protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun ham bevosita birinchi instansiya sudlari nomiga beriladi.

Qonun apellyatsiya shikoyati (protesti) sudga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning soniga qarab ko'chirma nusxalari bilan birga taqdim etish tartibini belgilashidan maqsad, protsess ishtirokchilarini shikoyat (protest) mazmuni bilan xabardor bo'lishi, o'z manfaatlarini himoya qilishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu talab elektron hujjat tarzida yuborilgan apellyatsiya shikoyati (protesti) nisbatan tadbiiq etilmaydi.

Qonunda apellyatsiya muddatini belgilashdan maqsad, ikkinchi instansiya sudida ishning tez ko'rilishini ta'minlash va ishda ishtirok etuvchi shaxslarga ko'rilgan ish materiallari bilan tanishish hamda ish yuzasidan chiqarilgan qarorga rozi bo'lmaganida, shikoyat (protest) bildirishga imkoniyat berishdan iborat[6].

Birinchi instansiya sudlarining hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest keltirish huquqiga ega subyektlar bir oy muddat ichida shikoyat (protest) berishlari yoki elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan elektron hujjat tarzida yuborilishi mumkin.

Hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berilganida, hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirmaydi. FPK 266-moddasida ko'rsatilgan darhol ijro etilishi lozim bo'lgan hal qiluv qarorlari ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat berilgan taqdirda mazkur qarorlar ijrosi to'xtatilmaydi.

Qonun apellyatsiya shikoyati berishning umumiy muddatidan tashqari, maxsus apellyatsiya muddatlarini ham belgilaydi. Bunday muddatlar qatoriga soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilgan ishlar bo'yicha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarori qabul qilinganidan keyin o'n kun ichida berilishi mumkin.

Birinchi instansiya sudlari hal qiluv qarori qabul qilishi bilan apellyatsiya shikoyati (protesti) keltirish huquqi paydo bo'lib, apellyatsiya muddati qonunchilik va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Sudlar

tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risida"gi Plenum qaroriga ko'ra, apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati o'tishining boshlanishi, tegishlicha, sud hujjati qabul qilingan yoki qonuniy kuchga kirgan kundan hisoblanadi[7].

Birinchi instansiya sudlari tomonidan FPK 262-moddasida ko'rsatilgan qo'shimcha hal qiluv qarorlari qabul qilingan holatlarda ham belgilangan apellyatsiya muddatlariga rioya qilinishi kerak. Qo'shimcha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati ham asosiy hal qiluv qarori chiqarilgan kundan hisoblanadi. Yuqoridagi Plenum qaroriga asosan, qo'shimcha hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati ham asosiy hal qiluv qarori qabul qilingan kundan hisoblanadi.

FPK 264-moddasiga muvofiq, birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda, u ish apellyatsiya instansiyasi sudi tomonidan ko'rib chiqilganidan keyin qonuniy kuchga kiradi. Mazkur qoida apellyatsiya shikoyati (protesti) hal qiluv qarorining bir qismiga berilgan hollarda ham qo'llaniladi.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) belgilangan muddat o'tgandan keyin berilganida apellyatsiya shikoyatini (protestini) bergan shaxsga qaytariladi. Biroq, qonun muddatni tiklash ehtimolini nazarda tutadi. Apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini tiklash haqida taraflar birinchi instansiya sudga iltimosnoma beriladi.

Ishda ishtirok etuvchi shaxslar qonunda belgilangan muddatni sud uzrli deb topgan sabablarga ko'ra o'tkazib yuborgan bo'lsa, sud tomonidan mazkur muddat FPK 155-moddasiga muvofiq tiklanadi hamda bu haqida ajrim chiqariladi.

Sud tomonidan uzrli deb topilishi mumkin bo'lgan sabablar jumlasiga ishda ishtirok etuvchi shaxslarning o'z vaqtida shikoyat keltirish imkoniga ega bo'lmaganligini tasdiqlovchi holatlar, xususan, ularning bunga imkon bermaydigan darajada kasalligi, xizmat safariga ketganligi, hal qiluv qarorini o'z aybiga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra kech olganligi, yaqin qarindoshining vafot etganligi kabi asosli sabablarni kiritish mumkin. Bunday holatlarning qat'iy ro'yxati qonun bilan belgilanmagan bo'lib, sud tomonidan shikoyat berish uchun o'tkazib yuborilgan muddatning uzrli ekanligi haqiqiy holatlardan kelib chiqib baholanadi[8].

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-martdagi "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risida" 9-sonli qarorida, jismoniy shaxsning kasalligi, uning oilaviy sharoiti (oila a'zosining o'limi yoki og'ir kasalligi), shuningdek, boshqa holatlar, agar ular qonunda belgilangan muddatda shikoyat berishni istisno etgan yoxud jiddiy ravishda qiyinlashtirgan bo'lsa, uzrli sabablar deb topilishi mumkin.

Apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddati tiklanganda, sud hal qiluv qarori ijrosini to'xtatish masalasini hal qiladi. Apellyatsiya shikoyati (protesti) berish muddatini uzrsiz sabablarga ko'ra o'tkazib yuborilganida birinchi instansiya sudi tomonidan o'tkazib yuborilgan muddatni tiklashni rad etish haqida ajrim chiqariladi. Mazkur ajrim ustidan apellyatsiya tartibida xususiy shikoyat berilishi yoki prokuror xususiy protest keltirishi mumkin. Apellyatsiya instansiyasi shikoyatni (protestni) asosli deb topgan taqdirda, birinchi instansiya sudining ajrimini bekor qilib, o'tkazib yuborilgan muddatni tiklaydi.

FPKning 386-moddasida apellyatsiya shikoyati yoki protestining shakliga qo'yilgan talablar belgilangan bo'lib, ko'rsatilgan talablar juda muhim. Ushbu talablarga rioya qilmaslik shikoyatni harakatsiz qoldirishga olib keladi.

Apellyatsiya shikoyati, protestning muhim qismi bu shikoyat bergan shaxsning yoki protest keltirgan prokurorning talablari, ya'ni sud qarorini asossiz yoki qonunga xilof, deb hisoblash uchun asoslar keltiriladi. Bunday asoslar keltirilishida shunga e'tibor berish kerakki, shikoyat yoki protest faqatgina birinchi instansiya sudiga kiritilgan da'vo talabi doirasida bo'lishi kerak. Apellyatsiya shikoyati yoki protestda dastlabki instansiyada ko'rib chiqilmagan da'volar ko'rsatilishi mumkin emas.

Apellyatsiya shikoyati yoki protestga qo'yilgan protsessual talablardan shikoyat (protest) berayotgan shaxsning iltimosi hamda shikoyatga (protestga) ilova qilingan yozma materiallarning ro'yxati bo'lishi majburiy rekvizitlardan hisoblanadi.

Fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, har bir tarafga o'zining talablari va e'tirozlariga asos qilib ko'rsatgan holatlarni isbotlash majburiyati yuklatilganligidan kelib chiqib, apellyatsiya shikoyati bergan shaxs tomonidan shikoyatda keltirilgan vajlarini tasdiqlovchi dalillarni shikoyatga ilova qilish maqsadga muvofiqdir.

Apellyatsiya instansiyasi sudi har qanday dalillarni, ular birinchi instansiya sudi muhokamasida bo'lganligidan yoki yangidan taqdim etilgan yoxud talab qilib olinganidan qat'i nazar, tekshirishga haqli.

Apellyatsiya instansiyasi sudi yangi taqdim qilingan dalillarni tekshirishni rad qilishni ajrimda asoslantirishi lozim.

Apellyatsiya instansiyasi sudi ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ekspertiza o'tkazish, dalillarni ta'minlash va talab qilib olish, guvohlarni so'roq qilish haqidagi va boshqa iltimosnomalarini ular birinchi instansiya sudi tomonidan rad etilganligi sababligina, rad etishga haqli emas.

Dalillar birinchi instansiya sudi uchun belgilangan tartib bo'yicha tekshiriladi[7]. Sudda vakillikning vakolatlarini rasmiylashtirish tartibi va shakllari FPKning 7-bobida belgilangan bo'lib, vakilning sud hujjati ustidan apellyatsiya tartibida shikoyat qilish vakolati alohida xususiyatga ega. FPK 69-moddasi mazmuniga ko'ra, vakilga sud hujjati ustidan shikoyat qilish vakolati unga berilgan ishonchnomada to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilishi kerak.

Plenum qarorida ishda qatnashayotgan shaxs vakili, shu jumladan, advokat, sud hujjati ustidan apellyatsiya, kassatsiya tartibida shikoyat qilishga bunday huquq vakolat beruvchi tomonidan berilgan ishonchnomada maxsus ko'rsatilgan holdagina haqli ekanligi ko'rsatilgan[7].

FPK 68-moddasidan kelib chiqib, davlat boshqaruvi organlarining, mansabdor shaxslarning vakillari tegishli organ rahbarining yoki mansabdor shaxsning imzosi bilan beriladigan ishonchnoma bo'yicha apellyatsiya instansiyasida harakat qiladi.

Apellyatsiya protesti prokuror yoki uning o'rinbosarlari tomonidan keltiriladi va imzolanadi. Prokuror o'rinbosarlari sifatida tuman prokurori, viloyat prokurori va Bosh prokurorning o'rinbosarlarini tushunish lozim.

Apellyatsiya shikoyati keltirilayotgan shaxslar tomonidan muayyan hujjatlar ilova qilinishi belgilangan. Apellyatsiya shikoyati berishning muhim shartlaridan biri davlat boji va pochta xarajatlari to'langan bo'lishi kerak. Sudlarning hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati berilganligi uchun qonunda belgilangan tartibda va miqdorda davlat boji undiriladi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 6-yanvardagi "Davlat boji to'g'risida"gi Qonuniga asosan sudlarning qarorlariga berilgan apellyatsiya shikoyatlaridan da'vo arizasi yoki boshqa arizalar, shikoyatlar berilganda to'lanadigan stavkaning 50 foizi miqdorida to'lanadi[9]. Davlat bojini to'lashni kechiktirishga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi. Sud taraflarning mulkiy ahvoriga qarab,

ulardan birining yoki ikkalasining davlat daromadiga undiriladigan sud xarajatlarini to'lashni kechiktirishga yoki bo'lib-bo'lib to'lashga yo'l qo'yishi, shuningdek bu xarajatlarning miqdorini kamaytirishi mumkin.

Prokuror tomonidan protest keltirilganida protestga davlat boji va pochta xarajatlari to'langanligi haqidagi hujjatlar ilova qilinmaydi. O'zbekiston Respublikasi "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasi 25-bandiga asosan prokuratura organlari – davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko'zlab qilingan da'volar hamda beriladigan arizalar yuzasidan davlat bojini to'lashdan ozod qilingan[9].

Prokuror, yuqori turuvchi prokuror va ularning o'rinbosarlari prokurorning ishtirokida ko'rilgan ish bo'yicha hamda qonunda prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan bo'lib, biroq u sud muhokamasining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilinmasdan ko'rilgan ishlar bo'yicha sud hujjati ustidan apellyatsiya protesti keltirishga haqli.

Fuqarolik protsessual qonunchiligiga asosan prokuror ishtirokisiz ko'rib chiqilgan ish bo'yicha apellyatsiya protestiga FPK 383-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslarning mazkur protestni keltirish uchun asos bo'lib xizmat qilgan murojaatining ko'chirma nusxasi ilova qilinadi.

Birinchi instansiya sudlariga apellyatsiya shikoyati (protest) bergan shaxslar tomonidan FPK 385, 3851, 386, 387-moddalari talablariga rioya qilingan bo'lishi shart.

Birinchi instansiya sudi FPK 194, 195-moddalari asosida qabul qilingan arizani qaytarish haqidagi yoki arizani qabul qilishni rad etish to'g'risidagi ajrim ustidan apellyatsiya shikoyati yoki protest keltirilganida, unga sud tomonidan qaytarilgan ariza va unga qo'shib berilgan hujjatlar ham ilova qilinadi. Apellyatsiya instansiyasida ajrim bekor qilingan taqdirda, apellyatsiya shikoyati sudga dastlabki murojaat qilingan kunda berilgan deb hisoblanadi. Sud FPK 385-387-moddalarining normalarida ko'rsatilgan talablarni kengaytirilgan holda talqin qilishi mumkin emas.

Rossiya Federatsiya fuqarolik protsessual qonunchiligiga ko'ra, apellyatsiya shikoyati yoki prokuror taqdimnomasi FPK 322-moddasi nazarda tutilgan talablarga javob bermasa hamda davlat boji to'lanmagan bo'lsa, besh kun muddat ichida sud kamchiliklarni bartaraf etish uchun real muddatlarni belgilab, ajrim chiqaradi[10]. Ushbu holatda ko'rish mumkinki, ushbu protsessual talablar milliy qonunchilik bilan o'xshash bo'lib, faqatgina sud necha kun muddat ichida harakatsiz qoldirish haqida ajrim chiqarishi qonunchiligimizda sud ixtiyoriga havola qilingan. Sud amaliyotida bu muddat hal qiluv qarori ustidan shikoyat qilish (protest keltirish) uchun belgilangan muddat o'tgan vaqtdan e'tiboran o'n kun ichida ishni kelib tushgan shikoyat (protest) bilan birga apellyatsiya instansiyasi sudiga yuborishi kerakligi haqidagi talabdan kelib chiqib, birinchi instansiya sudlari tomonidan hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2024-yil 25-martdagi "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlarini apellyatsiya, kassatsiya tartibida ko'rishning ayrim masalalari to'g'risida" 9-sonli qarorida FPK 386-moddasi talablariga javob bermaydigan, shuningdek, FPK 387-moddasi talablari buzilgan holda berilgan shikoyat (protest) sudyaning ajrimi bilan harakatsiz qoldirilib, qaytariladi[7]. Sud tomonidan chiqarilgan ajrimda ko'rsatilgan kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilsa, shikoyat (protest) dastlab sudga taqdim etilgan kunda berilgan hisoblanadi, aks holda, shikoyat (protest) berilmagan hisoblanadi.

Manfaatdor shaxs sudning apellyatsiya shikoyatini yoki protestini harakatsiz qoldirish haqidagi qaroriga rozi bo'lmagan taqdirda, ya'ni unda ko'rsatilgan vajlar bilan kelishilmaganda va shikoyatni qaytarish haqidagi

ajrimi ustidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Fuqarolik ishlari bo'yicha birinchi instansiya sudining ajrimlari to'g'risida" 2019-yil 25-oktyabrdagi 19-sonli qarorining 15-bandiga asosan arizani qaytarish haqidagi ajrimi ustidan apellyatsiya tartibida xususiy shikoyat yoki xususiy protest keltirilishi mumkin[11].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, apellyatsiyaning asosiy mazmuni sud qarorini tekshirish bilan bir vaqtda ishni mohiyati bo'yicha takroran ko'rib chiqishdan iborat ekani, aynan shu jihat uni boshqa qayta ko'rish shakllaridan ajratib turadi. Shuningdek, apellyatsiya munosabati birinchi instansiyadagi protsessual huquqiy munosabatning oddiy davomi emas, balki apellyatsiya shikoyati yoki protesti berilishi bilan vujudga keladigan mustaqil protsessual bosqich hisoblanadi.

To'liq va to'liq bo'lmagan apellyatsiyaning mazmun-mohiyatiga ham alohida e'tibor qaratildi. To'liq apellyatsiya ishni mohiyati bo'yicha deyarli yangidan ko'rishga yo'naltirilgan bo'lsa, to'liq bo'lmagan apellyatsiya birinchi navbatda sud qarorining qonuniyligi va asosligini tekshirishga qaratilgani ta'kidlandi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy fuqarolik sud yurituvu vazifalariga eng muvofiq model sifatida to'liq bo'lmagan apellyatsiya samaraliroq ekani haqidagi nazariy yondashuvlar yoritildi.

Shu bilan birga, apellyatsiya shikoyati yoki protestini berish tartibi, uning kim tomonidan, qaysi sud nomiga va qaysi sud orqali berilishi, muddatlari, muddatni tiklash asoslari, shakli va mazmuniga qo'yilgan talablar, ilovalar, davlat boji, prokuror protesti, vakil vakolati, elektron shaklda murojaat qilish kabi muhim protsessual masalalar batafsil tahlil qilindi. Apellyatsiya shikoyatini rasmiylashtirishda qonun talablariga rioya etmaslik uni harakatsiz qoldirish yoki qaytarishga olib kelishi, shu sababli mazkur bosqichda protsessual intizom va aniqlik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani asoslantirildi.

Apellyatsiya instituti birinchi instansiya sudi tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan faktik va huquqiy xatolarni bartaraf etish, ish bo'yicha qonuniy va asosli sud hujjati qabul qilinishiga erishish, shuningdek fuqarolar va tashkilotlarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishning muhim kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur institutning to'g'ri qo'llanilishi fuqarolik sud yurituvida qonuniylik, adolat va protsessual kafolatlarni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. Васильковский Е. В. Курс гражданского процесса. Т. 1. С. 182.
2. Малышев К. И. Курс гражданского судопроизводства. Т. 2. С. 77.
3. Гольмстен А. Х. Учебник русского гражданского судопроизводства. СПб., 1913.
4. Михайлов С. М. Оценка доказательств судом второй инстанции в гражданском судопроизводстве: автореф. дис. ... канд. юрид. наук. М., 2001. С. 19.
5. Борисова Е.А. Апелляция, кассация, надзор по гражданским делам: учеб. пособие / Е.А.Борисова. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.:Норма : ИНФРА-М, 2024. с.186
6. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик процессуал кодексига шарҳлар. -Тошкент: ТДҮОИ нашрети, 2010. – 780 бет.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг "Судлар томонидан фуқаролик ишларини апелляция, кассация тартибида кўришнинг айрим масалалари тўғрисида" 2024 йил 25 мартдаги 9-сонли қарори / <https://lex.uz/docs/6881055>
8. Фуқаролик ишлари бўйича судга мурожаат қилиш тартиби [Матн] / Х.Ёдгоров ва бошқалар – Тошкент: Baktria press, 2016. -163 б.
9. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат божи тўғрисида"ги Қонуни, 07.01.2020 й. / "Халқ сўзи" газетаси, №4 (7506)
10. Гражданский процессуальный кодекс Российской Федерации от 14 ноября 2002 г. N 138-ФЗ, 323-статья. (ред. от 30.12.2021) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.02.2022)
11. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг "Фуқаролик ишлари бўйича биринчи инстанция судининг ажримлари тўғрисида" 2019 йил 25 октябрдаги 19-сонли қарори / www.sud.uz

ILMIY TADQIQOT UNIVERSITETI KONSEPSIYASI



**Ikrom
RIXSIBOYEV**

Toshkent shahridagi xalqaro
Vestminster universiteti
doktorantura maktabi dekani,
fizika-matematika fanlari nomzodi,
dotsent



Ilmiy-tadqiqot universiteti konsepsiyasi XIX asr boshlarida (1810 yil) Germaniyada Vilgelm fon Gumboldt tomonidan Berlin universitetida joriy etilgan. Uning asosiy g'oyasi — "Ta'lim va tadqiqot birligi" hisoblanadi. Bungacha universitetlar faqat tayyor bilimlarni uzatuvchi maskan bo'lgan bo'lsa, Gumboldtdan keyin ular yangi bilim yaratiladigan laboratoriyalarga aylandi. Germaniyaning o'ziga xosligi shundaki, universitetlardan tashqari yirik tadqiqot jamiyatlari mavjud. Masalan, Maks Plank jamiyati fundamental tadqiqotlar bilan, Fraungofer jamiyati esa amaliy ishlanmalar bilan shug'ullanadi. 2026 yil holatiga ko'ra, Germaniyada "Excellence Strategy" (Mukammallik strategiyasi) dasturi amal qilmoqda. Bu dastur eng kuchli 10-15 ta universitetni "Elita universitetlar" sifatida alohida moliyalashtirib, ularning dunyo reytingidagi o'rnini mustahkamlaydi [11, 13].

Buyuk Britaniyada tadqiqot universitetlari modeli yuqori sifat va raqobatga asoslangan. Rassel guruhi (Russell Group) Buyuk Britaniyadagi 24 ta yetakchi tadqiqot universitetlarining (Oksford, Kembrij, UCL va boshqalar) birlashmasidir. Ular mamlakatdagi jami ilmiy grantlar va shartnomalarning 65% dan ortig'ini egallaydi. REF (Research Excellence Framework) Britaniya universitetlar faoliyatini baholash tizimi hisoblanadi. U har bir universitetning ilmiy ishlari sifatini, ularning jamiyatga va iqtisodiyotga ta'sirini (Impact) baholaydi. Davlat tomonidan beriladigan mablag'lar aynan shu REF natijalari asosida taqsimlanadi. Britaniya modellarida tadqiqotchi doktorantlar (PhD) universitetning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Universitetlar global miqyosda iste'dodlarni jalb qilish orqali xalqaro tadqiqot xablariga aylangan. Buyuk Britaniya uchun u global iqtisodiy raqobatda yutish uchun xizmat qiladigan yuqori texnologik "Innovatsiya fabrikasi"dir [8, 10].

AQSHda 4000 dan ortiq OTM mavjud bo'lib, Karnegi klassifikatsiyasiga ko'ra, eng yuqori tadqiqot faolligiga ega bo'lgan R1 toifasili universitetlar soni 146 ta, R2 toifasi bilan qo'shib hisoblaganda esa 280 taga yaqin bo'lib bu taxminan umumiy universitetlarning 7% tashkil etadi. AQSHdagi doktorlik (PhD) darajasini beruvchi universitetlar 3 ta asosiy toifaga bo'linadi. Bu tasniflash universitetning ilmiy-tadqiqot xarajatlari va beriladigan PhD darajalari soniga asoslanadi. R1 — juda yuqori tadqiqot faolligi (Very High Research Activity) nufuzli toifa bo'lib, unga AQSHning eng kuchli 146 ta (Masalan: MIT, Harvard, Stanford, Yale) ilmiy markazlari kiradi. Yillik tadqiqot budjeti yuz millionlab dollarni tashkil etadi. Bu yerda fundamental fan va yuqori texnologiyalar yaratiladi. R2 — yuqori tadqiqot faolligi (High Research Activity) universitetlari (taxminan 130-140 ta) ham ilmiy tadqiqotlar bilan faol shug'ullanadi, lekin ularning ko'lami R1 darajasidagidek, yuqori emas. Ular yiliga kamida 20 ta doktorlik darajasini beradi va kamida 5 million dollarlik tadqiqot budjetiga ega. D/PU — Doktorlik va kasbiy universitetlar (Doctoral/Professional Universities) toifasiga tadqiqotdan ko'ra ko'proq kasbiy doktorlik darajalarini (masalan, tibbiyot, huquq yoki amaliy ta'lim yo'nalishlari uchun) berishga yo'naltirilgan muassasalar kiradi. Bu turdagi universitetlarda doktorlik darajasini berish son nuqtayi nazaridan salmoqli emas va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun grantlar jalb qilish hajmi ancha past [7].

Osiyoda tadqiqot universitetlari nafaqat ta'lim maskani, balki milliy iqtisodiy xavfsizlik va texnologik suverenitet quroli hisoblanadi. Xususan, Janubiy Koreyadagi "Brain Korea 21" (BK21) loyihasiga asosan hukumat 1999 yildan boshlab kuchli tadqiqot olib boradigan universitetlarni moliyalashtirishga e'tiborni kuchaytirgan. Natijada, Koreya ilg'or fan va texnologiya instituti (KAIST, Korea Advanced Institute of Science

& Technology) va Seul Milliy Universiteti (Seoul National University) kabi universitetlar Samsung va LG kabi gigant kompaniyalar uchun tadqiqot bazasiga aylandi. Ularning asosiy ko'rsatkichi sifatida patentlar va tijoratlashtirilgan ilmiy tadqiqotlar soni ko'riladi [4].

Xitoyda ilmiy-tadqiqot universitetlarini rivojlantirish modeli o'zining ko'lami, davlat tomonidan qat'iy markazlashgan holda boshqarilishi va ulkan moliyaviy resurslari bilan ajralib turadi. Xitoy bu borada «miqdordan sifatga o'tish» strategiyasini qo'llamoqda. 2026-yil holatiga ko'ra, Xitoyning tadqiqot universitetlari tizimi quyidagi uchta asosiy bosqich orqali shakllandi. Xitoy o'z universitetlarini dunyo darajasiga olib chiqish uchun ikkita yirik tashabbusni amalga oshirdi. Dastlabkisi, "211-loyiha"si (1995-yil) XXI asr uchun 100 ta eng yaxshi universitetni tayyorlash va ikkinchisi "985-loyiha"si (1998-yil) Xitoyning eng elita universitetlarini (39 ta) dunyoning top-universitetlari qatoriga kiritishga xizmat qildi. 2017-yildan boshlab Xitoy barcha eski loyihalarni birlashtirib, "Ikki karra birinchi darajali universitet" (Double First-Class) dasturini boshladi. Bu dasturning maqsadi 2050-yilgacha Xitoyni ta'lim va innovatsiyalar bo'yicha dunyo yetakchisiga aylantirish. 147 ta universitet (umumiy OTMLarining 5%) ushbu dasturga kiritilgan. Ular "Dunyo darajasidagi universitet" va "Dunyo darajasidagi fan yo'nalishi" maqomlariga ega. Universitetlarning davlat bilan korporativ hamkorligi juda kuchli yo'lga qo'yilgan. Masalan, Tsinghua University yoki Peking University kabi muassasalar bevosita davlatning strategik loyihalari (kosmos, sun'iy intellekt, 5G/6G texnologiyalari) ustida ishlaydi. Xitoyda ko'plab tadqiqot universitetlari mudofaa sanoati uchun ham texnologiyalar ishlab chiqadi. Xitoy olimlari Scopus va Web of Science bazalarida maqolalar soni bo'yicha AQSH bilan tenglashib oldi. Universitetlar professorlarni xalqaro nashrlar uchun juda katta miqdorda moliyaviy mukofotlaydi. 2026-yilgi reytinglarda Xitoy universitetlari (masalan, Tsinghua) nafaqat Osiyoda 1-o'rinni egallamoqda, balki Oksford va Garvard kabi grandlarni ham ba'zi muhandislik yo'nalishlarida ortda qoldirmoqda [9].

Singapurda bor-yo'g'i 6 ta davlat universitetlari bo'lsada ularning ikki nafari Singapur Milliy Universiteti (NUS, National University of Singapore) va Nanyang texnologiyalar universiteti (NTU, Nanyang Technological University) dunyoning TOP-20 ta'lim muassasalari qatoriga kiradi. Singapur "Global Knowledge Hub" modelini qo'llaydi va tadqiqotlarning 70% dan ortig'i xalqaro hamkorlikda olib boriladi.

Malayziyada tadqiqot universitetlari konsepsiyasi 2006-yilda, mamlakatni yuqori daromadli va innovatsion iqtisodiyotga o'tkazish maqsadida joriy etilgan. Bu tizim an'anaviy o'qitishga yo'naltirilgan ta'limdan ko'ra, yangi bilimlar yaratish va tijoratlashtirishga ko'proq e'tibor qaratadi. Bu konsepsiyaning asosiy xususiyatlari quyidagi uchta omilda namoyon bo'ladi. Birinchisi, talabalarga bilim berish bilan birga ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar (R&D) orqali yangi ixtirolar yaratish. Ikkinchi ustivorlik, universitetda magistrantlar va doktorantlar soni bakalavrlar soniga nisbatan yuqori bo'lishi (odatda 50:50 nisbatda) talab etiladi. Uchinchi, universitetda innovatsiyalar va tijoratlashtirishni rivojlantirish. Ya'ni, universitet o'z patentlarini sotish, texnologiyalarni transfer qilish va biznes loyihalari orqali o'z daromadlarini yaratishga intiladi [5, 6].

MALAYZIYA OTMLARINI BAHOLASH MEZONLARI

Malayziyaning MyRA (Malaysia Research Assessment) tizimi — bu mamlakatdagi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot salohiyatini baholash va ularga "Tadqiqot universiteti" (RU) maqomini berish (yoki bekor qilish) uchun ishlatiladigan kompleks milliy vositadir. MyRA tizimi Britaniyaning REF tizimi va AQSHdagi "Karnegi klassifikatsiyasi" asosida yaratilgan. Ushbu tizim 2026-yilda ham Malayziya universitetlarining xalqaro reytinglardagi (Quacquarelli Symonds-QS, Times Higher Education-THE) barqarorligini ta'minlovchi asosiy mexanizm hisoblanadi. MyRA baholash tizimining 8 ta asosiy mezon mavjud bo'lib, universitet faoliyatini 100 ballik shkala bo'yicha baholaydi [6].

Miqdor va sifatdagi kadrlar salohiyati

20%

- ✔ *Professor - o'qituvchilarning kamida 75–80 foizi PhD ilmiy darajasiga ega bo'lishi;*
- ✔ *Universitetda faoliyat yuritayotgan chet ellik tadqiqotchilar, doktorantlar va ilmiy tadqiqotchilar (Post-doctoral) soni/ulushi;*
- ✔ *Ilmiy rahbarlarga to'g'ri keladigan doktorantlar sonining mutanosibligi.*

Tadqiqotchilar tayyorlash (PhD va Magistratura)

20%

- ✔ *Yillar kesimida dissertatsiya himoya qilayotgan PhD talabalarining soni;*
- ✔ *Universitetdagi ilmiy tadqiqotchilarning (Post-doctoral) tadqiqot faolligi;*
- ✔ *Tadqiqot yo'nalishida tahsil olayotgan xorijiy talabalar ulushi.*

Ilmiy nashrlar va maqolalar

20%

- ✔ *Scopus yoki Web of Science (WOS) bazalarida maqolalar va ularga berilgan iqtiboslar soni;*
- ✔ *Nashr etilgan ilmiy ishlarning dunyo ilmiy hamjamiyati tomonidan tan olinishi (H-index);*
- ✔ *Xalqaro nufuzli nashriyotlarda chop etilgan ilmiy adabiyotlar/qo'llanmalar.*

Tashqi grantlarni jalb qilish

15%

- ✔ *Malayziya ichki resurslardan olingan mablag'lar/loyihalar;*
- ✔ *Xorijiy fondlar va xalqaro tashkilotlardan jalb qilingan investitsiyalar;*
- ✔ *Sanoat korxonalarini bilan tuzilgan shartnomalar asosidagi kelib tushgan mablag'lar.*

Innovatsiya va tijratlashtirish

10%

- ✔ *Ro'yxatdan o'tkazilgan va amaliyotga joriy etilgan ixtirolar/patentlar;*
- ✔ *Universitet qoshida tashkil etilgan texnologik startaplar/spin-off kompaniyalar;*
- ✔ *Ilmiy ishlanmalarni sanoatga sotishdan tushgan daromad.*

Ilmiy xizmatlar va ekspertiza

7%

- ✓ Akademik xodimlarning xalqaro konferensiyalardagi ishtiroki, ilmiy jurnallarda muharrirlik qilishi va hukumat uchun ekspertlik xulosalarini tayyorlashi.

Hamkorlik

5%

- ✓ Boshqa xalqaro universitetlar va yirik industrial korporatsiyalar bilan tuzilgan amaliy memorandumlar (MoU) va ular ijrosining samaradorligi.

Universitetning o'ziga xos yutuqlari

3%

- ✓ Milliy va xalqaro miqyosdagi nufuzli mukofotlar va e'tiroflar.

MALAYZIYA TADQIQOT UNIVERSITETLARI

Hozirgi kunda Malayziyada rasman "Tadqiqot universiteti" maqomiga ega 5 ta davlat oliy ta'lim muassasasi mavjud.



Malaya universiteti
Universiti Malaya — UM

Malayziyaning eng qadimgi (1905-y.) va nufuzli tadqiqot universiteti hisoblanib, QS World University Rankings reytingida barqaror ravishda jahonning TOP-100 taligiga kiradi. Universitet mamlakatda 1-o'rinni

egallab, mintaqada ta'lim va tadqiqot standartlarini belgilab beradi. UM tarkibidagi 60 dan ortiq ilmiy markazlar biotibbiyot, sun'iy intellekt va muhandislik sohalarida yuqori iqtibos olinadigan tadqiqotlar olib boradi. Muassasaning o'ziga xos jihati "UM Research Park" orqali innovatsiyalarni tijoratlashtirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash tizimining yo'lga qo'yilganidir. Akademik muhitning xalqarolashuvi (90 dan ortiq davlatdan talabalar) va professor-o'qituvchilarning dunyoning yetakchi oliygohlarida PhD darajasini olgani UMning global raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Malayziyaning siyosiy va ilmiy elitasi aynan ushbu universitet bitiruvchilari ekani uning milliy miqyosdagi strategik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.



Mamlakat oliy ta'lim tizimida "Innovatsion yetakchi" hisoblanib, 2008-yilda hukumat tomonidan APEX (Accelerated Programme for Excellence) maqomi berilgan yagona OTMdir. Ushbu maqom universitetga strategik boshqaruvda keng avtonomiya va yirik davlat grantlarini taqdim etadi. Universitetning asosiy konsepsiyasi barqaror rivojlanishga (Sustainability) yo'naltirilgan bo'lib, THE Impact Rankings reytingida ijtimoiy va ekologik mas'uliyat bo'yicha jahonning TOP-10 taligiga kiradi. USM tadqiqotlari kambag'allikni kamaytirish, toza energiya va iqlim o'zgarishi kabi global muammolar yechimiga qaratilgan. Penang orolining yuqori texnologik muhitida joylashganligi bois, universitet Intel, Dell va HP kabi global korporatsiyalar bilan CREST markazi orqali uzviy hamkorlik qiladi. Bu esa talabalar va tadqiqotchilar uchun sanoat bilan integratsiyalashgan yuqori texnologik laboratoriyalarda ishlash imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, USM ilmiy natijalarni insoniyat farovonligi va barqaror kelajak bilan bog'lovchi global markazdir.



Malayziya Milliy Universiteti
Universiti Kebangsaan Malaysia — UKM

1970-yilda tashkil etilgan bo'lib, milliy o'zlikni saqlagan holda xalqaro standartlarga integratsiyalashuv modelining yorqin namunasidir. Universitet malay tilini ilm-fan tili sifatida rivojlantirish bilan birga, QS World University Rankings reytingida dunyoning kuchli 200–250 ta OTM qatoridan muqim joy egallab kelmoqda. UKM ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan bir qatorda, tabiiy fanlar va texnologiyalar sohasida ham kuchli ilmiy bazaga ega. Xususan, suv resurslarini boshqarish, geologiya va yadroviy energiya yo'nalishidagi tadqiqot markazlari xalqaro miqyosda e'tirof etilgan. Universitetning ijtimoiy muammolarga ilmiy yechim topish va davlat uchun boshqaruv kadrlarini tayyorlashdagi roli yuqori. Xulosa qilib aytganda, UKM milliy manfaatlarni himoya qilish va global ilmiy raqobatbardoshlikni ta'minlashni o'z ichiga olgan muvozanatlashgan boshqaruv strategiyasini amalga oshirmoqda.



Malayziya Putra Universiteti
Universiti Putra Malaysia — UPM

Agrotexnologiya, biologiya va ekologiya fanlari sohasida Janubi-Sharqiy Osiyoning yetakchi ilmiy markazi hisoblanadi. 1931-yilda tashkil etilgan ushbu muassasa veterinariya va o'rmonchilik yo'nalishlari bo'yicha QS Subject Rankings reytinglarida dunyoning eng kuchli universitetlari qatoridan joy olgan. "Research University" sifatida UPM oziq-ovqat xavfsizligi, bioyoqilg'i va qayta tiklanuvchi energiya sohasidagi innovatsion ishlanmalari bilan ajralib turadi. Universitet UI Green Metric World University Rankings reytingida ekologik barqarorlik bo'yicha Malayziyada 1-o'rinni egallab, jahonning kuchli yigirmataligiga kiradi. Muassasa qoshidagi "Putra Science Park" ilmiy ixtirolarni tijoratlashtirish va patentlash tizimini samarali boshqaradi. Universitetning shaxsiy tadqiqot fermalari va veterinariya klinikalarini o'z ichiga olgan ulkan kampusi nazariya va amaliyot integratsiyasini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, UPM tabiat va yuqori texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda global barqarorlikka hissa qo'shuvchi strategik markazdir.



Muhandislik, texnologiya va fundamental fanlar bo'yicha mamlakatning strategik tadqiqot markazi hisoblanadi. 2010-yilda rasmiy "Research University" maqomini olgan ushbu OTM qurilish, mexanika va kimyo muhandisligi yo'nalishlari bo'yicha QS Global Subject Rankings reytinglarida jahonning kuchli 100 taligiga kiradi. UTM faoliyatining o'ziga xos jihati — tadqiqotlarning sanoat ehtiyojlari bilan uzviy bog'liqligidir. Universitet Siemens, Intel va PETRONAS kabi gigant kompaniyalar bilan bevosita hamkorlik qilib, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga tezkor joriy etadi. Muassasa qoshidagi "UTM Technovation Park" ilmiy natijalarni patentlash va tijoratlashtirishda yetakchi bo'lib, «Spin-off» kompaniyalarini tashkil etish bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega. Shu bilan birga, universitet "Aqlli shahar" (Smart City) konsepsiyasi va yashil texnologiyalar bo'yicha innovatsion loyihalarni amalga oshirmoqda. Xulosa qilib aytganda, UTM Malayziyaning texnologik suverenitetini ta'minlovchi va yuqori malakali innovatorlarni tayyorlovchi asosiy xab hisoblanadi.

MALAYZIYA TADQIQOT UNIVERSITETLARINING NATIJALARI

Malayziyada Tadqiqot universitetlari maqomi joriy etilgan 2006-yildan buyon mamlakatning ilmiy salohiyati keskin o'sishga erishdi. Jumladan, 2006-yilda Malayziyaning ilmiy maqolalar chiqarish ko'rsatkichi ancha past bo'lgan bo'lsa, RU konsepsiyasidan so'ng keskin o'sish kuzatildi. 2006–2015-yillar davomida beshta tadqiqot universiteti tomonidan Scopus bazasida jami

101126 ta maqola indekslangan. Malayziyaning ilmiy maqolalari hajmi 2015–2019-yillar oralig'ida har yili o'rtacha 5,4% ga o'sdi va dunyo ilmiy ishlarining qariyb 1% ini tashkil eta boshladi. 2018-yilda 22751 ta maqola e'lon qilingan bo'lsa, 2026-yilga kelib Malayziya universitetlarining ilmiy chiqishlari mintaqadagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lib qolmoqda. RU maqomi universitetlarga davlatdan va tashqi manbalardan katta miqdorda mablag' jalb qilish imkonini berdi. Xususan 2006–2011-yillarda tadqiqot universitetlari budjetining katta qismi (masalan, UTM da 89%, UPM da 76%) bevosita hukumat tomonidan moliyalashtirilgan. Har bir akademik xodim uchun yillik kamida 50 000 RM (RM Malayziya ringgiti, taxminan US \$12580) miqdorida grant jalb qilish vazifasi yuklatilgan. 2026-yilgi budjet ma'lumotlariga ko'ra, universitetlarda raqamlashtirish va yuqori texnologik tadqiqotlar uchun millionlab ringgit ajratilmoqda (masalan, MYREN loyihasi uchun 75 mln. RM). Quyidagi jadvalda tadqiqot universitetlarining Scopus bazasida 2006-yildan 2025-yilgacha oralig'ida chop etilgan ilmiy maqolalari o'sish dinamikasi yaxlitlangan holatda keltirilgan bo'lib, ular institutsional ma'lumotlar, QS/THE reyting ma'lumotlari va Malayziya Oliy ta'lim vazirligi (MOHE) hisobotlaridan olingan.

1-jadval.

TOP-5 Malayziya universitetlarining “QS World Ranking”dagi ko'rsatkichlari


Universitet	2010	2015	2020	2025
UM	180	151	70	60
UKM	291	259	160	138
USM	314	309	165	146
UPM	345	376	159	148
UTM	320	294	217	181

Malayziya universitetlarining xalqaro reytinglardagi, xususan QS reytingida yuksalishi Osiyo davlatlari orasida eng tezkorlaridan biri bo'ldi. 2016-yilda QS reytingida faqat 6 ta Malayziya universiteti bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib ularning soni 20 taga, 2026-yilga kelib esa 27 taga yetdi. Ilmiy ishlarga ajratilgan mablag'lar 2006-yilda YAIMga nisbatan 0,6% bo'lgan bo'lsa, 2018-yilda 1,4% ga yetdi va o'sishda davom etmoqda. 2006-yildan buyon o'tgan 20 yil ichida Malayziya tadqiqot universitetlari shunchaki ta'lim maskanidan global ilmiy markazlarga aylandi. UM kabi universitetlarning dunyoning TOP-100 taligiga kirishi aynan MyRA tizimi orqali o'rnatilgan qat'iy nazorat va moliyaviy qo'llab-quvvatlash natijasidir [14].

2025-yil yakunlari va 2026-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra, Malayziya universitetlarining ilmiy faoliyatida rekord darajadagi ko'rsatkichlar qayd etildi. Malayziya Tadqiqot universitetlari konsepsiyasi o'z samaradorligini to'liq isbotlab, mamlakatni mintaqaviy ilm-fan xabiga aylantirdi. 2023–2025-yillar oralig'ida Malayziyaning eng kuchli 20 ta universiteti tomonidan Web of Science bazasida 1400 dan ortiq sifatli maqolalar chop etildi. Umumiy ilmiy ishlarning qariyb 60 foizi beshta davlat tadqiqot universitetlari hissasiga to'g'ri keladi.

2-jadval.

TOP-5 universitetlarining 2006–2025-yillarda chop etilgan Scopus maqolalari



Malayziya olimlari tomonidan e'lon qilingan maqolalarning sifati ortib bormoqda. Universiti Malaya (UM) 2025-yilgi QS reytinglarida 41 ta fan yo'nalishi bo'yicha e'tirof etildi, shundan 28 tasi dunyoning eng yaxshi 10 foiziga kirdi. 2025-yilgi davlat budjetida ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar (R&D) uchun ajratilgan mablag'lar 600 million ringgitga (taxminan 127 mln dollar) yetkazildi, bu 2024-yilga nisbatan sezilarli o'sishdir. 2025-yilning noyabr oyi holatiga ko'ra, Malayziya universitetlarining ayrimlari (masalan, USM) Nature Index reytingida milliy darajada 1-o'rinni egallab, yuqori texnologik tadqiqotlarda yetakchilik qilmoqda.

3-jadval.

Tadqiqot universitetlari bo'yicha ilmiy natijadorlik (2025)

Universitet	Ilmiy maqolalar soni (yillik o'rtacha)	Asosiy ilmiy tadqiqot yo'nalishlari
UM	~17,000+	Ijtimoiy fanlar, Muhandislik, Tibbiyot
UPM	~14,000+	Qishloq xo'jaligi, Veterinariya, Biologiya
UKM	~13,000+	Milliy taraqqiyot, Geologiya, Tibbiyot
UTM	~13,000+	Kompyuter fanlari, Energetika, Muhandislik
USM	~12,000+	Farmatsevtika, Mikroelektronika, Dengiz biologiyasi

Ushbu raqamlar va yo'nalishlar Malayziyaning "Education Blueprint 2015–2025" strategiyasi doirasida qo'yilgan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishganini va mamlakatning ilmiy salohiyati xalqaro miqyosda e'tirof etilganini ko'rsatadi. Xulosa o'rnida Malayziyada 2006-yil kiritilgan tadqiqot universitetlari konsepsiyasi samaradorligi chop etilgan ilmiy maqolalar soni va sifati, ilmiy loyihalarning salmog'i, ilmiy maqolalarga keltirilgan iqtiboslari soni, xorijlik olimlar bilan hamkorlik ko'lami, xalqaro talabalar soni va shu orqali xorijiy ta'lim investitsiyasining ortishi, ishlab chiqarish va davlat bilan hamkorlikning mustahkamlanishi, davlatning iqtisodiy o'sishi va turli sohalarning jadal rivojlanishida o'z aksini topdi.

O'ZBEKISTONDA TADQIQOT UNIVERSITETLARI KONSEPSIYASI

O'zbekistonda Tadqiqot universitetlari konsepsiyasi oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishi hisoblanadi. Bu jarayon asosan «O'zbekiston 2030» davlat strategiyasi va «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» doirasida amalga oshirilmoqda [1, 2]. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda bir nechta OTM rasman «Milliy tadqiqot universiteti» maqomiga ega bo'ldi. Ular orasida eng birinchilardan bo'lib: «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» milliy tadqiqot universiteti (TIQXMMI) — qishloq

xo'jaligi va suv resurslari sohasidagi yetakchi ilmiy markaz hisoblanadi va xalqaro universitetlar reytinglarida o'z o'rnini mustahkamlab bormoqda. Toshkent davlat texnika universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti — fundamental va amaliy tadqiqotlar bazasi sifatida transformatsiya jarayonida. O'zbekistondagi tadqiqot

universitetlari Malayziyaning MyRA tizimiga o'xshash, ammo milliy iqtisodiyotga moslashgan quyidagi ko'rsatkichlar asosida ishlaydi.

- > Ilmiy-tadqiqot natijadorligi: Professor-o'qituvchilarning Scopus va Web of Science bazalaridagi maqolalari sonini keskin oshirish.

- > Moliyaviy mustaqillik: Tadqiqot universitetlariga o'z daromadlarini boshqarish va ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bo'yicha keng huquqlar berilgan.

- > Universitet 3.0 konsepsiyasi: Ta'lim va ilmiy tadqiqotga qo'shimcha ravishda, natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish (innovatsion tadbirkorlik) majburiy etib belgilangan.

Malayziyaning MyRA tizimi kabi, O'zbekistonda ham OTMLar reytingini aniqlashda tadqiqot faoliyatiga ustuvorlik beriladi. Kamida 30-40% professor-o'qituvchilar nufuzli xorijiy ilmiy bazalarda (Scopus va Web of Science) iqtibos olinadigan maqolalarga ega bo'lishi va har bir tadqiqot universiteti qoshida ilmiy ishlanmalarni qo'llab-quvvatlovchi maxsus jamg'armalar tashkil etilishi maqsad qilingan.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining asosiy maqsadi — "Yangi O'zbekistondan – uchinchi Renessans sari" g'oyasini amalga oshirish bo'lib, bunda bilimlar iqtisodiyoti va innovatsiyalar hal qiluvchi o'rin tutadi. Innovatsion iqtisodiyotga o'tish strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan sanaladi. YIMda ilmiy ishlar va innovatsiyalarga ajratilgan ulushni oshirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportini kamida 2 baravar ko'paytirish birlamchi maqsadlar qatorida e'tirof etiladi. Tadqiqot universitetlari aynan shu yuqori texnologiyali mahsulotlar va xizmatlar uchun ilmiy asos yaratishi kerak. Malayziya tajribasidagi UPM (Qishloq xo'jaligi) yoki UTM (Texnologiya) kabi universitetlar o'z sohalarida iqtisodiyot drayveri bo'lganidek, O'zbekistonning TIQXMMI yoki ToshDTU ham tegishli sohalar bo'yicha yetakchilikni o'z zimmlariga olish bilan birga ta'lim, sanoat va davlat uchligi hamkorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi kutilmoqda. Strategiyaning dastlabki namunasi maqsadlari orasida 5 tasi (7-12) ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish O'zbekistonning kamida 10 ta universitetini xalqaro reytinglarda top-1000 talikka, jumladan, 1 tasini top-500 talikka kiritish maqsad qilib olingan edi va bu maqsadga qisqa muddatga erishildi. Yangilangan strategiyada belgilangan maqsadlarga faqatgina "o'qitish" bilan emas, balki "tadqiqot" faoliyatini keskin kuchaytirish orqali erishish mumkinligi oydinlashdi. AQSHning Karnegi klassifikatsiyasi, Buyuk Britaniyaning REF tizimi yoki Malayziyaning MyRA modellarini joriy etish reytinglarda yuqorilash va xalqaro e'tirofning yagona yo'lidir. Oliy ta'limda tadqiqotlar ulushini 50% gacha yetkazish va "Universitet 3.0" modelini to'liq joriy etish aynan tadqiqot universiteti konsepsiyasining asosiy talabidir. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi "uch tomonlama spiral" (Triple Helix) aloqasini o'rnatishga xizmat qiladi. Oliy ta'limda tadqiqotlar ulushini 50% gacha yetkazish maqsadiga, birinchidan, aynan moliyaviy nuqtayi nazardan yondashilsa, an'anaviy universitetlarda budjetning asosiy qismi talabalar to'laydigan kontrakt yoki davlat stipendiyalaridan shakllanadi. Universitet umumiy daromadining kamida 50 foizini ilmiy tadqiqotlardan (grantlar, sanoat buyurtmalari, patentlarni sotish va tijoratlashtirish) olishi kerak. Masalan, Malayziyadagi MyRA tizimida universitetning tashqi manbalardan jalb qilgan ilmiy mablag'lari qanchalik ko'p bo'lsa, uning reytingi va davlatdan oladigan qo'shimcha bonuslari shunchalik yuqori bo'ladi. Ikkinchi tomondan, professor-o'qituvchilar asosiy vaqtini (80-90 foiz) dars berishga (leksiya va seminarlarga) sarflaydi. Professor-o'qituvchilarning ish yuklamasida dars berish hajmini kamaytirib, vaqtning kamida boshlanishida 40-50

foizini ilmiy izlanishlar, laboratoriya ishlari va maqola yozishga yo'naltirishini ta'minlash. Bu o'qituvchining nafaqat «bilim uzatuvchi», balki «yangi bilim yaratuvchi» olim sifatidagi rolini mustahkamlaydi. Uchinchi, tadqiqot universitetlarida talabalar tarkibi tubdan farq qiladi. Universitetdagi jami talabalar sonining kamida 50 foizini ilmiy daraja oluvchilar, ya'ni magistrantlar va PhD doktorantlar tashkil etishi tavsiya etiladi. Bakalavrlar tayyor bilimni o'zlashtirsa, magistrant va doktorantlar universitetda ilmiy mahsulot yaratadigan asosiy ilmiy salohiyat hisoblanadi. Agar O'zbekiston universitetlarida tadqiqotlar ulushi 50% ga yetsa, bu innovatsion startaplar ko'payishiga, universitetlarning xalqaro reytinglarda o'rni keskin o'sishga va ishlab chiqarish bilan aloqalarni mustahkamlanishiga olib keladi. Bu ko'rsatkich universitetning «bilimlar fabrikasi» sifatida iqtisodiy foyda va ilmiy yangilik yaratishdagi quvvatini ifodalaydi. "Malayziyaning ilmiy-tadqiqot universiteti modeli (MyRA tizimi) O'zbekiston uchun "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish va universitetlarni xalqaro reytinglarga olib chiqish maqsadlariga erishishda namuna vazifasini bajaradi." Malayziya tajribasini tahlil qilish orqali biz yangilanayotgan O'zbekistondagi mavjud muammolarga aniq yechimlarni taklif qilishimiz mumkin.

TAKLIF VA MULOHAZALAR

O'zbekiston hozirda "Tadqiqot universiteti" konsepsiyasini keng joriy etish davrida turibdi. Xalqaro tajribani o'rganish, xususan, Malayziyaning MyRA (SETARA) tizimi afzalliklarini joriy etish eng maqbul model hisoblanadi. Aholi soni, yer maydoni, tabiiy resurslari, dini, rivojlanish bosqichlari va ikkala davlatda ham davlat universitetlari ustuvor ekanligi, tizim markazlashgan holda boshqarilishi Malayziya tajribasini ijobiy jihatlaridan saboq olishga sabab bo'la oladi. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi bilan hamkorlikda yangilangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan maqsadlar sari intilar ekan "Tadqiqot universiteti" konsepsiyasini ham muvaffaqiyatli rivojlantirilishiga ishonch bildirgan holda quyidagi takliflarini ilgari surmoqchimiz:

- ✔✔ Malayziyaning MyRA tizimiga o'xshash, ammo O'zbekiston milliy manfaatlariga moslashgan "UzRA" (Uzbekistan Research Assessment) tizimini joriy etish.
- ✔✔ Tadqiqot universitetlari sonini oshirish (aniq reja asosida) va ularda magistratura va doktorantura ulushini kamida 40-50 foizga yetkazish strategiyasi ishlab chiqish.
- ✔✔ Tadqiqot universitetlariga o'z ilmiy ishlanmalaridan kelib tushgan mablag'larni erkin tasarruf etish huquqini berish (moliyaviy mustaqillik berilgan OTM).
- ✔✔ Tadqiqot universitetlari professor-o'qituvchilarni faoliyatini takomillashtirish, xususan o'qitish soatlarini qisqartirish hisobiga ilmiy ish va ilmiy rahbarlik (magistratura va doktorantura) soatlarini ko'paytirish.

- ✔✔ Universitetlarda ilmiy laboratoriya bazasini zamonaviylashtirish (Malayziya tajribasidagi kabi davlat grantlarini ko'paytirish orqali).
- ✔✔ Ingliz tilidagi ilmiy kontentni oshirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish.
- ✔✔ Tadqiqot universitetda natijadorlikni (ilmiy ishlar, loyihalar, doktorlik dissertatsiyalar himoyasi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish,...) tabiiy o'sishini ta'minlash va shoshmashosharlikka yo'l qo'ymaslik.
- ✔✔ "O'zbekiston – 2030" belgilab qo'yilganidek, ilmiy ishlarga ajratiladigan mablag'larni muntazam oshirib borish va undan foydalanishni shaffof va samarali mexanizimini ishlab chiqish
- ✔✔ Tadqiqot universitetlari kafedralariga 2-3 tadan tegishli sohaning yetuk xorijlik olimlarini ilmiy ishlarni jaddalashtirish va sifatini oshirish maqsadida jalb qilish (aniq reja yoki dastur asosida).
- ✔✔ Tadqiqot universitetlari nufuzini mustahkamlash orqali xorijiy talabalar (ayniqsa magistratura va doktorantura bosqichlarida) sonini muntazam oshirib borish.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 5 maydagi PF-76 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/7513052>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 8 sentyabrdagi PQ-275 sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/7726514>
3. De Meyer A. and Ang J., Building Excellence in Higher Education: Singapore's Experience / London: Routledge, 2021. – DOI: 10.4324/9781003083719.
4. Jung Cheol Shin and Soo Jeung Lee Evolution of research universities as a national development strategy: The case of South Korea // Higher Education. – 2015. – Vol. 70, No. 2. – P. 187-202.
5. Karno M.R. A Bibliometric Analysis of Scholarly Publication in Malaysia Research Universities from 2006–2015 // ICOLIS 2016. – Kuala Lumpur : LISU, FCSIT, 2016. – P. 223-234.
6. Nasir Kh. Implementation of Research Assessment Instruments by Malaysia Research Assessment (MyRA) in Malaysian HEIs: Role, Challenges and Strategies / Kh. Nasir // IJRIS, Educational Management. – 2025. – URL: <https://dx.doi.org/10.47772/IJRIS.2024.8120135>.
7. Laurence R. Veysey. The Emergence of the American University / R. Veysey Laurence. – Chicago : University of Chicago Press, 2024.
8. Pinar M. and Horne T.J., Assessing research excellence: Evaluating the Research Excellence Framework // Research Evaluation. 2022. Vol. 31, Iss. 2. P. 173-187. DOI: 10.1093/reseval/rvab042.
9. Peters. M.A. and Besley T., China's double first-class university strategy // Educational Philosophy and Theory. – 2018. – Vol. 50, Iss. 12. – P. 1075-1079. – DOI: 10.1080/00131857.2018.1438822.
10. UK Research Excellence Framework 2029. – URL: <https://2029.ref.ac.uk/>.
11. Welsh H. Higher education in Germany: reform in incremental steps // European Journal of Education. – 2004.
12. <https://discover.educationmalaysia.gov.my/setara-rating/>
13. <https://www.dfg.de/en/research-funding/funding-initiative/excellence-strategy>
14. <https://www.topuniversities.com/world-university-rankings?countries=my>

UNIVERSITET – BILIM ISHLAB CHIQRADIGAN MARKAZ



**Alfira
MAKMUTOVA**

Yangi O'zbekiston universiteti
katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)



O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimi jadal islohotlar maydoniga aylangan. Universitetlar sonining ortishi, xorijiy ta‘lim muassasalari filiallarining ochilishi, ta‘lim dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonlari mamlakat ta‘lim tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Biroq bu jarayon nafaqat imkoniyatlar, balki muayyan muammolar va murakkab vazifalarni ham o‘z ichiga oladi.

Xalqaro tajriba va ilmiy yondashuv bunday islohotlarni to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ta‘lim tizimini global standartlar bilan uyg‘unlashtirish, talabalar tayyorgarligi, ilmiy tadqiqotlarning o‘rni va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari alohida e‘tiborni talab qiladi.

Ana shu mavzular yuzasidan ta‘lim sohasidagi xalqaro mutaxassis, oliy ta‘lim va ta‘lim siyosati sohasida faoliyat yuritayotgan Qozog‘istondagi Suleyman Demirel universiteti hamda O‘zbekistondagi Yangi O‘zbekiston universiteti katta o‘qituvchisi, PhD Alfira Mahmutova bilan suhbatlashdik.

— O‘zbekistonning oliy ta‘lim dasturlari xalqaro standartlarga qanchalik mos keladi?

— Bilasizmi, oliy ta‘limni xalqaro andozalarga moslashtirish bugun nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun strategik ahamiyatga ega. Biz bu orqali ta‘lim sifatini kafolatlashni, diplomlarning dunyo miqyosida tan olinishini va dasturlarimizni global darajada qiyoslanuvchan (comparable) qilishni maqsad qilganmiz. Biroq, bu jarayon tashqaridan ko‘ringanidek oddiy emas, u o‘ziga xos murakkabliklar va ko‘p qirrali vazifalarni qamrab oladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston ta‘lim landshaftida uch xil modeldagi oliygo‘hlarni kuzatishimiz mumkin:



An‘anaviy davlat
universitetlari



Mahalliy dasturlar asosida
ishlovchi xususiy sektor



Xorijiy universitetlarning
filiallari

To‘g‘ri, barcha turdagi muassasalarda xalqaro standartlarga intilish juda kuchli. Ammo masalaning nozik jihati — bu standartlarni qog‘ozda emas, balki amaliyotda qanchalik izchil va sifatli joriy etilayotganida namoyon bo‘lmoqda. Masalan, ko‘plab universitetlarimiz Yevropa kredit transferi va to‘plash tizimi — ECTSga o‘tganini e‘lon qilishdi. Lekin chuqurroq tahlil qilsak, ko‘pincha bu tizimning mohiyati emas, balki shunchaki tashqi qobig‘i (shakli) qabul qilinganiga guvoh bo‘lamiz. Tizimning to‘liq va mazmunli integratsiyasi uchun hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina.

Shuningdek, yana bir kuzatuvimni aytishim kerak: ko‘plab oliygo‘hlar xalqaro standartlarni faqatgina QS kabi nufuzli reytinglarda yuqori o‘rin egallash vositasi deb tushunishmoqda. Vaholanki, reyting bu — natija. Asosiy e‘tibor esa ta‘lim sifatini oshirish, aniq chora-tadbirlar va jarayonlarni doimiy monitoring qilib borishga qaratilishi lozim.

O‘zbekistondagi yangi avlod xususiy universitetlaridan birida faoliyat yuritayotgan mutaxassis sifatida shuni ayta olamanki, intilish va harakat juda yuqori, biroq biz hali yo‘ning boshidamiz. Eng katta vazifamiz — xalqaro tajribani shunchaki nusxalash emas, balki uni universitetning ichki hayotiga, dars berish uslubidan tortib boshqaruvgacha bo‘lgan barcha jarayonlarga chuqur singdirishdir.

— Xalqaro mutaxassis sifatida, o'zbekistonlik talabalarning ta'limga bo'lgan munosabati va tayyorgarligini qanday baholaysiz?

— O'zbekistonlik talabalar haqida gapirganda, birinchi navbatda ularning bilimga chanqoqligini alohida e'tirof etishim kerak. Men ularda sifatli ta'lim olishga, ayniqsa, xalqaro standartlarni o'zlashtirishga kuchli intilishni ko'ryapman. Global fikrlashga harakat qilish, dunyo universitetlariga qiziqish — ularning barchasi zamonaviy yoshlarning qadriyatlarini o'zgarayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, jarayonning o'ziga xos jihatlari ham bor. Masalan, ko'plab yoshlarimiz maktab dasturidan ko'ra, ko'proq ingliz tili kurslariga yoki DTM imtihonlari uchun kerakli bo'lgan fanlarga asosiy kuchini safarbar qiladi. Bu bir tomondan talabaning o'z kelajagiga strategik yondashayotganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan maktab ta'lim tizimida o'quv dasturlarining samaradorligi yoki o'qitish sifati borasida hali yechilishi kerak bo'lgan muammolar borligiga ishora qiladi. Albatta, bu mening shaxsiy kuzatuvlarim va ilmiy xulosa yasash uchun kengroq tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tayyorgarlik darajasiga kelsak, talabalar yangilikka ochiq, ammo xalqaro standartlarga asoslangan o'quv dasturlariga to'liq moslashish uchun ma'lum vaqt talab etiladi. Tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, xorijiy ta'lim mazmunini talabalar ongiga singdirish va metodologiyaga ko'nikish uchun taxminan olti oy vaqt ketadi. Bunda mahalliy mentalitetning o'rni juda katta. Men bir narsaga aminman: mentalitet bilan kurashish emas, balki ta'limni uning ijobiy jihatlari moslashtirgan holda berish ancha samaraliroq natija beradi.

Ta'lim tizimining bugungi holatini tushunish uchun raqamlarga ham bir nazar tashlash lozim. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2023-yilda ta'lim sohasiga yalpi ichki mahsulotning (YIM) 5,3 foizini yo'naltirdi. Bu global miqyosda yaxshi ko'rsatkich va davlatning bu sohani ustuvor deb bilishini tasdiqlaydi. Biroq, inson kapitalini haqiqiy drayverga aylantirish uchun investitsiyalar ko'lamini yanada kengaytirish imkoniyatlari mavjud deb o'ylayman.

— Sizningcha, mintaqa, xususan Qozog'iston oliy ta'lim tizimida qanday muvaffaqiyatli tajribalar mavjud va ulardan O'zbekistonda foydalanish mumkinmi?

— Xalqaro tajribani o'rganish va undagi eng yaxshi namunalarni tatbiq etish, shubhasiz, rivojlanishning muhim omili. Biroq, professor sifatida bir narsani alohida uqtirgan bo'lardim: bir mamlakatda muvaffaqiyat keltirgan "oltin formula" boshqa davlatda avtomatik ravishda xuddi shunday natija bermasligi mumkin. Har qanday "eng yaxshi amaliyot" (best practice) o'sha o'lkaning mahalliy sharoiti, ehtiyojlari va madaniy qatlamlariga moslashtirilishi shart. Afsuski, ba'zan xalqaro modellarni chuqur tahlil qilmay, "nusxa ko'chirish" (copy-paste) yo'li bilan joriy etish holatlari uchraydi, bu esa kutilgan samarani bermaydi.

O'zbekiston kontekstida Bolonya jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiyalashuvni katta imkoniyat deb bilaman. Bu nafaqat talabalar almashinuvini (mobility), balki O'zbekiston diplomlarining dunyo bozorida



tan olinishiga yo'l ochadi. Ammo bu shunchaki hujjatbozlik bo'lib qolmasligi uchun, avvalo, o'qituvchilar va ta'lim menejerlarini qayta tayyorlashimiz, ota-onalarga esa bu islohotlar farzandi kelajagi uchun nima berishini tushuntirishimiz lozim.

Bu borada qo'shni Qozog'istonning "Orleu" milliy malaka oshirish markazi tajribasi e'tiborga molik. Bu markaz o'qituvchilarning mahoratini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni butun respublika bo'ylab yoyishda juda samarali ishlamoqda. Ayniqsa, nufuzli Nazarboyev intellektual maktablarida sinalgan dars berish metodikalarini oddiy maktab va oliygohlarga moslashtirish — bu o'rganishga arziydigan model. O'zbekiston ham o'zining Prezident maktablari yoki ixtisoslashgan maktablaridagi ilg'or tajribani butun tizimga yoyishda shunday yondashuvdan foydalanishi mumkin.

Shuningdek, biz oliygohlarda ilmiy-tadqiqot muhitini tubdan o'zgartirishimiz kerak. Universitet shunchaki dars beradigan joy emas, u bilim ishlab chiqaradigan markaz bo'lishi lozim. Buning uchun esa ilmiy infratuzilmaga va professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyatini oshirishga tizimli sarmoya kiritish shart.

Yana bir muhim yo'nalish — davlat va xususiy sektor hamkorligi. Ta'lim sifatini oshirishda xususiy investitsiyalarning o'рни beqiyos, biroq bu jarayon shaffof va mustahkam huquqiy asoslarga tayanishi kerakki, ta'lim tijoratga aylanib ketmasin.

Qozog'istonda stipendiyalar va grantlar tizimi ham ancha raqobatbardosh shakllangan. Iqtidorli yoshlarni saralab olish va ularni rag'batlantirish mexanizmlari ta'limda sog'lom raqobatni yuzaga keltirdi. O'zbekistonda ham bu borada boy tajriba bor, lekin qo'shni davlatlardagi ijobiy keyslarni o'z milliy maqsadlarimizga moslab tatbiq etsak, o'ylaymanki, natija yanada salmoqli bo'ladi.

— *Innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar oliy ta'limda qanday o'rin tutishi kerak, deb hisoblaysiz?*

— Bilasizmi, biz xalqaro standartlar, Bolonya jarayoni yoki ECTS tizimi haqida gapirganda, ko'pincha faqat o'quv jarayoniga e'tibor qaratamiz. Ammo oliy ta'limning global rivojlanishida ilmiy tadqiqotlarning o'rnini e'tibordan chetda qoldirish — bu eng katta xatodir. Tadqiqot shunchaki laboratoriyada o'tirish emas, bu mavjud bilimlarga tayanib, yangi nazariyalar yaratish, shaxsiy kuzatuv va tahlillar orqali dunyo ilm-faniga hissa qo'shish demakdir.

Ilmiy faoliyatning foydasi faqat global hamjamiyat uchun deb o'ylamaslik kerak. U har bir davlatning ijtimoiy va iqtisodiy o'sishi uchun "kislrorod" kabidir. Aynan tadqiqotlar orqali muammolarning yangi yechimlari va innovatsiyalar dunyoga keladi.

Biroq, professor sifatida bir narsani ochiq aytishim kerak: bizning Markaziy Osiyo mintaqasida ilmiy tadqiqotga yondashuv asosan "mahsulotga yo'naltirilgan" shaklda shakllangan. Ya'ni, agar mablag' ajratilsa, darhol ko'z bilan ko'rsa bo'ladigan, amaliyotda sakson foiz natija beradigan mahsulot talab qilinadi. Ammo ilm-fan har doim ham bunday "tezkor buyurtma" asosida ishlamaydi. Ilmning haqiqiy qiymati ko'pincha darhol mahsulotga aylanmaydigan, lekin kelajakdagi katta kashfiyotlar uchun poydevor bo'ladigan fundamental bilimlarda yashirin bo'ladi.

Shu bois, mening qat'iy qarashim shuki: innovatsiya va tadqiqot oliy ta'limning asosiy ustunlaridan biri bo'lishi shart. Ular taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, murakkab muammolarni hal qilishga yo'l ochadi. Biz tushunishimiz kerakki, har qanday izlanish ham darhol tayyor texnologiyaga olib kelmasligi mumkin, lekin u yangi ufqlar ochadi va mavjud ilmiy chegaralarni kengaytiradi. Natija meva berishi uchun esa, bog'bon kabi sabr bilan vaqt berishimiz kerak.

Universitetlarimizda haqiqiy ilmiy tadqiqot madaniyatini shakllantirish — bu talaba va o'qituvchilarda tanqidiy fikrlashni, ijodkorlikni va dunyoni chuqurroq anglashni tarbiyalashdir. Bu esa mutaxassislarimizga nafaqat mahalliy, balki global muammolarga ham yechim taklif qila oladigan salohiyat beradi. Natijaga qaratilgan yondashuv (outcome-based) yomon emas, lekin ilmiy tadqiqotlarning uzoq muddatli va keng ko'lamli ta'sirini ham qadrlashni o'rganishimiz zarur. Qachonki biz "tezkor natija" bilan "fundamental bilim izlash" o'rtasida oltin muvozanatni topsakgina, ta'lim va ilm-fanda haqiqiy samaraga erishamiz.

— *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini rivojlantirish uchun qanday strategiyalarni tavsiya qilasiz?*

— Oliy ta'limni rivojlantirish haqida gapirganda, bu jarayon alohida yakkama-yakka amalga oshiriladigan ish emasligini yodda tutish kerak. Har qanday strategiyaning samarali bo'lishi uchun ta'limning butun tizimi — maktabgacha, boshlang'ich, o'rta va oliy ta'lim bosqichlari — yaxlit holda ko'rib chiqilishi zarur. Shu sababli ta'lim tizimidagi real vaziyatni chuqur tahlil qilish va unga kompleks, tizimli yondashuv asosida qarash muhimdir.

Oliy ta'lim sifatini oshirish uchun avvalo boshlang'ich va o'rta maktab ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari, o'qituvchilarining maqomi va ta'lim sifati ham talabalarning

oliy ta'limga tayyorgarligini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. O'qituvchilar malakasiga kiritiladigan investitsiyalar nafaqat maktab ta'limining sifatini oshiradi, balki kelajakda oliy ta'lim muassasalariga bilimli talabalar kirishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda maktab tizimida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan bir necha yo'nalish mavjud. Avvalo, STEM fanlari (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) bo'yicha ta'lim sifatini oshirish zarur. Bu texnik sohalarga yo'naltirilgan talabalar uchun zarur poydevor yaratadi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini erta yoshdan shakllantirish ham muhim. Chunki bu ko'nikmalar har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Xorijiy tillar, ayniqsa ingliz tili bilimlarini rivojlantirish ham alohida ahamiyatga ega. Xalqaro hamkorlik va global mehnat bozorida raqobatbardoshlik uchun bu zaruriy shartga aylanib bormoqda.

Ta'lim dasturlarini nazariyaga asoslangan emas, amaliyotga yo'naltirilgan shaklda tashkil etish esa o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bunda nafaqat akademik bilimlar, balki kommunikatsiya, jamoada ishlash va moslashuvchanlik kabi "yumshoq ko'nikmalar"ni shakllantirish ham ta'limning ajralmas qismi bo'lishi lozim. Dars jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quvchilarning bilim olish jarayoni yanada boyitiladi va ular zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlanadi.

Barcha o'quvchilar — ijtimoiy kelib chiqishi yoki imkoniyatidan qat'i nazar — sifatli ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun inklyuziv ta'limni ta'minlash ham zarur. Buning uchun o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini doimiy ravishda yo'lga qo'yish va ularni zamonaviy intellekt texnologiyalar bilan ta'minlash kerak.

Bundan tashqari, maktablar bilan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Bu maktab o'quv dasturlarini oliy ta'lim talabalariga moslashtirish, ta'lim jarayonlari orasidagi uzilishlarni bartaraf etish va talabalarni universitet bosqichiga yanada tayyor qilish imkonini beradi.

Ushbu strategiyalar bilan bir qatorda, ta'lim mazmunini rejalashtirish va uning strategik yo'nalishini belgilash yuqori darajada amalga oshirilishi kerak. Bu borada milliy va xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda, tizimli muhokama va rejalashtirish jarayonlarini tashkil etish tavsiya etiladi. Nazariy jihatdan oddiy tuyuladigan bunday takliflarni amaliyotga joriy etish esa yillab davom etadigan tizimli ishlarni, sabr-toqat va uzluksiz monitoringni talab qiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda ta'lim tizimiga umumiy yondashuvni shakllantirish zarur. Oliy ta'lim samaradorligini oshirish boshlang'ich va o'rta maktab ta'limi poydevorini mustahkamlashdan boshlanishi lozim. Bunday kompleks yondashuv, murakkab va uzoq jarayon bo'lsa-da, mamlakat ehtiyojlari va kelajak avlodlar uchun raqobatbardosh ta'lim tizimini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Zumrad TURSUNOVA

suhbatlashdi

“REGISTRATOR OFISI” HOLATINI O‘RGANISH NATIJALARI



**Begali
XOLMIROV**

Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi bo'lim boshlig'i



Oliy ta'limni rivojlantirish va global hamkorlik markazi tomonidan oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi bo'yicha "Registrator ofisi" faoliyatining holatini o'rganish maqsadida talabalar o'rtasida ijtimoiy ta'lim sifati holatini o'rganish yuzasidan ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnomada "survey.edu.uz" platformasi orqali respublikamizdagi **93 ta** davlat oliy ta'lim tashkilotlarining jami **148 127 nafar** talabalar ishtirok etdi. **Natijalar tahliliga ko'ra quyidagilar ma'lum bo'ldi:**

1

Tadqiqotda talabalarining Registrator ofisi faoliyati haqidagi boxabarlik darajasini aniqlash uchun berilgan **"Registrator ofisi"ning faoliyati haqida qanchalik xabardorsiz?"** degan savolga, talabalarining **45% (66 435 nafari)** bu faoliyatdan qisman xabardorligini bildirgan. **38% (64 673 nafar)** talaba uni to'liq bilishini qayd etgan, **11% (16 081 nafar)** esa Registrator ofisi haqida **ma'lumotga ega emasligini bildirgan.**

i Ma'lumot uchun: Toshkent davlat tibbiyot universiteti 45% (61 nafar), Toshkent davlat transport universiteti 37%2 (107 nafar), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 29% (295 nafar), Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 28% (73 nafar), O'zbekiston Milliy universiteti 22% (1 489 nafar), Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 21% (129 nafar), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 20% (266 nafar), O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 19% (256 nafar), Samarqand davlat tibbiyot universiteti 18% (176 nafar), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali 17% (153 nafar), Urganch davlat universiteti 17% (613 nafar), Nukus davlat texnika universiteti 17% (358 nafar), Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 16% (91 nafar), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti 16% (94 nafar), Namangan davlat universiteti 16% (535 nafar), Toshkent kimyo-texnologiya instituti 16% (47 nafar), O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 16% (116 nafar), Farg'ona davlat texnika universiteti 15% (366 nafar), "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti 15% (24 nafar), Geologiya fanlari universiteti 15% (68 nafar), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali 15% (82 nafar), Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 14% (397 nafar), Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 14% (6 nafar), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali 12% (96 nafar), Jizzax politexnika instituti 12% (64 nafar), Andijon davlat texnika instituti 11% (88 nafar), Toshkent davlat texnika universiteti 11% (304 nafar), Urganch davlat pedagogika instituti 11% (408 nafar), Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 11% (516 nafar), O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti 11% (65 nafar), Navoiy davlat universiteti 11% (292 nafar), Samarqand davlat pedagogika instituti 11% (179 nafar) talabalar Registrator ofisi haqida ma'lumotga ega emasligini bildirishgan.

Registrator ofisi faoliyati haqidagi xabardorlikning pastligi (11% talaba bilmaydi) jiddiy **axborot uzatish bo'shlig'i** mavjudligini ko'rsatadi. Xizmatlarning raqamlashuvi **jismoniy aloqani keskin kamaytirib**, ofisning **"ko'rinmas xizmat"** ga aylanishiga sabab bo'ladi. Bunga **targ'ibotning sustligi**, ayrim talabalarda elektron ko'nikmalar yetishmasligi hamda ma'muriy jarayonlardagi chalkashliklar (vazifalar noaniqligi) ham qo'shilib, xabardorlik darajasining pastligiga olib keladi.

2

Talabalarining Registrator ofisi joylashuvining qulaylik darajasini aniqlash maqsadida berilgan **"Oliygo'ingizda "Registrator ofisi" talabalar murojaat qilishlari uchun qulay joyda joylashganmi?"** degan savolga talabalarining **77% (114 300 nafari)** ofisning barcha talabalar uchun qulay joyda joylashganini tasdiqlagan.

Shu bilan birga, **10% (14 741 nafar)** talaba ofisning qayerda joylashganini bilmasligini qayd etgan.

Ma'lumot uchun: Toshkent davlat tibbiyot universiteti 46% (63 nafar), Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 36% (95 nafar), Toshkent davlat transport universiteti 35% (1992 nafar), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 39% (313 nafar), O'zbekiston Milliy universiteti 24% (1625 nafar), O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 20% (264 nafar), Toshkent davlat yuridik universiteti 19% (254 nafar), "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti 18% (28 nafar), Namangan davlat universiteti 17% (578 nafar), Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 17% (106 nafar), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 17% (232 nafar), O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi 17% (124 nafar), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali 16% (141 nafar), Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 16% (7 nafar), Urganch davlat universiteti 16% (577 nafar), Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 14% (78 nafar), Samarqand davlat tibbiyot universiteti 14% (135 nafar), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali 14% (75 nafar), Andijon davlat texnika instituti 15% (103 nafar), Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 13% (375 nafar), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 13% (229 nafar).

6% (9 113 nafar) noqulaylik tug'dirishini;

Ma'lumot uchun: Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 21% (55 nafar), Toshkent davlat yuridik universiteti 17% (232 nafar), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali 12% (68 nafar), Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 12% (75 nafar), O'zbekiston davlat konservatoriyasi 11% (69 nafar), Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Urgut filiali 11% (80 nafar).

5% (6 946 nafar) esa ofis ayrim fakultetlardan uzoqda joylashganini ma'lum qilgan.

Ma'lumot uchun: Qo'qon davlat universiteti 15% (306 nafar), Navoiy davlat universiteti 12% (337 nafar), Samarqand davlat chet tillar instituti 12% (416 nafar), Toshkent kimyo-texnologiya instituti 11% (33 nafar), Jizzax davlat pedagogika universiteti 10% (149 nafar), Toshkent davlat agrar universiteti 10%, (241 nafar), Jizzax politexnika instituti 10% (52 nafar).

Ushbu tahlildan ma'lum bo'ladiki, Registrator ofisining joylashuvidan qoniqish umumiy yuqori bo'lsa-da, talabalarning 10% uning qayerda ekanligini bilmasligi va 11% (6% + 5%) noqulaylikdan shikoyat qilishi ofisga yo'naltiruvchi belgilar va axborot tarqatish ishlarini yanada yaxshilashni talab qiladi.

3

Talabalarning Registrator ofisi xizmatlaridan qoniqish darajasini aniqlash maqsadida berilgan **“Registrator ofisi” tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlardan qanchalik qoniqsiz?** degan savolga talabalarning **62% (91 406 nafari)** xizmatlardan **“Juda yaxshi”** deya ijobiy fikr bildirgan. Yana **33% (49 083 nafar)** talaba xizmatlarni **“Qoniqarli”** deb baholagan. Shu bilan birga, **3% (4 027 nafar)** xizmatlardan **“Qoniqsiz”** ekanligini, **2% (2 476 nafar)** esa **“Umuman javob bermaydi”** javobini tanlagan.

Ushbu tahlildan ma'lum bo'ladiki, oliygohlarda xizmatlar sifatidan **94% (61% + 33%)** ijobiy baho olingan bo'lsa-da, **“Qoniqsiz”** deb baholagan talabalarning mavjudligi xizmat ko'rsatish sifatini yanada

standartlashtirish va “Qoniqarli” deb baholagan qismning fikrini o’rganish lozimligini ko’rsatadi.

Ma’lumot uchun: Toshkent davlat tibbiyot universiteti 9% (12 nafar), Toshkent davlat transport universiteti 6%+7% (736 nafar), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali 5% (25 nafar), O’zbekiston Milliy universiteti 6%+4% (644 nafar) talabalari “Qoniqarsiz” va “Umuman javob bermaydi” deya javob berishgan.

4

Talabalarining Registrator ofisi xizmatlaridan foydalanishda duch keladigan muammolarni aniqlash maqsadida berilgan **“Registrator ofisi” xizmatlaridan foydalanishda qanday muammolarga duch kelasiz?** degan savolga ko’ra, respondentlarning **46% (68 659 nafari)** Registrator ofisi xizmatlaridan foydalanishda **“Muammo yo’q”** deb javob bergan. Qolgan talabalarining **37% (54 716 nafar)** asosiy muammo sifatida **“Uzoq kutish vaqti”ni, 8% (11 983 nafar) “Yetarli axborot yo’qligi”ni, 7% (9 901 nafar)** esa **“Byurokratik to’siqlar”** mavjudligini bildirgan.

Ma’lumot uchun: (Byurokratik to’siqlar) Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 17 % (45 nafar), Toshkent davlat yuridik universiteti 17 % (228 nafar), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 12 % (222), Buxoro davlat tibbiyot instituti 12 % (411 nafar), Jizzax politexnika institute 12 % (64 nafar), Farg’ona davlat texnika universiteti 11 % (265 nafar) talabalari “Byurokratik to’siqlar mavjud” deb fikrlarini izohlagan. Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filiali 27 % (25 nafar), O’zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali 22 % (29 nafar), Toshkent davlat tibbiyot universiteti 18 % (24 nafar), “Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti 16 % (26 nafar), O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti 15 % (210 nafar), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 15 % (159 nafar), O’zbekiston Milliy universiteti 14 % (912 nafar), Toshkent davlat transport universiteti 13 % (745 nafar), O’zbekiston milliy pedagogika universiteti 13 % (168 nafar), Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 13 % (33 nafar) talabalari “Yetarlicha axborot yo’q” deya javob berishgan.

Ushbu tahlildan ma’lum bo’ladiki, Registrator ofisi xizmatlaridan foydalanuvchilarning katta qismida (46%) muammolar kuzatilmasa-da, kutish vaqtini qisqartirish (37%) va axborot shaffofligini oshirish (8%) kabi muammolar dolzarb bo’lib qolmoqda. Bu, xizmatlarni to’liq raqamlashtirish orqali kutish vaqtini qisqartirish zarurligini ko’rsatadi.

5

Talabalarining Registrator ofisi xizmatlaridan foydalanishda afzal ko’rilgan usulni aniqlash maqsadida berilgan **“Registrator ofisi” xizmatlarini qanday usulda olishni afzal ko’rasiz?** degan savolga ko’ra, respondentlarning **43%** yoki **63 048 nafari** hali ham **“An’anaviy (ofisga borib)”** murojaat qilishni afzal ko’rishini bildirgan. Shuningdek, **36% (53 351 nafar)** talaba **“Onlayn platformalar orqali”** xizmat olishni, **10% (15 457 nafar) “Mobil ilovalar orqali”** va **9% (13 763 nafar) “Telefon orqali”** murojaat qilishni ma’qul ko’rgan.

Ushbu tahlildan ma’lum bo’ladiki, **43%** talabaning hali ham ofisga shaxsan tashrif buyurishni

afzal ko'rishni jismoniy navbatlar va vaqt yo'qotish muammosini keltirib chiqaradi. Shu sababli, Onlayn platformalar (36%) va Mobil ilovalar (10%) talabini birlashtirgan holda, xizmatlarni 100% raqamlashtirish va elektron navbat tizimini majburiy joriy etish lozim.

6

Talabalarning Registrator ofisi xizmatlari shaffofligini baholash maqsadida berilgan **“Registrator ofisi” tomonidan taqdim etilayotgan hujjatlar va xizmatlarning shaffofligi qanday?** degan savolga ko'ra, respondentlarning 68% (100 265 nafari) shaffoflikni **“Juda yaxshi”** deb baholagan. 27% (40 649 nafar) talaba shaffoflikni **“Qoniqarli”** deb hisoblasa, 2% (2 769 nafar) **“Qoniqarsiz”** va 1% (1 809 nafar) **“Umuman shaffof emas”** deb javob bergan.

Ushbu tahlildan ma'lum bo'ladiki, Registrator ofisining shaffofligi 95% (68% + 27%) talaba tomonidan ijobiy baholangan. Ammo, 3% (2% + 1%) talaba shaffoflikdan noroziligini bildirishi, hujjatlarining rasmiylashtirish bosqichini onlayn kuzatish imkoniyatini yaratish orqali to'liq shaffoflikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Ma'lumot uchun: Toshkent davlat transport universiteti 253 (4%), Samarqand davlat tibbiyot universiteti 41 (4%), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali 19 (3%), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 32 (3%), Toshkent davlat tibbiyot universiteti 4 (3%), Farg'ona davlat texnika universiteti 60 (2.5%), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 33 (2%), Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 6 (2%), O'zbekiston Milliy universiteti 145 (2%) talabalar **“Umuman shaffof emas”** deya javob bergan.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 12 (9%), Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 15 (16%), Toshkent davlat yuridik universiteti 72 (5%), Toshkent davlat transport universiteti 296 (5%), O'zbekiston Milliy universiteti 338 (5%), Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 2 (5%), Buxoro davlat tibbiyot instituti 126 (4%), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 61 (3%), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti 18 (3%), Toshkent davlat texnika universiteti 85 (3%), Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 17 (3%), O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 40 (3%), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali 26 (3%), Jizzax politexnika instituti 16 (3%), Toshkent arxitektura-qurilish universiteti 18 (3%), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 30 (3%), Buxoro davlat texnika universiteti 10 (3%), Farg'ona davlat texnika universiteti 61 (3%), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali 14 (3%) talabalar **“Qoniqarsiz”** deya javob bergan.

7

Talabalardan Registrator ofisi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni olish maqsadida berilgan **“Registrator ofisi” faoliyatini takomillashtirish uchun qanday o'zgarishlar kerak deb o'ylaysiz?** degan savolga ko'ra, respondentlarning 68% (100 656 nafari) **“Onlayn xizmatlarni ko'paytirish”** zarurligini bildirgan. Shuningdek, 17% (25 540 nafar) talaba **“Ma'lumot olish jarayonini soddalashtirish”**ni, 10% (14 210 nafar) **“Xodimlarning malakasini oshirish”**ni taklif qilgan, 1% (772 nafar) esa o'z fikrini **“Boshqa”** javobida ko'rsatgan.

Ushbu tahlildan ma'lum bo'ladiki, talabalarning asosiy talabi (68%) raqamli xizmatlarni kengaytirish

bo'lib, bu ofis faoliyatini **100%** onlayn platformaga o'tkazish, ariza berish jarayonlarini soddalashtirish (**17%**) va shaffoflashtirish lozimligini tasdiqlaydi.

8

Talabalarining Registrator ofisi xizmatlarini olish uchun sarflanadigan vaqtni aniqlash maqsadida berilgan **“Registrator ofisi” xizmatlarini olish uchun qancha vaqt sarflaysiz?** degan savolga ko'ra, respondentlarning **63%** yoki **93 053 nafari** xizmatlarni **“Juda tez (24 soat ichida)”** olishlarini ma'lum qilgan. **29% (43 544 nafar)** talaba xizmat **“O'rtacha (2-3 kun)”**da tayyor bo'lishini, **3% (5 078 nafar)** **“Sekin (4-7 kun)”**da va **2% (3 468 nafar)** **“Juda sekin (1 haftadan ortiq)”** vaqt ketishini qayd etgan.

So'rovnoma natijalarida **5%** talaba xizmatlarga bir haftagacha va undan ko'p vaqt sarflashini qayd etgan bo'lsa-da, bu kamida **10 turdagi** murakkab xizmatlarni rasmiylashtirish uchun belgilangan standart me'yoriy muddat **(1 haftagacha)** hisoblanadi. Shu bilan birga, talabalarining **37%** umumiy uzoq kutishdan shikoyat qilishi, standart xizmatlarning bajarilish sur'atini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

9

Talabalarining Registrator ofisi xodimlari xizmat ko'rsatish darajasini baholash maqsadida berilgan **“Registrator ofisi” xodimlarining xizmat ko'rsatish darajasi qanday?** degan savolga ko'ra, respondentlarning **85%** yoki **96 733 nafari** xodimlarning darajasini **“Juda yaxshi”** deya ijobiy fikr bildirgan. **37% (42 557 nafar)** talaba xizmat ko'rsatishni **“Qoniqarli”** deb hisoblagan. Shu bilan birga, **2% (2 855 nafar)** **“Qoniqarsiz”** va **1% (1 385 nafar)** **“Juda past”** deb javob bergan.

Ma'lumot uchun: Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 6 % (6 nafar), Toshkent davlat tibbiyot universiteti 4 % (6 nafar), Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali 4 % (20 nafar), Toshkent davlat transport universiteti 3 % (198 nafar), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3 % (17 nafar) talabalari “Juda past” deb javob berishgan.

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti 8 % (8 nafar), Toshkent davlat tibbiyot universiteti 6 % (8 nafar), Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 6 % (35 nafar), Buxoro davlat tibbiyot instituti 5 % (128 nafar), Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 5 % (64 nafar), Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti 5 % (2 nafar) talabalari “Qoniqarsiz” deya javob berishgan.

Ushbu tahlildan ma'lum bo'ladiki, Registrator ofisi xodimlari xizmat ko'rsatishidan talabalarining katta qismi (**85%**) juda yuqori darajada mamnun bo'lgan. Ammo, **3% (2% + 1%)** talabaning xizmat ko'rsatishni past baholashi, xodimlar malakasini oshirish bo'yicha tizimli treninglar o'tkazish zarurligini tasdiqlaydi.

10

Talabalardan Registrator ofisi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni aniqlash maqsadida berilgan **“Registrator ofisi” faoliyatini qaysi yo'nalishda rivojlantirish kerak deb hisoblaysiz?** degan savolga ko'ra, talabalarining **85%** yoki **76 961 nafari** eng avvalo **“Hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonini tezlashtirish”** zarurligini bildirgan. Ikkinchi o'rinda **“Elektron hujjatlar almashinuvi tizimini joriy etish”** bo'yicha talab **47% (42 320 nafar)**, uchinchi o'rinda esa **“Xizmatlarning avtomatlashtirilgan**

platformasini yaratish” taklifi **27% (24 421 nafar)** bo’ldi. **4% (3 756 nafar)** respondent o’z fikrini **“Boshqa”** javobida ko’rsatgan.

Ushbu tahlildan ma’lum bo’ladiki, talabalarning asosiy talabi — muddatni qisqartirish (**85%**) va bunga erishish yo’li sifatida raqamli yechimlarni (**47% va 27%**) ko’rsatgan. Bu, ofis faoliyatini to’liq raqamlashtirish (Avtomatlashtirilgan platforma + Elektron hujjat aylanishi) tezlikni oshirishning yagona yo’li ekanligini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif qilinadi:


- 1** Har bir yangi qabul qilingan talaba uchun Registrator ofisining faoliyati, xizmatlar ro’yxati va onlayn platformadan foydalanish tartibi haqida majburiy kirish kurslari (Oriyentatsiya) o’tkazish. QR-kodli ma’lumotlarni universitetning har bir ma’muriy binosida va veb-saytida tarqatish.
- 2** Registrator ofislarida majburiy elektron navbat tizimini joriy etish. Bu tizim orqali talabalar xizmat turiga qarab, mobil ilova orqali navbat olishi va kutish vaqtini onlayn kuzatishi kerak. Bu talabalarning vaqtini behuda sarflanishining oldini oladi.
- 3** Registrator ofisi xodimlari uchun “Raqamli xizmat ko’rsatish etikasi va kasbiy malaka” bo’yicha doimiy tizimli treninglar (har yarim yillikda kamida bir marta) o’tkazish.
- 4** Har bir hujjat yoki xizmatning rasmiylashtirish bosqichini (ariza qabul qilindi, ko’rib chiqilmoqda, tayyor) elektron platforma orqali real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatini yaratish. Bu talabalarning hujjat qayerda degan savoliga aniqlik kiritadi.
- 5** Ofis tomonidan tayyorlanadigan barcha ichki hujjatlar (dekanat, buxgalteriya, kadrlar bo’limi bilan) faqat elektron imzo bilan tasdiqlanishi va qog’ozsiz almashinuv tizimiga o’tish. Bu hujjatlarni tayyorlash muddatini bir necha kundan bir necha soatga qisqartiradi.
- 6** Har bir OTMda Registrator ofislari uchun Xizmat ko’rsatish standartlari (Service Level Agreements — SLA)ni tasdiqlash. Unda ma’lumotnoma berishning maksimal vaqti, xodimlarning muomala madaniyati va murojaatlarni ko’rib chiqish tartibi aniq belgilab qo’yilishi shart.
- 7** Oliy ta’lim tashkilotidagi talabalarga ko’rsatiladigan barcha xizmatlarni ro’yxatdan o’tkazish va ularni yagona darcha tamoyili asosida Registrator ofisida ko’rsatilishini tashkil qilish.

KINO TA'LIMIDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR



**Aziza
KURBANOVA**

O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti, pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent



Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari barcha sohalar singari, kino san'ati va audiovizual industriyaning ham strategik rivojlanish omiliga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida kelajak aktyorlari va rejissyorlarini tayyorlash jarayonida SI vositalaridan foydalanish nafaqat texnik yangilik, balki pedagogik paradigmaning o'zgarishi sifatida qaralmoqda. Hozirgi kunda Netflix, Disney, Warner Brothers, Sony Pictures kabi global kino kompaniyalari generativ SI modellari asosida ssenariy strukturasi semantik tahlil qilish, xarakterlarning dramatik rivojlanish yo'nalishini matematik modellashtirish, auditoriyaning qanday qabul qilishini bashorat qilish, katta hajmdagi vizual effektlarni avtomatlashtirilgan ravishda yaratish, algoritmik montaj va raqamli post-prodakshn jarayonlarini soddalashtirish kabi innovatsion yondashuvlardan keng foydalanmoqda. Bunda SI tizimlari inson ijodiy fikrlashini to'ldiruvchi, qaror qabul qilishni tezlashtiruvchi, kreativ jarayonlarni diversifikatsiya qiluvchi intellektual vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Yurtimizda raqamli iqtisodiyot, zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish, yoshlarning kreativ tafakkurini va texnologik salohiyatini oshirishni davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini alohida ta'kidlash lozim. Mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qarori bilan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi. Ushbu qarorda sun'iy intellektga oid bilimlarni takomillashtirishda nafaqat talaba-yoshlarni, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash, xodimlar malakasini oshirish, ushbu jarayonga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish hamda o'qituvchi va professorlarning sun'iy intellektga oid bilim va malakalarini oshirish alohida ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston so'nggi yillarda sun'iy intellekt rivojiga alohida e'tibor qaratmoqda. Davlat rahbari tashabbusi bilan sun'iy intellekt mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha markazlar tashkil etildi, IT-parklar faoliyati kengaytirildi, oliy ta'limda raqamli, multimodal, media-kommunikatsiya kabi yangi fanlar joriy qilinmoqda, kreativ industriya bozorida sun'iy intellekt asosidagi studiyalar, post-prodakshn markazlari paydo bo'lmoqda, milliy kino bozorida sun'iy intellekt asosidagi vizual effektlar (VFX), animatsiya, raqamlashgan arxivlar, virtual suratga olish bo'yicha loyihalar kengaymoqda.

Amalga oshirilgan mazkur islohotlar ko'plab sohalar, xususan, o'zbek kino san'ati kabi kreativ industriyada yangi bosqichni boshlab berdi. Bugun nafaqat texnik ishlab chiqarish jarayoni, balki ssenariy yaratish, kasting, montaj, rang tahlili, ovoz dizayni, vizual effektlar (VFX), virtual prodakshn, deepfake, de-aging, motion capture, generativ kontent yaratish kabi jarayonlar ham sun'iy intellekt yordamida yangicha talqin qilinmoqda.

Ushbu sohaning dolzarbligi shundaki, u ijodkorlarga yangi g'oyalarni tez va samarali amalga oshirish imkonini beradi. Sun'iy intellekt yordamida murakkab vizual sahnalarni yaratish, tarixiy obrazlarni tiklash, katta hajmdagi mediama'lumotlarni tahlil qilish hamda tomoshabin didi va ehtiyojlarini chuqur o'rganish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Natijada kino sanoatida ishlab chiqarish jarayoni tezlashib, byudjet xarajatlari optimallashtiriladi va ijodiy tajribalar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Biroq, oliy ta'limda, xususan, aktyorlik mahorati yo'nalishida bu texnologiyalarni qanday integratsiya qilish kerakligi bo'yicha metodik yondashuvlar hali ham shakllanish bosqichida.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sun'iy intellekt bilan uyg'unlashgan kinematografiya nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki insonning kreativ imkoniyatlarini kengaytiradi. SI texnologiyalari yirik kino industriyalarida "mahsulot ekologiyasi"ni tubdan o'zgartirib, ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish, byudjetni optimallashtirish, vizual murakkablik darajasini oshirish hamda tomoshabin psixologiyasini chuqur tahlil qilish kabi asosiy jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu jarayonda ikkita asosiy davlatning –AQSH va Xitoyning yondashuvlari o'ziga xos xususiyatlarga ega.

AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI (AQSH):

AQSH tajribasi asosan texnologik inovatsiyalarni pedagogik amaliyotga tezda integratsiya qilishda namoyon bo'ladi.

Nyu-York universitetining Tisch san'at maktabi (Janubiy Kaliforniya universiteti) kabi yirik universitetlar SI vositalarini amaliy jihatdan, ayniqsa virtual ishlab chiqish

(Virtual Prodakshn) va aktyorlik mahoratini o'rgatishda oldinda bormoqda. Masalan, "Virtual prodakshnda generativ sun'iy intellekt" kurslari talabalar uchun professional mahorat shakllantirish vositasiga aylanayotganini ko'rsatadi. Bu yondashuvda SI – bu dunyo miqyosidagi yirik korxonalar va universitetlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini ochadigan vosita hisoblanadi. Boshqa tomondan, AQSHda SI ning "AI anxiety" (SI dan qo'rqish) kabi psixologik barqarorlikni ta'minlashga oid muammolar ham pedagogik jarayonning bir qismiga aylanadi. Kolumbiya Universitetidagi loyihalar bu muammoni bahslashishning pedagogik usuli sifatida namoyish etadi. Shunday qilib, AQSH tajribasi SI vositalarini yuqori texnologik darajada integratsiya qilish va ulardan amaliy mahoratlar shakllantirishda yutuqqa erishdi.

XITOIY:

Xitoyning yondashuvi AQSH dan sezilarli darajada farq qiladi. Bu yerda sun'iy intellekt siyosati davlat tomonidan kuchli ravishda belgilangan va dasturiy qo'llab-quvvatlanadi. "Digital China" strategiyalari va hukumat tomonidan joriy qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellekt bo'yicha innovatsion harakatlar rejasi" bu davlat siyosatining markaziy ahamiyatini tasvirlaydi. An'anaviy san'at sohalari bilan birgalikda SI integratsiyasi kengaytirilmoqda. Masalan, Markaziy Drama Akademiyasi (CAD) va Pekin Texnologiya Instituti bilan "Mei Lanfangning raqamli egizak inson" loyihasi an'anaviy xalq san'ati (Pekin operasi) bilan sun'iy intellektning sinxronlashtirilishiga misol bo'ladi. Xitoyda SI vositalari faqatgina yaratish vositasidan ko'ra, mamlakat madaniyatini saqlab qolish va uning modernizatsiyasida ham roli katta. Shanghai Theatre Akademiyasi yetakchilari "overall entry, professional exit" (to'liq tushungan holda, malaka egasi sifatida tashqi muhitga chiqish) prinsipini qo'llashni tavsiya qiladi, bu esa SI ni vosita sifatida qabul qilish, lekin professional mahoratni o'zlashtirishni talab qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarining kino san'ati ta'limida sun'iy intellekt texnologiyalarni integratsiya qilishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish, kreativ industriya uchun raqamli kompetensiyalarning yangi modeli va baholash mezonlarini ishlab chiqish dolzarb darajaga ko'tarilmoqda. Bugungi kunda professor-o'qituvchilarga nafaqat pedagogik faoliyatda SI dan foydalanish, balki vizual sahna rejasi, kasting, montaj, rang tahlili, ovoz dizayni, vizual effektlar (VFX), virtual prodakshn, deepfake, de-aging, motion capture

hamda generativ kontent yaratish kabi zamonaviy yo'nalishlar ham sun'iy intellekt texnologiyalari bilan uyg'un holda o'rganish talabi qo'yilmoqda.

1 Ssenariy va harakter tahlili: pedagoglar SI vositalaridan foydalanib, talabalarga ssenariy strukturasi semantik tahlil qilishni o'rgatishlari mumkin. SI tizimlari xarakterlarning dramatik rivojlanish yo'nalishini matematik modellashtirishga yordam beradi. Bu aktyorga o'z roli ichki olamini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Masalan, SI yordamida personajning psixologik portretini yaratish va uning emotsional o'zgarishlarini grafik ko'rinishda tahlil qilish mumkin.

2 Virtual repetitsiya va hamkor: SI vositalari talabalar uchun virtual repetitsiya partneri sifatida ishlatilishi mumkin. Chatbotlar va ovozli SI modellar talabaga matn yodlash, intonatsiyani mashq qilish va turli vaziyatlarda improvizatsiya qilishda yordam beradi. Bu o'qituvchining vaqtini tejashga va talaba bilan shaxsiy ishlashga ko'proq imkoniyat yaratadi.

3 Vizual va ovozli tahlil: kinematografiya sohasida yetakchi bo'lgan Ang Li, Jeyms Kameron, Robert Zemekis, Denis Villnev kabi rejissyorlar sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan virtual prodakshn texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etib, yangi avlod vizual estetikasini shakllantirmoqda. Ularning ish tajribasi "Real-time vizualizatsiya" (jonli tasvirni shu zahoti kompyuter grafikasi bilan birlashtirish), sun'iy intellekt yordamida harakat va yuz ifodasini avtomatik rekonstruksiya qilish, "Deep learning" asosidagi yorug'lik, rang va atmosfera simulyatsiyasi, virtual kameralar orqali sun'iy muhitlarda suratga olish, raqamli aktyorlar va sintetik obrazlar yaratish kabi jihatlarda namoyon bo'lmoqda. Pedagoglar ushbu texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash orqali talabalarga zamonaviy maydonchada ishlash ko'nikmasini berishlari kerak.

Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Fransiya, Kanada tajribasi: Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Fransiya, Kanada kabi davlatlar media-ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqib, sun'iy intellekt modullarini o'quv dasturlarining ajralmas qismiga aylantirdi.

Janubiy Koreyada sun'iy intellekt kinematografiya klasterlari, virtual prodakshn laboratoriyalari va "deepfake" etikasi bo'yicha maxsus markazlar tashkil qilingan.

Singapurda MediaCorp va milliy universitetlar hamkorligida sun'iy intellekt-storytelling, data-driven film analysis yo'nalishlari joriy etilgan. Turkiyada kinematografiya va media fakultetlarida sun'iy intellekt-VFX, generativ kontent, smart-film dasturlari bo'yicha qo'shma o'quv modullari yaratilgan.

Fransiyada CNC (Centre National du Cinema) tomonidan sun'iy intellekt asosidagi kino loyihalar uchun grantlar, tadqiqot fondlari ajratilmoqda.

Kanada Montreal va Toronto texno-klasterlari sun'iy intellekt va filmga ixtisoslashgan dunyodagi eng katta VFX studiyalarini shakllantirgan.

Bugungi kunda ushbu davlatlarda sun'iy intellekt modullarisiz media ta'limini tasavvur qilib bo'lmaydi. Talabalarga ssenariy analitikasi, vizual simulyatsiya, data-kinematografiya, virtual muhitlarda suratga olish, mashinaviy o'rganish asosida montaj hamda filtratsiya jarayonlari bo'yicha chuqur bilim berilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarning ayrim ehtimoliy xavf va muammolari ham mavjud. Masalan, deepfake yoki generativ kontent noto'g'ri maqsadlarda ishlatilsa, axborot ishonchliligiga putur yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellektdan haddan tashqari ko'p foydalanish ba'zan inson ijodkorligining individual uslubini cheklashi yoki mualliflik huquqi bilan bog'liq bahsli masalalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Aktorlikning "embodied" (jismaniy-ma'naviy) tabiati bilan SI texnologiyalarining mos kelishi masalasi eng muhim muammolardan biridir. Aktyorlikning asosiy qismi – bu jismoniy ifoda, ruhiy alam va ijodiy tanallik. SI hozirda bu murakkab "embodied" tajribani to'liq bajara olmaydi. Shu bois pedagoglar SI ni vosita sifatida qabul qilish, lekin professional mahoratni o'zlashtirishni talab qiluvchi yondashuvni qo'llashlari kerak.

Talabalar va ba'zi mutaxassislar SI ga bo'lgan hayrat va qo'rqinchi ("SI anxiety") ham mavjud. Bu qo'rquvni pedagogik jarayon orqali yengish lozim. Biz pedagoglar "qo'llashni to'xtatib bo'lmaydi, shuning uchun modellarimizni, foydalanish maqsadimizni to'g'ri yo'naltirish kerak" degan prinsipi bilan to'g'ridan-to'g'ri munosabatni ifodalashimiz zarur. Bu holatda SI – bu o'quvchilarning o'z kasblari va kelajagi haqidagi rejalar, kreativ g'oyalarni takomillashtirish vositasidir.

Etik nazorat – bu sun'iy intellekt vositalaridan ta'lim jarayonida foydalanishda inson qadr-qimmatini, adolat, shaffoflik, mas'uliyat, maxfiylik va akademik halollik tamoyillariga rioya etilishini ta'minlaydigan me'yoriy, pedagogik va tashkiliy boshqaruv tizimidir.

Pedagogik faoliyatda etik nazoratning asosiy vazifasi SI vositalarini shunchaki texnik qurol sifatida emas, balki ta'limiy ta'sirga ega ijtimoiy-pedagogik mexanizm sifatida boshqarishdan iborat. Chunki SI o'qitish, baholash, tahlil qilish, tavsiya berish va kontent yaratish jarayonlariga bevosita aralashadi.

Ta'limda SI texnologiyalaridan foydalanish ikki tomonlama natija beradi, bir tomondan, o'quv jarayonini individuallashtiradi, tezlashtiradi va boyitadi; ikkinchi tomondan, noto'g'ri qo'llansa, algoritmik nohaqlik, ma'lumotlar maxfiyligining buzilishi, plagiat, intellektual qaramlik, pedagogik subyektivlikning yo'qolishi kabi xavflarni keltirib chiqaradi. Shu sababli etik nazorat ta'lim tizimida SI dan foydalanishning normativ-chegaraviy mexanizmi sifatida qaraladi. Pedagogik jarayonda etik nazorat funksiyalarini quyidagicha ajratishimiz mumkin:

ETIK NAZORATNING PEDAGOGIK VAZIFALARI



Etik nazorat pedagogik faoliyatda sun'iy intellektdan foydalanishning ijtimoiy, axloqiy va didaktik oqibatlarini baholash, tartibga solish hamda xavflarini minimallashtirishga qaratilgan institutsional va metodik nazorat tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Kelajakda esa sun'iy intellekt va inson ijodkorligi o'zaro uyg'unlashgan holda rivojlanishi kutilmoqda. Bu jarayon kino san'ati, media ta'limi va kreativ industriya uchun yangi istiqbollarni ochib, yanada innovatsion, interaktiv va tomoshabinga yaqin mediakontent yaratilishiga xizmat qiladi. Shu bois bugungi kunda yosh mutaxassislarni raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishga o'rgatish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni isbotlaydiki, sun'iy intellekt – kinematografiyani faqat texnik jihatdan emas, balki estetik, pedagogik, iqtisodiy va sotsiokultural jihatdan ham yangi paradigma bilan ta'minlovchi strategik omildir. Bu tajribalar O'zbekiston kino va teatr san'ati maktabi oldida ham yangi avlod sun'iy intellekt – savodli mutaxassislarni tayyorlash, raqamli kontent bozoriga mos milliy platformalarni rivojlantirish, ijodiy jarayonlarda intellektual texnologiyalardan mas'uliyatli va etik foydalanish kabi yangi vazifalarni qo'yadi.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim muassasalarida kino va teatr aktyorligi yo'nalishlarida sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

✔ **O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish.** Kino, teatr aktyorligi, rejissura, ssenariynavislik va media ta'limiga oid fanlar mazmunini zamonaviy raqamli kompetensiyalar asosida qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Xususan, sun'iy intellektning nazariy asoslari, generativ media vositalari, virtual prodakshn texnologiyalari, raqamli postprodakshn, media tahlil va kreativ platformalar bilan ishlashga oid modullar o'quv dasturlariga bosqichma-bosqich integratsiya qilinishi lozim. Bu yondashuv talabalarda an'anaviy kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda zamonaviy raqamli-ijodiy kompetensiyalarni ham shakllantiradi.

✔ **Sun'iy intellektga oid maxsus o'quv modullarini joriy etish.** Aktyorlik mahorati, sahna nutqi, kino tahlili, mizanssena, ssenariy asoslari, ekran dramaturgiyasi va rejissura fanlari tarkibiga sun'iy intellektga asoslangan amaliy topshiriqlarni kiritish tavsiya etiladi. Masalan, virtual obrazlar bilan ishlash, sahna holatlarini generativ modellashtirish, dialog yozish jarayonida SI yordamidan foydalanish, aktyorlik mashqlarining raqamli tahlilini amalga oshirish kabi mashg'ulotlar ta'limning amaliy yo'nalishini kuchaytiradi.

✔ **Professor-o'qituvchilarning pedagogik-texnologik kompetensiyasini oshirish.** Sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish ko'p jihatdan pedagoglarning tayyorgarligiga bog'liq. Shu bois professor-o'qituvchilar uchun sun'iy intellekt texnologiyalari, raqamli pedagogika, kreativ media vositalari, adaptiv o'qitish tizimlari va generativ platformalardan foydalanish bo'yicha muntazam malaka oshirish kurslari, amaliy seminarlar va metodik treninglar tashkil etilishi zarur. Bu esa pedagoglarning yangi texnologik vositalarni dars jarayoniga maqsadli, metodik asosda va natijadorlikka yo'naltirilgan holda integratsiya qilishiga imkon yaratadi.

- ✔✔ **Etik va huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish.** Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish masalasi pedagogik innovatsiya bilan bir qatorda axloqiy va huquqiy mas'uliyatni ham talab qiladi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning institutsional etik kodeksi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Unda akademik halollik, mualliflik huquqi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, talabning ijodiy mahsuliga nisbatan mulkiy va ma'naviy huquqlar, shuningdek, SI vositalaridan foydalanish chegaralari va me'yorlari aniq belgilanishi zarur.
- ✔✔ **Amaliy va loyiha asosidagi ta'limni kuchaytirish.** Talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmaga aylantirish uchun sun'iy intellekt va virtual prodakshn vositalari asosida loyiha faoliyatini rivojlantirish lozim. Xususan, qisqa metrajli filmlar, virtual sahna ko'rinishlari, raqamli dramaturgiya tajribalari, generativ vizual kontent yaratish hamda interaktiv media mahsulotlari tayyorlashga qaratilgan amaliy laboratoriyalar tashkil etilishi zarur. Bunday yondashuv talabalarda jamoa bilan ishlash, texnologik muhitga moslashish va kreativ g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
- ✔✔ **Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.** AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya, Yevropa va boshqa davlatlarning ilg'or oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda qo'shma ilmiy-amaliy loyihalar, mahorat darslari, virtual seminarlar, akademik almashinuv dasturlari va qo'shma virtual prodakshn loyihalarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu nafaqat mahalliy ta'lim tizimini xalqaro tajriba bilan boyitadi, balki O'zbekiston talabalari va pedagoglarining global kreativ ta'lim makoniga integratsiyasini kuchaytiradi.
- ✔✔ **Milliy raqamli ta'lim platformalarini yaratish.** O'zbekiston kino va teatr ta'limi ehtiyojlariga mos, o'zbek tilida ishlaydigan, mahalliy madaniy-estetik qadriyatlarni hisobga oluvchi raqamli o'quv platformalarini ishlab chiqish zarur. Bunday platformalarda video darslar, interaktiv mashqlar, aktyorlik simulyatorlari, generativ ssenariy vositalari, virtual sahna modullari va sun'iy intellekt asosidagi tahliliy servislar birlashtirilishi mumkin. Bu esa milliy ta'lim kontentining rivojlanishiga va mahalliy o'quv muhitining mustaqil raqamli infratuzilmasini shakllantirishga xizmat qiladi.
- ✔✔ **Talabalarda raqamli va kreativ kompetensiyalarni kompleks shakllantirish.** Zamonaviy kreativ industriya sharoitida talabalardan nafaqat badiiy tafakkur, balki raqamli savodxonlik, media tahlil, sun'iy intellekt vositalaridan foydalana olish, prompt madaniyati, kontent strategiyasi va platformaviy fikrlash ko'nikmalari ham talab etiladi. Shu bois ta'lim jarayonida texnik va ijodiy ko'nikmalarni birlashtiruvchi kompetensiyaviy modelni ishlab chiqish muhimdir.

✔ **Ilmiy tadqiqotlar va monitoring tizimini yo'lga qo'yish.** Sun'iy intellektning kino va teatr ta'limiga ta'siri muntazam ilmiy monitoring asosida o'rganilishi zarur. Bunda o'quv natijalari, talabalar motivatsiyasi, kreativ o'sish dinamikasi, pedagogik samaradorlik, baholash va ta'lim sifati indikatorlari kompleks tahlil qilinishi lozim. Mazkur monitoring asosida ta'lim siyosati, o'quv dasturlari va pedagogik metodikalarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish mumkin bo'ladi.

✔ **Innovatsion ta'lim ekotizimini shakllantirish.** Sun'iy intellekt, kreativ media va kino ta'limi integratsiyasiga asoslangan innovatsion ta'lim ekotizimini yaratish kelajak uchun ustuvor vazifalardan biridir. Bunda universitet, kreativ industriya, kinostudiyalar, media markazlar, IT kompaniyalar va startup muhit o'rtasidagi hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilishi lozim. Mazkur ekotizim ta'lim, amaliyot va sanoat o'rtasidagi uzviy aloqani ta'minlab, yosh mutaxassislarni real bozor talablariga mos tayyorlash imkonini beradi.

Ushbu yondashuvlar yosh ijodkorlarning nafaqat an'anaviy kino ijodini, balki zamonaviy mediakontent ishlab chiqish, raqamli platformalarda kreativ g'oyalarni amalga oshirish va global kreativ industriya talablariga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashgan kino ta'limi kelajakda milliy kinematografiyaning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". - [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7158604> (murojaat qilingan sana: 22.07.2025).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. - [Elektron resurs]. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5031885> (murojaat qilingan sana: 22.07.2025).
3. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. - Paris: UNESCO, 2023. - 44 p. - ISBN 978-92-3-600139-5. - [Elektron resurs]. URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000389351>
4. New York University. CSCI-UA 9472 Artificial Intelligence: Syllabus. - New York: New York University, 2023. - [Elektron resurs]. URL: https://www.nyu.edu/content/dam/nyu/globalPrgms/documents/paris/academics/Syllabi/summer2023/Sample_Syl_Paris_CSCI-UA%209472_Summer%202023.pdf
5. Kortas C. An Exploratory Practice Study on the Use of Film Adaptation in ... - Columbia University, 2023. - [Elektron resurs]. URL: <https://academiccommons.columbia.edu/doi/10.7916/rpwf-rd77/download>
6. Shanghai Theatre Academy. Shanghai Xiju Xueyuan 2023-2024 xuenian benke jiaoxue zhiliang baogao [Shanghai Theatre Academy 2023-2024 Undergraduate Teaching Quality Report]. - Shanghai, 2024. - [Elektron resurs]. URL: https://xxgk.sta.edu.cn/_upload/article/files/55/09/e6423c7f4c8f8e4da91d3c764f22/a765064c-0af5-46b9-bb45-32bf76546bc6.pdf
7. European Commission. Erasmus+ KA2 2021-2027 Partnerships for Cooperation and Exchanges of Practices: Projects Overview [CSV dataset]. - 2023. - [Elektron resurs]. URL: https://ec.europa.eu/programmes/erasmus-plus/project-result-content/119fa0ad-a537-4253-8071-4d070b8cc29b/ErasmusPlus_KA2_2021-2027_PartnershipsForCooperationAndExchangesOfPractices_Projects_Overview_2023-10-21.csv
8. Lexology. In Brief: Media Law and Regulation in Singapore. - [Elektron resurs]. URL: <https://www.lexology.com/library/detail.aspx?g=5bf04974-feb6-4fc6-a5fd-f97d0f18ec35>
9. Columbia University. Office of the Provost. Generative AI Policy. - [Elektron resurs]. URL: <https://provost.columbia.edu/content/office-senior-vice-provost/ai-policy>

SUN'YIY INTELLEKT TALABA UCHUN DO'ST YOKI DUSHMAN?!



Bugungi dunyo juda tez o'zgarmoqda. Texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmoqda va bizni ham yangi sharoitga moslashishga majbur qilyapti. So'nggi yillarda sun'iy intellekt kundalik hayotimizga kirib keldi — o'quv jarayonining deyarli ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Endi talabalar uchun topshiriq va vazifalarni bajarish, ma'lumotlar topish yoki murakkab mavzularni tushunish avvalgidan ancha yengillashdi. Ammo, shunday qulayliklar ortida bir muhim savol ham paydo bo'ladi: sun'iy intellekt talabalarning tahliliy, tanqidiy, kreativ firklash qobiliyatini zaiflashtirmaydimi? Kitob titkilamagan, manbalar bilan ishlamagan, vazifalarning barchasini Slda bajargan talaba egallayotgan sohasining mutaxassisi bo'la oladimi? Ayni savollar bilan talabalarning o'zlariga yuzlandik. Javoblar esa quyidagicha bo'ldi.

Dilnura To'rayeva,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi:

— Men sun'iy intellektni ko'proq do'st deb bilaman. Chunki, u o'qish jarayonimda menga yordam berayotgan vositaga aylangan. Asosan sun'iy intellektdan kunimni rejalashtirishda shuningdek, o'qiyotgan adabiyotlarimdagi tushunarsiz joylarni tahlil qilishda foydalanaman. Ayniqsa, tarixiy va huquqiy mavzularda murakkab matnlarni sodda qilib tushuntirib berishi menga juda qulay. Oldin bir mavzu uchun Googledan 5–6 ta manbani ko'rib chiqishimga to'g'ri kelardi, hozir esa SI ularni jamlab, xulosa qilib berayapti. Umuman olganda, sun'iy intellekt o'qishimga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo shunga yarasha xavflari ham bor. Agar unga haddan tashqari suyanib qolinsa, bu odamni biroz dangasa qilib qo'yishi, kreativlik va ijodiy yondashuvni cheklashi mumkin. Menimcha, sun'iy intellektdan shaxsiy rivojlanish uchun foydalansa, u ancha foyda beradi. Ammo faqat unga tayanib qolish to'g'ri emas. Men biror mavzuni tushunmasam, tashlab qo'ymayman, balki sun'iy intellektdan yana tushuntirib berishini so'rayman. Bu esa aksincha, o'qishga bo'lgan motivatsiyamni oshiradi. Sun'iy intellekt o'quv jarayonini ancha osonlashtiradi. Albatta, oddiy narsalarni ham undan so'rash yaxshi emas, lekin jiddiy va murakkab masalalarda undan foydalanish foydali, deb hisoblayman.



Nazokat Nig'monjonova,

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi:

— Sun'iy intellekt yozgan so'rovlarimiz orqali biz haqimizdagi ma'lumotlarni yig'adi, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi ta'minlanganmi degan savol shu uchun meni ko'p o'ylantiradi. Lekin yaxshi tomoni shundaki, innovatsion dasturlar va ko'p turdagi axborotni bizga taqdim etadi. Asosan sun'iy intellektdan darsliklar va o'qish materiallarini tez va qulay tarzda o'rganish uchun foydalanaman. Umuman olganda, uning ta'siri menga o'rtacha darajada ijobiy ta'sir qiladi. Sun'iy intellektdan samarali foydalanishning eng to'g'ri yo'li — faqat bilmagan narsalarni o'rganish va tushunish uchun undan foydalanish, deb hisoblayman. Shuningdek, u menga iqtisodiy va siyosiy sohalardagi ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi va motivatsiyamni kuchaytiradi. Sun'iy intellektning eng katta afzalligi tezkor va qulay axborot olish imkonini berishidir.

Zahro Ziyodullayeva,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi:

— Men filologiya va tillarni o'qitish (rustili) yo'nalishida tahsil olaman. Sun'iy intellektga munosabatim ikki tomonlama u men uchun ham do'st, ham dushman bo'lishi mumkin. Asosan sun'iy intellektdan darslarga tayyorlanishda va ma'lumot olish jarayonida foydalanaman. Uning o'qishimga ta'siri o'rtacha darajada, lekin ayrim qiyinchiliklarni yengillatishda yordam berayotganini inkor eta olmayman. Umuman olganda, u o'quv jarayonini osonlashtiradi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning xavflari ham mavjud. Menimcha, u talabalarni biroz dangasa qilib qo'yishi yoki ba'zi holatlarda yolg'on va to'qima ma'lumotlar bilan ta'minlashi mumkin. Shuning uchun undan samarali foydalanish uchun faqat tasdiqlangan va ishonchli axborot olish, yoki o'z yo'nalishimiz doirasida rasmiy manbalarni topish va ularga tayangan holda ishlash muhim, deb hisoblayman.

Madina Azimova,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi:

— Fikrimcha, sun'iy intellekt talaba uchun ko'proq do'st, ammo undan noto'g'ri foydalanilsa, dushmanga ham aylanishi mumkin. Bugungi kunda sun'iy intellekt talabalarga bilim olishda katta yordam bermoqda: murakkab mavzularni tushuntiradi, mustaqil tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi va vaqtni tejaydi.

Shu bilan birga, agar talaba barcha vazifalarni sun'iy intellektga topshirib qo'ysa, u mustaqil fikrlash va muammo yechish qobiliyatini yo'qotishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatining pasayishiga olib keladi. Chunki, haqiqiy bilim mehnat va izlanish orqali shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektning talaba hayotidagi o'rni uning imkoniyatlaridan qanday va qanchalik ongli foydalanilishiga bog'liq. Agar u bilimni chuqurlashtirish va o'rganishni yengillashtirish uchun ishlatilsa, foydali yordamchiga aylanadi. Aksincha, mas'uliyatsiz foydalanilsa, u ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Madina Maxsimova,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi:

— Sun'iy intellekt bugun nafaqat talabalarning, balki hammaning eng yaxshi yordamchisiga aylangan. U ma'lumotlarni tez tahlil qiladi va murakkab vazifalarni yengillashtirishda yordam beradi. Ammo har bir narsaning ijobiy va salbiy taraflari bo'lgani u ham faqat ijobiy xususiyatlar bilan cheklanib qolmaydi. Nazarimda, sun'iy intellekt vazifalarni bajarishni yengillashtirish barobarida insonlarni dangasa qilib qo'yimoqda ya'ni ma'lumotlarni izlashda tezkorlik bilan javob olish mumkin ammo, manbalar bilan ishlash, aniq faktlardan foydalanish, o'z nuqtai nazarini bildirish kamayib ketgan. Bu esa odamlarda fikr yuritish qobiliyatini susayishiga olib kelishi mumkin.

P/S: Darhaqiqat, sun'iy intellekt talabalar hayotini ancha osonlashtirdi — bilim olish jarayonini tezlashtirdi, o'rganish uchun yangi eshiklarni ochdi. Ammo, har bir qulaylikning ikkinchi tomoni ham bor: bu texnologiyadan qanday foydalanishimiz natijani belgilaydi. Agar u faqat tayyor javob manbaiga aylanib qolsa, talabaning mustaqil fikrlashi so'nadi. Shuning uchun sun'iy intellektni na mutlaq yordamchi, na xavf sifatida ko'rish to'g'ri — u shunchaki vosita. Asosiysi, biz uni boshqaryapmizmi yoki u bizni, shu masalaga oydinlik kiritilsa bas...

**E'zozabonu ABDUMUTALIYEVA,
Mashhura NURULLOYEVA**

yoziq oldi



